



# Aiiifbe

## O'QITUVCHI KITOBI

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
tomonidan nashrga tavsiya etilgan

TOSHKENT – 2021

UO'K 373.3.016:003.081.3(072)  
KBK 74.102ya72  
A 51

**Rohatoy Safarova, Muhayyo Inoyatova, Mirhabib G'ulomov,  
Dadajon Sayfurov, Dilrabo Malikova**

Alifbe Metodik qo'llanma [Matn] : o'qituvchilar uchun  
metodik qo'llanma / R. Safarova [va boshq.]. –  
Toshkent : Respublika ta'lim markazi, 2021. – 96 b.

Ushbu qo'llanma umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilariga mo'ljallangan bo'lib, unda 1-sinfda savodga o'rgatish metodikasi, o'quvchilarni savodga o'rgatish jarayonida amaldagi smart darslikdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Taqrizchilar:

- Sh. A. Abdullayeva – Toshkent davlat pedagogika universitetining boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor;
- F. B. Karimova – Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 281-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi;
- N. A. Paxritdinova – Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi 67-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.



Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.



# Mundarija

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi .....	4
Kirish .....	6
Alifbe darsligiga qo'yiladigan nazariy-amaliy talablar .....	7
<b>I-BO'LIM.</b>	
Darslik nima?.....	7
Savod o'rgatishning tahlil-tarkib usuli.....	9
Savodga o'rgatish davrida interfaol usullardan foydalanish (didaktik o'yinlar misolida).....	12
Savodga o'rgatish davrida ta'lim-tarbiyaning birligi tamoyilini amalga oshirish .....	18
So'zlarni o'qishga o'rgatish.....	21
Ta'lim jarayonida smart darsliklardan foydalanish .....	24
To'ldirilgan voqelik nima?.....	26
Smart darslik.....	27
Smart dasturni o'rnatish .....	28
Smart darslik.....	28
Smart dasturdan foydalanish .....	29
Ta'lim oluvchilarda qabul qilish uslubiga bog'liq ravishda darslarni o'zlashtirish darajasi.....	34
Smart darsliklarga qo'yiladigan talablar.....	35
Smart darslik yordamida darsni tashkil etish ssenariysi.....	37
Smart darsliklar bilan o'qishni tashkil etishda pedagogning vazifasi.....	38
Smart darslik yordamida ta'lim jarayonini amalga oshirish.....	38
<b>II-BO'LIM. DARS ISHLANMALARIDAN NAMUNALAR.</b>	
1-dars. Og'zaki nutq haqida tushuncha. Mustaqillik – oliy ne'mat .....	39
2-dars. Og'zaki va yozma nutq. Gap haqida amaliy tushuncha. Maktab bizni chorladi .....	42
5-dars. Bo'g'in va so'z haqida tushuncha. Vatanimizda kuz.....	46
7-dars. Gap, so'z, bo'g'in va tovush uzviyligi. Bog'da (mustahkamlash darsi) .....	50
<b>Alifbe davri.</b>	
11-dars. O tovushi va Oo harflari .....	53
12-dars. N tovushi va Nn harflari.....	57
16-dars. Aa tovushi va Aa harflari .....	61
20-dars. I tovushi va Ii harflari.....	65
31-dars. L tovushi va Ll harflari .....	67
<b>III-BO'LIM.</b>	
Birinchi sinfda yozuv malakalarini shakllantirish .....	71
Savod o'rgatish, nutq o'stirish va yozuv fanidan yillik taqvim reja.....	87



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI TIZIMINI 2030-YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI

### **Bilimlar manbayi**

2030-yilga kelib asosiy bilim olish kontentlari, ta'lim mazmuni internet resurslari orqali taqdim etiladi. Klassik shakldagi darsliklar o'quv kontentini o'zlashtirish uchun kalit, ya'ni o'quv kontentini tezroq o'zlashtirish uchun ko'rsatma sifatida xizmat qiladi. Badiiy adabiyot va kitobxonlik esa jamiyatda eng zo'r trendga aylanadi.

### **Maktab tizimi**

Tizimda ta'lim berishning turli shakllaridan, faoliyatning to'ldirilgan prinsipidagi simulyatorlaridan, ma'lum bir kompetensiyalarni shakllantirish uchun virtual o'yinlardan foydalaniladi.

Ta'lim patternlari – insonning kundalik hayotidagi faoliyatining instinkt darajasidagi avtomatlashtirilgan sxemasi yoki modellaridan faol foydalanish muhim. Ma'lumki, kompyuterdagi dasturlar va virtual simulyatorlardan foydalanish jarayonida Siz ma'lum bir amallarni qandaydir chastotada qayta-qayta bajarasiz, mana shu harakatlardan sodir bo'ladigan ma'lumot birligiga pattern deyiladi.

Barcha harakatlar tizimda qayd etiladi va bu ma'lumotlar sun'iy intellekt yordamida qayta ishlanadi. Mana shu qayta ishlangan ma'lumotlar asosida o'quvchining imkoniyatlari, qobiliyatlari va bo'lajak kasbini tanlashdagi moyilliklari xaritasi tuziladi.

### **O'quv rejasi**

Har bir o'quvchining imkoniyat va qobiliyatlariga moslashtirilgan holda, individual tarzda tuziladi. Baholashda birinchi o'ringa o'quvchining shaxsiy sifatlari, ko'nikmalari, ya'ni tanqidiy fikrlash, jamoa oldida ma'ruza qila olish, jamoada ishlay olish, liderlik, savodxonlik darajasi, kitobxonlik, jismoniy faollik darajalari, nostandart sharoitdan chiqib keta olish, kutilmagan muammolarni yechishda kreativlik kabi sifatlarni hisobga olinadi. Qayd etilgan barcha sifat va kompetensiyalar akademik bilimlar bilan birga baholanadi.

### **Uyga vazifa**

2030-yilga kelib uyga vazifa berish masalasi kun tartibidagi muammo darajasidan olinadi. O'quvchining barcha sa'y-harakatlari va ta'lim trayektoriyasi mustaqil ta'lim



olishga yo'naltiriladi. Eng asosiysi, uyga beriladigan vazifalar o'quvchi qobiliyati va imkoniyat doirasida mustaqil bajariladi. Ular qulay vaqt va sharoitlarda individual tarzda bajariladi.

### **Darslar jadvali-chi?**

Maktab haftasiga 7 kun, 24 soatlik rejimda faoliyat yuritadi.

Bitta sinfda qancha o'quvchi bo'lishi mumkin?

Texnika asrida bitta sinfda hozirgidan ham ko'p bola o'qishi mumkin. Barcha darslar onlayn tarzda, virtual sinflar orqali taqdim etilsa, o'quvchining qaysi xonada yoki binoda o'tirishi ham ahamiyatga ega bo'lmay qoladi.



## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimida oxirgi yillarda o'qituvchilarning jamiytdagi mavqeyini oshirish, maktablar infratuzilmasini yaxshilash, davlat rahbari tomonidan tavsiya etilgan 5 ta tashabbus doirasida o'quvchilarni darsdan tashqari to'garaklarga jalb etish va maktablarda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha qator amaliy ishlar amalga oshirildi.

Bugungi ta'lim tizimi eski mazmundagi o'quv dasturlaridan voz kechib, innovatsion raqamli iqtisodiyot va axborotli jamiyat uchun kadrlar tayyorlash imkonini beruvchi o'qitish tizimiga o'tmoqda. Shunga mos ravishda, ta'lim berishga yondashuvlar ham o'zgarib, internet va axborot texnologiyalari imkoniyatlarini ta'lim jarayoniga keng integratsiya qilish ishlari boshlab yuborildi. O'qituvchilar oddiy bilim beruvchidan ta'lim jarayoni va sifatini ta'minlovchi asosiy tashkilotchiga aylanmoqdalar.

Ayrim o'qituvchilar uchun bunday o'zgarishlar oson kechmaydi, albatta. Bunday davrda raqobatbardoshlik, hamkorlik munosabatlarini o'rnata olish qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi. O'quv dasturlari mazmuni tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, ijodiy yaratuvchanlik va hamkorlik ko'nikmalarini, ya'ni tom ma'nodagi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Mazkur qo'llanmada yoritilgan barcha ishlanma va texnologiyalar bugungi kunda mustaqil hayotda hamma uchun zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, maktab o'quvchilarida esa izlanuvchanlik, mustaqil faoliyat va noan'anaviy sharoitlarda ilmiy xulosalarga asoslangan yechimlarni qidiruvchi va yaratuvchanlik qobiliyatlari rivojlangan avlodni tarbiyalashga yo'naltirilgan.

"Alifbe" maktab davrida o'zlashtiriladigan darslik ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, uni o'rganishni boshlagan davrdan har bir o'quvchiga til o'rganishda zarur deb hisoblangan 4 ta: eshitib tushunish; o'qish; yozish va fikrni bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantirish juda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar ilmiy va ensiklopedik manbalarga murojaat qiladigan bo'lsak, savodxonlik bu:

- aholi madaniy saviyasi ko'rsatkichlaridan biri;
- adabiy til normalariga muvofiq keladigan og'zaki va yozma nutq malakalariga egalik;
- oddiy matnlarni o'qiy olish yoki ularni o'qish va yoza olish ko'nikmalariga egalik;
- muayyan soha bo'yicha bilimga egalik ekanligiga yana bir bor amin bo'lamiz.

Aziz ustoz, murakkab va mashaqqatli, lekin sharafli kasbiy faoliyatingizda Sizga omad tilab qolamiz!

**Mualliflar**



## DARSLIK NIMA?

**Darslik** – davlat ta'lim standartlari, o'quv reja, o'quv dasturi, metodik va didaktik talablar asosida muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, XXI asr ko'nikmalari, umumta'lim maktablaridan keyingi ta'lim bosqichi hamda mustaqil hayotga tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirish va tegishli fanning asoslarini mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, fanning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan nazariy ma'lumotlar, amaliy-tajriba va sinov mashqlarini o'zida jamlagan nashr.

**Ish daftari** – boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv predmetini o'zlashtirishlari uchun ko'makchi hisoblangan, darslikdagi bo'limlarga, o'quvchilarning bilimlarini tekshirish mashg'ulotlari va uy vazifalariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga mo'ljallangan turli xil (krossvordlar, farqlash, juftini topish, mantiqiy qatorlar tuzish va hokazo) topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita.

**O'qituvchi uchun o'quv-metodik qo'llanma** (O'qituvchi kitobi) – darslikdagi mavzulardan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil etish uslublari, o'qitish metodikasi, darsda foydalaniladigan vositalar, qo'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchi darsni samarali tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, dars o'tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriq va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashri.

**Darsliklarning mobil ilovasi** – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida fanga oid o'quv materiallari, ilmiy ma'lumotlarni har tomonlama samarali o'zlashtirishga hamda mustaqil ta'lim olishga mo'ljallangan, elektron matn, ikki o'lchamli grafik, uch o'lchamli grafik ko'rinishdagi, ovozli, video, animatsiya hamda taktil (sensorli) xususiyatli, o'quvchiga mustaqil foydalanish (ta'lim olish) imkoniyati integratsiya qilingan, grafik interpretatsiyalar orqali ta'lim oluvchi tasavvurini rivojlantirishga yo'naltirilgan smart qurilmalarda ishlovchi elektron axborot ta'lim resursi.

## ALIFBE DARSLIGIGA QO'YILADIGAN NAZARIY-AMALIY TALABLAR

Darsliklarni, jumladan, savod o'rgatishning asosi hisoblangan alifbe darslarini takomillashtirish davr talabidir. Takomillashtirish darsning metodik jihatdan qurilishiga, mazmuniga birdek aloqador bo'lib, bunda, avvalo, didaktikaning umumiy hamda savod o'rgatishning xususiy mezonlariga asoslaniladi:

## O'QUV-METODIK QO'LLANMA

- g'oyaviyligi;
- bayonning ilmiyligi, tushunariligi;
- ko'rsatmaliligi;
- ongliligi;
- o'quv materiallarining hayot bilan bevosita aloqadorligi.

O'quvchining yoshi, tafakkur yuritish darajasi, o'ziga xos ruhiy xususiyatlarining hisobga olinishi kabi didaktik talablarga savod o'rgatishda e'tibor qaratilishi zarur.

### **Shuningdek, savod o'rgatishda qator xususiy jihatlar ham mavjud, bular:**

- o'quv materialli bolalarda ongli, to'g'ri va ravon o'qish, shuningdek, harf, so'z, kichik gap va bog'lanishli matnlarni to'g'ri o'qish malakalarini hosil qilishga yordam beradi. O'qish uchun berilgan matnlar, rasmlar mavzu jihatidan bolalarning saviyasiga mos bo'lishi kerak;
- o'quv materiallarida bolalarning tafakkuri va nutqini o'stirish uchun ta'lim-tarbiyaviy matnlar hamda rasmlardan foydalaniladi. Rasmlar bolalarda savollarga javob berish ko'nikmasini, talaffuz qilish qobiliyatini o'stirishi, o'quvchilarni nutq unsurlari bilan tanishtirishga, obrazli tafakkurini o'stirishga, mustaqil ravishda so'z tanlashiga, gap va hikoya tuzishiga xizmat qilishi kerak;
- darslarning hajmi savod o'rgatishga ajratilgan vaqtga mos bo'lishi zarur;
- alifbe darsligining harfi, terilishi, qog'ozi, matn va rasmlarning to'liq tushunarli bo'lishiga, shuningdek, hoshiyaga, so'zlar orasidagi masofaga, harfning hajmiga, qog'ozga, rasmlarning bo'yog'iga va yozuvning namunasiga qo'yilgan gigiyenik talablarga mos bo'lishi zarur; tashqi ko'rinishi chiroyli, bezagi ravshan, bolaga yoqadigan bo'lishi lozim;
- darslarda ko'rgazmalilik bola bevosita idrok etadigan aniq obrazlar asosida bo'ladi. Ko'rgazmalilik mezonini asoslab bergan buyuk olim Y.A. Komenskiy uqtirganidek, agar biron-bir narsani bir necha sezgi a'zolari orqali idrok ettirish mumkin bo'lsa, u narsani idrok qilish uchun bir necha sezgi a'zolarini ishga solish kerak (ya'ni, eshitib bo'ladigan narsalarni eshittirish bilan; hidlarni - hidlatish; ta'mni - tatib ko'rish, ushlab ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni ushlatib ko'rsatish vositasi bilan idrok qildirish lozim). Shuningdek, o'quvchilar ongini faollashtirishda rebus-o'yinlar, topishmoqlar, turli jumboqlar katta ahamiyatga molik bo'lib, ular savodga o'rgatish jarayonining qiziqarli va sermazmun bo'lishiga imkon yaratadi.





## Savodga o'rgatishning o'ziga xos metodlari mavjud bo'lib, bundagi asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- a) o'zbek tilining tovushlari va mazkur tovushlarning yozuvda ifodalanishining o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olish;
- b) maktab ostonasiga ilk bor qadam qo'ygan bolaning ta'lim jarayoniga moslashish imkoniyatlarini o'rganish, alifbegacha bo'lgan davrda o'quvchilarni savod o'rgatishga tayyorlash, ularda gapni so'zdan, so'zni bo'g'inlardan va nihoyat bo'g'inlarni alohida tovushlardan tashkil topganligi haqida tushunchani tarkib toptirish - savodga o'rgatish alifbegacha bo'lgan davrdan to alifbe davri tugagunga qadar davom etadi. Chunki o'quvchining tovush, bo'g'in, so'z va gapning o'zaro aloqadorligi, uyg'unligi va yaxlitligini to'g'ri idrok etishi orfografik savodxonlikka, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga, bola nutqining rivojlanishi va o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Dastlab bola so'zni idrok etishi, so'ng so'zni bo'g'inga, bo'g'inni tovushlarga ajrata olishi, gapni so'zlardan, matnni gaplardan farqlay olishi lozimdir.

Bu davrda asosiy e'tibor bola nutqini o'stirishga, sinfda o'quvchilar jamoasini tashkil qilishga, bolani hali yaxshi o'zlashtirilmagan vaziyatda o'zini erkin, bema'lol his qilishiga, atrof-tevarak bilan tanishtirish, o'quvchilar jamoasi bilan do'stona aloqa o'rnatish kabilarga e'tibor beriladi.

## SAVOD O'RGATISHNING TAHLIL-TARKIB USULI

Boshlang'ich sinfda o'quvchining kelajakdagi taraqqiyotini belgilab beruvchi ruhiy, ta'limiy asoslar qo'yiladi. Barkamol avlod taraqqiyoti savod chiqarishning asosi bo'lgan alifbe darslarining ta'limiy-tarbiyaviy sifat darajasiga bog'liq.

### Savodga o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan tahlil-tarkib tovush usulining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) savodga o'rgatishning ilk davridanoq jonli nutqdagi tovush bilan adabiy nutqdagi tovushni chog'ishtirish asos qilib olinadi. O'quvchi alifbegacha bo'lgan davrda, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tayyorlov guruhida nutqdagi tovushlarni eshitish yo'li bilan farqlashga o'rgatiladi. Alifbe davrida esa tovushni so'zdan ajratib olishga, shu tovushni ifodalaydigan harfni tanishga o'rgatiladi. Bunda tanishtirilishi lozim bo'lgan tovush boshqa tovushlar sirasidan ajratilib, baland ovozda talaffuz qilinadi, shu tarzda "tovush artikulyatsiyasi" ko'rsatiladi. So'ngra o'quvchilarga tovush talaffuz qildiriladi. Shundan so'ng tovushni ifodalaydigan harf shakli bilan tanishtiriladi. So'zlarni o'qishda esa tovush uyg'unligiga, tovushlarni harflab emas, bo'g'inlab biriktirib o'qishga alohida e'tibor beriladi;



## O'QUV-METODIK QO'LLANMA

2) savodga o'rgatishning barcha bosqichlarida nutq bo'laklarini birlashtirish, uyg'unlashtirish, tarkiblash yoki aksincha, yaxlit nutqni bo'laklarga ajratish-tahlil qilishga oid aqliy jarayonlar amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bu metod (ajratish-qo'shish) tahlil-tarkib usuli deb ataladi. Savodga o'rgatishning barcha bosqichlarida (alifbega tayyorgarlik davri, alifbe davri, alifbedan keyingi davrlarda) tahlil-tarkib amallaridan unumli foydalanib boriladi;

3) alifbe davrida o'quv materiallarini tanlash va joylashtirishda o'quvchining fikrlash darajasi, yoshi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, nutq tovushlarining xususiyatlari nazarda tutiladi. Bu tamoyil tovush va harflarni o'rganish tartibiga, o'qish uchun so'z tanlashga, matn tanlashga, matnlar hajmiga bevosita taalluqlidir;

4) alifbe davrida o'qish va yozishga o'rgatishning uyg'unlikda, baravar olib borilishi tahlil-tarkib tovush usulining eng asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

### **Tahlil-tarkibning savodga o'rgatish davridagi bosqichlari**

#### **Tahlil:**

- 1) matndan gapni ajratib olish;
- 2) gapni so'zlarga bo'lish, birorta so'zni tanlash;
- 3) so'zni bo'g'inlarga bo'lish;
- 4) bo'g'indan tovushni ajratish, uning bosma va yozma shaklini ko'rsatish hamda o'rgatish.

#### **Tarkib:**

- 1) kesma harfdan bo'g'in va so'z tuzish;
- 2) tuzilgan so'zni bo'g'inlab o'qish;
- 3) bir necha so'zlarni o'qish;
- 4) yaxlit gapni o'qish;
- 5) yaxlit matnni o'qish.

Bolalarni savodga o'rgatishda tahlil-tarkib qilishga undovchi mantiqiy topshiriqlardan foydalanib, o'quvchilarda fikr rivojlantiriladi. Fikrlash jarayonida o'quvchilar tafakkur yuritish orqali qator mantiqiy amallarni bajaradilar. Ya'ni so'zning tovush tarkibini, so'z tarkibidagi bo'g'inlarni, bo'g'inlarning ochiq yoki yopiqqligini tahlil qiladilar. O'quvchilar so'zlarni, ularning elementar belgilariga asoslangan holda yaxlit, ajralmaydigan bo'laklarga ajratadilar. Tahlil o'quvchilardagi mavjud ko'nikmalarga, so'zning tovush tarkibi orasidagi elementlarning assotsiativ (o'zaro bog'lanishli) aloqalarini anglash tajribasiga asoslangan holda amalga oshiriladi. Tarkib (qismlarga ajratish) esa, yuqorida ta'kidlab



o'tilganidek, tahlilga qarama-qarshi oppozitsiyada bo'lgan mantiqiy fikrlash jarayonidir. Bu jarayon ham bola tafakkurining rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Sintez (umumlashtirish) amallarini bajarish jarayonida o'quvchilar o'z onglarida mavjud bo'lgan til vositalarining ma'nolari va funksional me'yorlarni umumlashtiradilar.

Savodga o'rgatishning ilk bosqichida o'qituvchi oldida so'zlarning yozuvda ifodalanishi, harf va tovush haqida tushuncha, so'zni bo'g'in va tovushlarga ajratish, bog'lanishli nutqni o'stirish, boshlang'ich orfografiya qoidalari xususida tasavvurni rivojlantirish, umuman, ona tilining go'zalligi va rang-barangligini anglatishdek muhim vazifa turadi. Bu bosqichda muayyan turlarni tashkil etuvchi predmetlar nomi – alifbe darsligining alifbegacha bo'lgan davrida: mevalar, sabzavot, poliz ekinlarining turlariga oid rasmlarning berilishi, keyingi bosqichlarda joy nomlari, o'rmon hayvonlari, parrandalarni turkumlab o'rgatishga oid matnlar va rasmlarning tavsiya etilishi, tugallanmagan jumla, matn, so'zlarning berilishi, ularning o'quvchi tomonidan davom ettirilishi, o'zbek xalq maqollari, topishmoq, tez aytish va hikmatli so'zlarning berilishi – bularning barchasi o'quvchining nutqi va tafakkurini o'stirishga qaratiladi.

**Alifbe darsligiga qo'yiladigan xususiy talablar savodga o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlaridan, o'zbek tilining tovush tarkibidan kelib chiqadi:**

a) darslikda harflar tovush talaffuzi hamda yozuvdagi ifodasiga ko'ra o'quvchining oson o'zlashtirishini hisobga olgan holda tartiblanadi. Masalan, o, n, a kabi harflar ham talaffuzi, ham yozilishi jihatidan oson harflar jumlasiga kiradi. Qolaversa, ta'limga o'ta-onalar e'tibori nihoyatda kuchaygan hozirgi davrda o'quvchilarning aksariyati bunday harf-tovushlarni o'zlashtirgan holda maktab ostonasiga qadam qo'ymoqdalar.

Albatta, sinfda o'quvchilaning bilim darajasi bir xilda bo'lmaydi. Binobarin, **f, z, sh, ch** kabi tovushlarning yozilishi va talaffuzining bolalar uchun birmuncha murakkabligini hisobga olgan holda keyingi bosqichlarda o'rganiladi;

b) tovush-harflarni o'rganish jarayonida unga ilova tarzida berilgan so'zlar o'quvchilar uchun amaliy jihatdan tanish buyum, narsa yoki hodisani ifodalashiga e'tibor qaratiladi;

d) darslikda berilgan so'zlar, o'quvchilarning aniq fikr yuritishini hisobga olgan holda, aksariyat narsa-buyum nomlaridan iborat bo'ladi;

c) so'zlarning to'g'ri tanlanishi va tartiblanishi asosida imloga oid bilimlar izchil rivojlantirib boriladi.



## **SAVODGA O'RGATISH DAVRIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH (DIDAKTIK O'YINLAR MISOLIDA)**

Savodga o'rgatish darslari tayyorgarlik va asosiy davrni o'z ichiga qamrab olib, mazkur bosqichda o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'limiy-tarbiyaviy ishlar turli-tumandir. Xususan, bu davrda: matn, og'zaki va yozma matn haqida, gap, matnning gaplardan tuzilishi, so'z, gaplarning so'zlardan tashkil topishi, ya'ni matn tuzish va uni bo'laklarga bo'lib matn tarkibini tashkil qiluvchi qismlarni idrok etishga o'rgatish, bo'g'in, tovush, harf haqida ma'lumot berish, unli tovushlar va undosh tovushlar haqida ma'lumot berish, tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajralishini o'rgatish, alifbedagi rasmlar, o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan tayyorlangan suratlar asosida matn tuzdirish, o'quvchilar bilgan she'r, hikoya, ertak, maqol, tez aytish va boshqalarni yoddan aytirish, ularga yangi she'r, hikoya, ertak, maqol, topishmoq kabilarni o'rgatib borish, alifbe darsligidagi so'zlar, uning ma'nolari ustida ishlash, tanish so'zlar asosida o'quvchilarni gap tuzishga o'rgatish, harf va tovush orasidagi mutanosiblik va farqni tushuntirish ishlari olib boriladi.

Boshlang'ich ta'limning asoslarini ishlab chiqqan taniqli didakt olimlar mustaqil fikrlashga rag'bat uyg'otish uchun pedagogik jihatdan ta'sirchan vositalarni izlab topish, o'quv sharoitiga tatbiq etish zarurligini uqtirgan edilar.

Shunga ko'ra, darslikda ko'plab jumboqli topshiriq va krossvordlar berilgan. Jumboqli topshiriqlarni yechishda o'qituvchi o'quvchilar jamoasining imkoniyatlarini hisobga olishi, ba'zi topshiriqlarni yechishga o'quvchilarni oldindan tayyorlashi, ya'ni jumboqli topshiriqni kattalashtirilgan nusxasini ko'rsatib, undagi ba'zi o'rinlarni izohlashi maqsadga muvofiqdir.

Darslikda o'quvchilarni kichik maktab yoshidan kasbga erta yo'naltirishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu maqsadda o'qituvchi, arxitektor, chegarachi, chavandoz, shifokor, bog'bon, metro poyezdi haydovchisi, kombaynchi va boshqa kasblar haqida o'quvchilar bilan suhbatlashish nazarda tutiladi. Xususan, darslikning 12-betidagi "So'z andazasi bilan ishlang" shartli belgisi bilan berilgan didaktik material pillani qayta ishlash orqali tayyorlanadigan mahsulotlar va tikuvchi mehnatiga oid yagona mavzu asosida uyg'unlashgan bo'lib, "Ona-bola ish ustida" va uning yonida berilgan "Ona, ana nina, ana (ip rasmi)" matni ham ushbu mavzuni ochib berishga, o'quvchilarda mehnatsevarlik va kattalar mehnat faoliyatida ishtirok etishga undashga yo'naltirilgan. O'qituvchi o'quvchilar bilan tikuvchilik kasbi haqida suhbatlashish bilan birga, "ip", "ni-na", "ti-kuv-chi", "pil-la" kabi so'zlarni qay tarzda bo'g'inlarga bo'linishi, mazkur so'zlar tarkibidagi harf-tovushlar, bunda "i" harf-tovushining tutgan o'rne haqida ma'lumotlar beradi. "Erkin jonivorlarni sevadi" mavzusi asosidagi mazmunli rasm ham matn tuzish topshiriqlariga bog'lab berilgan



bo'lib, ushbu mazmunli rasmlarda Erkin ismli bolaning oiladagi hayoti tasvirlangan.

Kichik yoshdagi o'quvchilar jamiyat hayotini o'yin orqali anglaydilar. O'yin vaziyatlari ularga ortiqcha tushuntirish va nasihatlarsiz xulq-atvor qoidalarini amaliy jihatdan oson, maroqli tarzda o'rganishga yordam beradi. Kichik yoshdagi o'quvchilar jamiyat hayotini o'yin orqali anglaydilar. O'yin vaziyatlari ularga ortiqcha tushuntirish va nasihatlarsiz xulq-atvor qoidalarini amaliy jihatdan oson, maroqli tarzda o'rganishga yordam beradi.

O'yin bolalarni ijtimoiy va ijodiy ishlashga yo'naltiruvchi hudud hisoblanadi. Jan Jak Russo bola tarbiyasida o'yinning ahamiyatini ta'kidlab: "Bolalikni seving, uning o'yin va ermaklariga, murg'akkina tabiiy tuyg'ulariga e'tibor bering! Labdan kulgi arimaydigan, qalb shu olamdan to'xtovsiz huzurlanadigan o'sha daqiqalarni qay biringiz, axir, sog'inch bilan eslamaysiz?"<sup>1</sup> deb yozgan edi. Bolani sho'xlikdan mahrum qilish uni rivojlanish manbayidan mahrum qilish bilan barobar. Shu ma'noda Jan Jak Russo o'yin sababli bolada ijodkorlik impulslari ro'yobga chiqishini uqtirib, bola o'yin orqali oladigan hayotiy tajribani yuqori baholab: "Agar siz bolalarning sho'xliklariga yo'l bermasangiz, unda hech qachon donishmandlarni dunyoga keltira olmaysiz"<sup>2</sup> degan edi. O'yin bolalarning birgalikdagi, hamkorlikda amalga oshiradigan faoliyatini vujudga keltiradi. Har qanday o'yin muayyan mezonlar, qonun-qoidalar, tartib va intizomni talab etadi. O'yin jarayonida bola o'zini bemalol, erkin his qiladi, o'zining haqiqiy qiyofasini namoyon etadi. Yayrab kuladi, harakatlanadi, o'z fikrini uyalmay, tortinmay bayon qiladi. O'yin asnosida ko'pgina jamoatchilik qoidalarini o'zlashtiradi, tartib-intizomga o'rganadi.

O'yin bola hayotida juda muhim rol o'ynaydi. Kattalarga kundalik hayot tajribalari qanchalik zarur bo'lsa, bola uchun o'yin shunchalik zarur. O'yin jarayonida bola qanday bo'lsa, keyinchalik katta bo'lgach, ishda ham o'zini shunday tutadi. Shu sababli faol insonni tarbiyalashda o'yinlarning ahamiyati juda katta.

Savodga o'rgatish davrida o'quvchilar bilan didaktik o'yinlar o'tkazishga alohida e'tibor qaratish lozim. Xususan, "Ranglar so'zlaganda", "O'zingni yelpi", "Olma terish", "Kungaboqar", "Ko'zgu", "Super lotto", "Piramida", "Aksini toping", "Poyezd", "O'zbekiston mevalari", "Ot va uning bolasi toychoq", "Rolli o'yin", "Ekskursiya", "Chechanlik" kabi didaktik o'yinlar shular jumlasidandir. Darslikka jumboqli topshiriqlarning kiritilishi o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishda, ularni topqirlikka va bilimdonlikka undashda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, turmushda bola nutqida faol qo'llanadigan yoki ularga yaxshi tanish bo'lgan "ma", "ma-na", "nom", "ni-ma" (16-bet) kabi ba'zi so'zlarning darslikka kiritilishi ham, avvalo, alifbe davrining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarda muayyan harf-tovushga oid bilimlarni mustahkamlashda, ularga tavsiya qilinayotgan o'quv materiallarining yetarli darajada bo'lishiga, ya'ni ko'proq so'z o'qish imkoniyatini hosil qilishga, qolaversa, ish-harakatni bildiruvchi so'zlar (fe'l)ga



oid boshlang'ich amaliy bilimlarni vujudga keltirishga qaratilgan. O'qituvchi darslik materiallari bilan cheklanib qolmay, ushbu so'zlar mazmunini to'liq izohlashda turli mazmunli rasmlardan ijodiy foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Xususan, Aa harf-tovushini mustahkamlash uchun taqdim etilgan "Qaysi bo'g'inlardan so'z yasash mumkin?" savoli ostida berilgan didaktik materialni (13-betda) o'rganishda "Olma terish" didaktik o'yinidan ijodiy foydalanish mumkin.

### **"Olma terish" didaktik o'yini**

Olma shakllari ortiga didaktik topshiriqdagi bo'g'inlar yoziladi. Doskaga "anor, ona, nina, norin, olma, shaftoli" rasmlari ilinadi. O'quvchi bo'g'inni o'qib, shu bo'g'inga mos rasmni topib nomini aytadi.

**"So'z andazalari bilan ishlang"** shartli belgisi bilan berilgan o'quv materiallarini o'rganishda uning mazmuniga ijodiy yondashgan holda, "Javoblar raqamlarda", "Sonlar so'zlaganda" kabi didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

### **"Javoblar raqamlarda"**

O'quvchilarning qo'lga tayoqcha uchiga mustahkamlangan, 1, 2, 3 sonlari yozilgan kartonlar beriladi. O'qituvchi so'zlarni birin-ketin aytadi. Agar so'zlar bir bo'g'inli bo'lsa, o'quvchilar 1 raqamini, ikki bo'g'inli bo'lsa, 2 raqamini, uch bo'g'inli bo'lsa, 3 raqamini ko'taradilar.

**"Zanjir o'yini"**. O'qituvchi darsda zanjir o'yinidan foydalanishi mumkin. **"Zanjir o'yini"** ga misol:

S				T				S			sh
---	--	--	--	---	--	--	--	---	--	--	----

Javob: sport, tennis, suzish (keltirilgan o'yindan Sh sh harf-tovushi o'tilgach, foydalanish mumkin).

### **"Javoblar ranglarda"**

O'qituvchi unli yoki undosh harf-tovushlar bilan boshlangan so'zlarni birin-ketin aytadi, o'quvchilar unli tovush bilan boshlangan so'zga qizil, undosh tovush bilan boshlangan so'zga havorang shaklni ko'taradilar.

O'quvchilarning harf-tovushlarga oid bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan darslarda esa quyidagi texnologiyalardan foydalanish mumkin:



## “O'zingni yelpi”

Bir o'quvchi taklif etilib, unga yelpig'ich beriladi. O'quvchilar unga savollar beradilar. Doskadagi o'quvchi savolga tez javob berishi lozim. Javob bera olmasa, yelpig'ich bilan o'zini yelpiydi. Agar yelpig'ichda o'zini yelpish esidan chiqsa, mag'lub bo'lib, o'yindan chiqadi. Javob berolmasa ham o'zini yelpisa, keyingi savolni qabul qilishi mumkin bo'ladi. O'yin oxirida uning nechta savoldan qanchasiga javob bergani aniqlanadi. Shu tariqa o'quvchida ziyraklik, topqirlik, o'zini tuta bilish layoqatlari rivojlantiriladi<sup>3</sup>.

**Qq** harf-tovushini o'rganish uchun 51-betdagi rebusning kattalashtirilgan nusxasini sinf doskasiga ilib, yashil, jigarrang, siyoh ranglarda berilgan harflardan hosil bo'ladigan so'zlar toptiriladi. Ushbu material o'quvchining aqliy faolligini rivojlantiradi, ularni mantiqiy va mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Shu kabi jumboqli topshiriqlar darslikning 15-, 21-, 23-, 25-, 71-betlarida ham berilgan bo'lib, ular rang-barangligi bilan o'quvchida alohida qiziqish uyg'otadi.

Darslikda ertak va masallardan rasm-lavhalar, ushbu masal va ertaklar yuzasidan matnlar berib borishga ham e'tibor berilgan. Xususan, “Qaynar xumcha” (20-b.), “Kemiroy” (47-b.), “Zumrad bilan Qimmat” (59-b.) masal va ertaklaridan rasm-lavha va matnlar berilgan. Bunda o'qituvchi rasmlarning qaysi masal yoki ertak asosida chizilganligi va uning mazmunini bolalarga hikoya qildirishi, eslatishi maqsadga muvofiqdir. Xususan, “Qaynar xumcha” (20-b.) ertagiga chizilgan rasm-lavha va matnning quyidagi tartibda o'rganish mumkin:

O'qituvchi ertakka ishlangan bir necha rasmlarni o'quvchilarga ko'rsatadi (rasmlar sinf doskasiga ilib qo'yiladi).

- Qani, bolalar, bu rasmlar sizga qaysi ertakni eslatyapti?
- “Qaynar xumcha” ertagini.
- Yaxshi. Kim “Qaynar xumcha” ertagini aytib beradi?

Albatta, o'quvchilarning javobini to'ldirgan holda, o'qituvchi ertakni qayta, obrazli va jonli ohangda aytib beradi, rasmlar asosida suhbat o'tkazadi. Keyin darslikdagi rasm-lavha tasviri asosida berilgan matn o'qitilib, gaplar tuzdiriladi.

“Ana oltin. Bobo oltinni ko'rdi” kabi.

Shuningdek, har bir tovush-harf uchun “So'z andazasi bilan ishlang” shartli belgisi bilan rasmlar va ular ostida so'z andazasi berilgan bo'lib, ular asosida so'zlarni tovush-bo'g'in tahlilini muntazam o'tkazib borish o'quvchilarning yangi bilimlarni mustahkam o'zlashtirishlariga asos bo'ladi.



Alifbe davri uchun har bir tovushga ilova sifatida so'zlarning bo'g'inlab berilishidan maqsad, avvalo, kelajakda o'quvchining orfografik savodxonligini ta'minlashga, to'g'ri o'qish va yozish ko'nikmalarini tarkib toptirishga, qolaversa, uning lug'at boyligi va so'z zaxirasini oshirishga qaratiladi. Ushbu materiallar yangi bilimlarni mustahkamlashga oid mashg'ulotlarda o'quvchilar bilimini tekshirib ko'rishda asqatadi. O'qituvchilar mazkur didaktik materiallarga ijodiy yondashgan holda, o'quvchilarning to'g'ri yoza olishi, so'z boyligi, so'zlarni bo'g'inlarga to'g'ri ajrata bilishiga oid bilimlarini tekshirib boradilar. Masalan: B harf-tovushini o'rganish uchun 4 ta so'z andazasi berilgan bo'lib, ular bulbul, bedana, boyo'g'li, burgut rasmlari bilan birgalikda taqdim etilgan.

Bunda ushbu so'zlarga oid andazalarni to'ldirish emas, balki mazkur so'zlarni darslikdagi andazasiga asoslanib bo'g'inlarga ajratishni talab qilish, so'zlarning andazasini mustaqil ravishda tuzib, uni darslikda berilgani bilan solishtirish talab etiladi:

O'qituvchi: – “Qani, “bulbul” so'zini bo'g'inlarga ajrataylik-chi?”.

O'quvchilar: – “Bulbul”.

O'qituvchi: – “Bul-bul” so'zida nechta bo'g'in bor ekan?”

O'quvchilar: – “Ikkita”.

O'qituvchi: – “Juda to'g'ri”.

Yangi o'rganilgan har bir harf-tovush uchun berilgan rasm asosidagi so'zlarni shu xilda bo'g'inlarga bo'lib talaffuz etish, barcha harf-tovushlari o'rganilgan so'zlar uchun berilgan andazalarni mustaqil to'ldirish o'quvchida orfografik savodxonlikni o'stirishga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda izlanuvchan va ijodkor o'qituvchilar bilish faoliyatini jadallashtirishda ta'lim jarayonini didaktik o'yinlar bilan uyg'unlashtirib samarali natijalarga erishmoqdalar.

Ma'lumki, o'qituvchi didaktik o'yin darslarni o'tkazish uchun juda ko'p adabiyotlar bilan tanishishi, o'quvchilarning bilim darajasi, yoshi, psixologik xususiyatlari, iqtidorini hisobga olishi zarur.

Didaktik o'yinli darslar yangi mavzuni bayon qilish, mustahkamlash, bolalar bilimini sinab ko'rish va baholash jarayonida qo'llanilishi mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarni yakkama-yakka, keyinchalik guruhli o'yinlarga tayyorlashi, ular muvaffaqiyatli chiqqanidan so'ng ommaviy o'yin darslarini o'tkazishi kerak. Chunki o'quvchilar didaktik o'yin darslarda ishtirok etish uchun kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni egallagan bo'lishlari zarur.

Savodga o'rgatish davrida qo'llaniladigan ba'zi didaktik o'yin mashg'ulotlaridan namunalar keltiramiz.





O'quvchilarga bir so'z o'qib eshittiriladi. Masalan: "Ism" so'zi. Agar o'quvchilar mazkur so'zni yoza olsalar, alifbe davrida bu so'zni sinf doskasiga yozib qo'yish mumkin. So'ngra so'zdagi har bir harfga alohida so'zlar toptiriladi. "Ism" so'zidagi I, S, M harflari uchun o'quvchilar: I – ilon, S – sigir, M – maymun so'zlarini topadilar. O'qituvchi mazkur so'zlar ishtirokida gap tuzdiradi. O'quvchilar "Hayvonot bog'i"da ilon, maymun bo'ladi, sigir esa bo'lmaydi", "Men ilon, maymun, sigir rasmini chizdim" kabi gaplarni tuzishlari mumkin. Ilon, sigir, maymun so'zlarini bo'g'inlarga bo'lib o'rgatish, so'zlar tarkibidagi unlilar haqidagi ma'lumotni mustahkamlash asosida o'quvchilarning bo'g'in va tovush munosabatiga oid tushunchalari rivojlantiriladi. Mazkur didaktik o'yinni alifbegacha davr va alifbe davrida qo'llash mumkin.

**Sinf doskasiga yozib yoki oldindan tayyorlangan plakat holatida kesma harflar o'quvchilarga quyidagi tartibda taqdim etiladi:**

<b>K</b>	O	M	S
<b>L</b>	U	N	
<b>T</b>	I		


Demak, birinchi qatorda to'rtta, keyingisi uchta, undan keyingisida ikkita harf mavjud. Katakda harflar ishtirokida "Kim ko'proq so'z topish" o'yini o'ynaladi. O'quvchilar daftarlariga topgan so'zlarini yozadilar: **mol, tol, mis, kino, zirak** va h.k. Agar mazkur o'yin alifbegacha bo'lgan davrda o'tkazilsa, unda o'yin shartlari o'quvchilarga og'zaki tushuntiriladi va boshqa ishlar ham og'zaki bajariladi. Bunda qatorlardan birortasida harf o'rnida bitta bo'sh katakcha shaklini tavsiya etish hamda o'quvchilarga bo'sh katakchaga o'zi ma'qul ko'rgan harfni qo'yish imkoniyatini berish mumkin. Albatta, bu holda o'quvchida mustaqil fikrlash uchun ko'proq imkoniyat yuzaga keladi.

Bo'g'in ustida ishlashga oid didaktik o'yinlardan savodga o'rgatish davrida, imkoniyatga qarab og'zaki yoki yozma tarzda quyidagi topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'qituvchi sinf doskasiga birgina so'zni yozadi. Masalan: kaptar so'zi. Uni bo'g'inlarga ajratiladi: kap-tar. Endi har ikki bo'g'indan yana yangi so'zlar tuziladi. kap-gir, tar-vuz. O'yinni o'quvchilar jamoasining qiziqishini, tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda davom ettirish, yozma ishlar o'tkazish mumkin. "Kataklarni to'ldiring" topshirig'iga asosan tayyorlangan quyidagi rebus-o'yin ham o'quvchilarning bo'g'inga oid bilimni mustahkamlash maqsadida amalga oshiriladi.



**Buning uchun sinf doskasiga quyidagicha katakchalar chiziladi:**



O'qituvchi tomonidan katakchalarning biriga yoki ikkitasiga istalgan bo'g'in yoziladi. Qolgan kataklarni o'quvchilar o'zlari mustaqil to'ldirishlari lozim. Albatta, bunda havola etilayotgan harflar soni ikkita bo'lsa, u so'zning birinchi bo'g'inini tashkil etishi tushuntiriladi.

Yuqoridagi o'yinlarni o'tkazish uchun o'qituvchi qirqma bo'sh kataklarni kerakli miqdorda oldindan tayyorlab qo'yishi alohida ahamiyatga ega. Bu qirqma bo'sh kataklardan savodga o'rgatish davri, keyinroq ona tili darslarida ham foydalanish mumkin.

## **SAVODGA O'RGATISH DAVRIDA TA'LIM-TARBIYANING BIRLIGI TAMOYILINI AMALGA OSHIRISH**

Alifbe darsligi ta'lim-tarbiya jarayonining birligini ta'minlashi kerak. Savodga o'rgatish davrida alifbe darsligidagi mavjud o'quv materiallari, qo'shimcha manbalar asosida o'quvchilarda milliy g'oya, milliy ruh tarkib toptiriladi, ularga jamiyatimiz a'zolariga xos vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik g'oyalari singdiriladi. O'quvchilar o'rtasida hamjihatlik, o'rtoqlik, ota-onaga, oilaga mehr-muhabbat tarkib toptiriladi.

Ta'limdan maqsad o'quvchilarni ilmiy bilim va tushunchalar bilan qurollantirishdangina iborat bo'lmay, balki axloqqa oid bilim va tushunchalar asosida ular ongiga, turmush tarziga insoniy axloq me'yorlarini singdirishni, e'tiqodi va ma'naviyatini tarkib toptirishni ham nazarda tutadi. Shunga ko'ra, alifbe darsligiga o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashga qaratilgan ertak, hikoya, rivoyat, masal, maqol kabilar kiritilgan. O'quvchilarda axloq va ma'naviyatni tarbiyalashga oid matnlarning mavzu doirasini quyidagicha belgilash mumkin.

1. Ona Vatanimiz, buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg'usini singdiruvchi matnlar: "Ona yurt", "Vatanim", "Bayrog'imiz", "Yurt posbonlari", "O'z tilim" kabilar.
2. Kasb-hunarni ulug'lovchi, kasb-hunarga yo'naltiruvchi matnlar: "Hunarlar", "Kasb-hunar nomlarini ayting", "Do'stlik" she'ri, "Do'stlar" matni kabilar.
3. Insoniy axloq g'oyalarini tarbiyalashga qaratilgan matnlar: "Odobli bo'l", "Eee dema", "So'z sehri", "Kemiroy", "Bekatda", "Charos-chaqqon", "Ruchkangni berib tur", "Dangasa bilan g'ayratli", "Zumrad bilan Qimmat" kabilar.



4. Bolalarda kitob o'qish, bilimli bo'lishga havas uyg'otishga qaratilgan matnlar: "Kitobman", "Solishtirib ko'ring", "Sur'at", "A'lochilar", "Nega kitob o'qish kerak?", "Dono kompyuter" kabilar.

5. Tabiatga mehr-muhabbatni tarbiyalashga yo'naltirilgan matnlar: "Baliq", "Tekinxo'r", "Jo'jalarim", "Fil", "Qish", "Yangi ekilgan nihollar suhbat", "Olmaxon", "Flamingo nega pushti rang?", "Terak", "O'rik", "Uzum", "Sabzi" kabilar.

Ushbu o'quv materiallari savodga o'rgatish jarayonida ta'lim-tarbiya birligini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Umuman, "Alifbe" darsligida badiiy o'qish va savodga o'rgatishning uyg'unlik kasb etishi o'ziga xos qator murakkablikni keltirib chiqaradi. Ya'ni, alifbegacha va alifbe davrining boshlang'ich qismida o'quvchi badiiy jihatdan talabga javob bera oladigan matnlarni bevosita o'qish va yozishdan yiroq bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarga o'zi hikoya qilib berishi, o'qib berishi, yoddan ayttirish va yodlatish orqali ularni badiiy o'qishga tayyorlab bormog'i lozim.

Badiiy o'qish deganda ifodali o'qishgina emas, tashqi olamni badiiy obrazlar orqali idrok etishga qaratilgan badiiy tafakkur tarbiyasi ham nazarda tutiladi. Dam olish daqiqalarida yodlatiladigan she'rlar, matnlar ham badiiy did darajasida bo'lishiga e'tibor berish kerak. Quyida dam olish daqiqalarida yodlatish uchun ba'zi she'rlarni tavsiya qilamiz:

G'uv-g'uv uchar bolari,  
Duv-duv uchar bolari,  
Guldan gulga qo'nishib,  
Sharbat ichar bolari.

*(Q. Muhammadiy)*

She'r so'zlarni o'qish bilan bog'liq bo'lgan mashqlardan so'ng dam olish daqiqalarida jo'rovozlikda aytiladi. She'r matni mazmuniga ko'ra qo'llar ikki yonga uchayotgandek harakatlantiriladi, o'tirib-turiladi.

Qu-qu-qu-qu xo'rozim,  
Uyimda xushovozim,  
Paq-paq qanot parvozim,  
Qu-qu-qu-qu xo'rozim.

Dam olish daqiqalariga mo'ljallangan mazkur matn diktant va yozma ishlardan so'ng jo'rovozlikda turgan holatda ijro etiladi.

**Bolalar:**

Viz-viz-viz-viz,  
Uchamiz, qo'namiz,



## O'QUV-METODIK QO'LLANMA

Gul sharbatin ichamiz.

Viz-viz-viz-viz,

Qani toping kim biz?

O'qituvchi:

Siz quvnoq bolarisiz,

Shod-quvnoq bolalarsiz,

Tog'dagi lolalarsiz.

*(Q. Muhammadiy)*

She'rni bolalar turgan holatda jo'rovoqlikda qo'llarini uchayotgandek harakatlantirib, o'tirib-turib ijro etadi:

Biz aqlli bolamiz

Biz aqlli bolamiz

Bizlar chapak chalamiz,

Chalamiz, chalamiz.

Juda yaxshi chalamiz.

(Bolalar she'r aytilishi davomida chapak chalishadi)

Endi esa o'rtoqlar

O'ynasin-chi barmoqlar

O'ynasin, o'ynasin

(Bolalar qo'llarini o'ynatib ana shunday o'ynasin deb harakatga keltirishadi).

Bolg'a bilan uramiz

Qushlarga in quramiz

Quramiz, quramiz.

Qushlarga in quramiz.

(Bolalar bolg'acha bilan urgan harakatlarni bajaradilar).

Biz qo'shiqchi bolamiz

Dutorni ham chalamiz.

Chalamiz, chalamiz,

Ana shunday chalamiz.

(Bolalar qo'llari bilan dutor chalish harakatini qiladilar).

Bizlar quvnoq bolamiz

Endi surnay chalamiz



Chalamiz, chalamiz

Bizlar surnay chalamiz.

(Bolalar qo'llari bilan surnay chalishni ko'rsatishadi).

### **Qo'llar tolqanda aytiladigan she'r:**

Barmoqlarni yozamiz, bir, ikki, uch.

Hali ancha yozamiz, bir, ikki, uch.

Bu tanaffus – o'yindir, bir, ikki, uch.

O'qish esa qiyindir, bir, ikki, uch.

Kulmang bizdan puchug deb, bir, ikki, uch.

Maktabda eng kichik deb, bir, ikki, uch.

Hali ancha o'samiz, bir, ikki, uch.

Hammangizdan o'zamiz - bir, ikki, uch.

*(Kavsar Turdiyeva)*

She'r jo'rovoqlikda, qo'llarni mayin silkitgan holda ijro etiladi. Albatta, uni yozuv mashqlari orasida ijro etish maqsadga muvofiqdir.

## **SO'ZLARNI O'QISHGA O'RGATISH**

Maktabgacha ta'lim davridanoq bolani badiiy matn, go'zal va ravon nutq materiallari asosida tarbiyalash uning kelajakda o'ziga ishona biladigan, nutqi ravon, kommunikativ kompetensiyaga ega inson sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Harflar to'liq o'rganilmaganligi sababli darslik sahifalarida avvaldan berib kelingan uzuq-yuluq jumlar, ega-kesimdan iborat nochor so'z birikmalari, kichik yoshdagi o'quvchi aqli va fikrini rivojlantira olmaydigan, his-hayajonga, tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lmagan quruq matnlar o'quvchining lug'at boyligiga ijobiy ta'sir ko'rsata olmaydi, uni boyitmaydi. O'quvchi e'tiborini jalb etmaydi. Unda kitobxonlik madaniyati asoslarini tarbiyalamaydi. Yosh bola obrazlar ko'magida fikrlaydi, ularda obrazli tafakkur yuritishga moyillik kuchli. Bolajonlar matn tarkibidan obrazlilikni izlaydilar. Unga tayanib, fikrlaydilar, munosabat bildiradilar, o'qib o'rganadilar. Amaldagi "Alifbe" darsligining alifbe davri ilk bosqichida o'rganiladigan matnlarning aksariyati "O'qituvchi o'qib beradi" belgisi bilan berilgan bo'lib, matn tarkibida o'quvchi o'qiy oladigan so'zlar yashil rang bilan ajratilgan. Bundan asosiy maqsad o'quvchilarda ravon nutq, badiiy so'zning go'zalligini his etish, o'quvchilar nutqini jadal rivojlantirish layoqatini tarbiyalashga qaratiladi. Shunga ko'ra, darslikka taniqli bolalar yozuvchilarining asarlaridan badiiy jihatdan pishiq namunalar kiritilgan. O'qituvchi badiiy matnlarni o'qib bergach, qayta hikoya qildirish usulidan foydalanishi, matn ostida



berilgan savol-topshiriqlardan foydalanib, o'quvchilarni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatishga e'tibor berishi zarur. U matnda yashil bilan ajratilgan so'zlarni o'quvchilarga o'qitishga, ularning tarkibidagi unli va undosh harf-tovushlarni ajratishga, ularni qanday qilib bo'g'inlarga bo'linishini o'rgatishga ahamiyat berishi lozim.

O'quvchilar o'quv jarayonida egallaydigan kompetensiyalarning asosiy turlari: qadriyatli-fikriy, ta'limiy, o'quv-biluv, axborot-kommunikativ, umummadaniy, ijtimoiy mehnat kompetensiyalaridir.

Darslikda "Rasmga qarab so'zlang", "Bo'g'inga ajrating", "Harfni toping" topshirig'i bilan o'quvchilarda kommunikativ kompetentlik shakllantiriladi.

Kompetensiya atamasi lot. tilidan olingan bo'lib, "erishaman", "mos kelaman" ma'nolarini bildiradi. Bu shaxsning ichki va tashqi imkoniyat, shart-sharoitlardan samarali foydalanishi, muayyan kasbiy muammolarni yecha bilish qobiliyatidir. Kompetentlik bu - individning qiziqish va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, o'z ma'naviy olamini, aqliy imkoniyatlarini tashqi muhit shart-sharoitlari bilan uyg'unlashtirgan holda, mahsuldor faoliyat yuritishga tayyorlik holatidir.

Savodga o'rgatish darslarida avvalo ta'limiy-kommunikativ kompetensiyani tarkib toptirish nazarda tutiladi. Bunda ta'limiy kompetensiya o'quvchilarda o'zbek tilidagi mavjud harf-tovushlarni bilish, harf-tovushlardan so'z, so'zlardan gap, gaplardan matn tuzish ko'nikma va malakalarini egallashni talab etadi. Shuningdek, o'quvchi harf-tovush, unli va undosh tovushlar, so'z, gap, matn; ularning o'zaro munosabatlari haqida amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. O'quvchida bu xil ta'limiy kompetensiyalarni tarkib toptirishda "So'z andazasi bilan ishlang", "Rasmga qarab so'zlang", "Bo'g'inga ajrating", "Harfni toping" kabi didaktik topshiriqlar asosida amalga oshiriladigan o'quv ishlarini tizimli va uzluksiz tashkil etishning ahamiyati katta.

So'z va bo'g'inlarni o'qishga o'rgatishda tovush-harflarni alohida-alohida aytib o'qimaslikka, balki ularni bo'g'inda to'g'ri qo'shib talaffuz qilishga, so'zlarni og'zaki nutqdagi kabi yaxlit holda tovushlar uyg'unligiga rioya qilib o'qishga odatlantiriladi. Bunda tovush (harf) va bo'g'inlarning birikkan holatda bo'lishiga alohida e'tiborni qaratish lozim. O'quvchilar nutqini o'stirish savodga o'rgatish davrida so'z ustida ishlashga doir mashqlar asosida amalga oshiriladi. Nutq o'stirishning so'z ustida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash kabi qator yo'nalishlari bevosita bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonida savodga o'rgatishning tahlil-tarkib usuli talabiga ko'ra yaxlit holatda namoyon bo'ladi.

O'qituvchi darslikda berilgan rasmlardan, so'z va gaplardan foydalanib, shuningdek, qo'shimcha ko'rgazma materiallar asosida har bir so'zning alohida ma'noga ega



ekanligini o'quvchilarga tushuntiradi. So'z tushunchasini shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar quyidagicha tashkillashtiriladi: o'qituvchi alifbegacha bo'lgan davr uchun darslikda berilgan kuzgi sabzavot ekinlari yig'im-terimiga oid rasm asosida o'quvchilar ishtirokida quyidagicha hikoya tuzdiradi.

“O'zbekiston – bizning Vatanimiz. Kuzda O'zbekistonda juda ko'p ekinlar pishib yetiladi. Hosil yig'ib-terib olinadi. Maktab yer uchastkasida ish qizg'in. Karim va Sanobar sabzavotlarni yig'ishtirib olmoqdalar. Komila bilan Salim ularga yordam berishmoqda. Rasmda sabzavotlarning turlari ko'rsatilgan. Bular: karam, sabzi, sholg'om, turp kabilardir”.

O'qituvchi hikoya asosida chiqarilgan xulosa fikrni quyidagicha ifodalaydi:

Sabzavotlarning juda ko'p turlarini biz yaxshi bilamiz: sabzi, karam, kartoshka kabilarning har biri alohida sabzavot hisoblanadi. Lekin ular hammasi birgalikda “sabzavotlar” nomi bilan ataladi. Qo'limda qanday sabzavot turi bor? (o'qituvchi kartoshkani ko'rsatadi) - Kartoshka qanday sabzavot turi? Demak, bu – dum-dumaloq, jigarrang, har xil taomlarda mazali bo'lib pishadigan sabzavot nomi. U qaysi so'z bilan atalar ekan? - Kartoshka so'zi bilan. Mana bu cho'zinchoq, uchli, qizil va sariq, o'zbek palovi va sho'rvasining masallig'i bo'lgan narsa qaysi so'z bilan nomlanar ekan? (o'qituvchi sabzini ko'rsatadi.) - Sabzi so'zi bilan. Demak, har bir sabzavotning o'z nomi bor. Bu nomlar so'z orqali ifodalanadi. So'zlarni biz (to'g'ri to'rtburchak belgisi) bilan belgilaymiz.

Shu tariqa kuzda pishib yetiladigan mevalar, o'quv qurollari haqida suhbat asosida o'quvchilarda so'z tushunchasi shakllantiriladi. Sinf doskasiga ilib qo'yilgan rasmlar, ular ostiga chizilgan belgi (to'g'ri to'rtburchak belgisi) asosida o'quvchilar bilimi mustahkamlanadi.

Odatda, so'z ustida ishlash quyidagi yo'nalishda amalga oshiriladi:

- 1) so'zlarni to'g'ri o'qishga o'rgatish;
- 2) so'zlarni to'g'ri yozishga o'rgatish;
- 3) so'z ma'nolarini anglatish.

So'z ustida ishlashning yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlari o'zaro uyg'un aloqadorlikda uyushtiriladi. Tahlil-tarkib usuli talablariga ko'ra, avval tovush, keyin harf shakli bilan tanishtirilgach, mazkur tovush qatnashgan so'z sinf doskasiga bosma harf bilan yoziladi. Bolalar harf kassasidan harflarni olib so'z tuzadilar. Masalan: ot, ol, oy kabi. Ikki harf va bir bo'g'indan tashkil topgan bunday so'zlarning oldiga b harfini qo'yib, mustaqil o'qitiladi, bunda bot, bol, boy so'zlari hosil bo'ladi. Ikki harfli ot, ol, oy so'zlarining so'ngiga a, i harflarini qo'shib uch bo'g'inli so'zlar hosil qilinadi va bolalarga o'qitiladi.



## TA'LIM JARAYONIDA SMART DARSLIKlardan FOYDALANISH

Ma'lumki, so'nggi vaqtlarda yuzaga kelgan pandemiya holati ta'lim tizimi oldiga kutilmagan yangi vazifalarni qo'ydi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, umumta'lim maktablari o'qituvchilari, davlat telekanallari ishtirokida teledarslar yo'lga qo'yildi. Internet sarhadlarida masofadan o'qishni tashkil etish uchun har xil platformalar va dasturiy ta'minotlar ishga tushirildi. Dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan masofadan o'qitish kurslari tashkil etildi. Pedagoglar ixtiyorida Internet va dasturiy ta'minot vositalari paydo bo'ldi. 2021–2022-o'quv yili uchun yaratilgan boshlang'ich sinf darsliklari QR-kod va "To'ldirilgan voqelik" (ing. AR – Augmented reality) texnologiyalari bilan boyitildi.

1. QR-kod nima? Undan qanday foydalanamiz?
2. To'ldirilgan voqelik nima? Undan qanday foydalanamiz?
3. Smart darslik nima? Uning afzalliklari?
4. Darsni qay tarzda o'tkazsak, o'zlashtirish darajasi yaxshilanadi?
5. Dasturdan qanday foydalangan afzal?
6. O'quvchilar faqat smartfonga bog'lanib qolsa-chi?
7. Maktabda smart qurilma va telefondan foydalanish mumkinmi?

Qayd etilgan savollarga javob olishni istasangiz, qo'lingizdagi o'qituvchi kitobini sinchkovlik bilan o'qib chiqing va har bir bajarilishi lozim deb topilgan band uchun o'zingizga qayd qilib qo'ying.

### QR-kod nima? Undan qanday foydalanamiz?



1. QR-kod ikki o'lchamli shtrix kod bo'lib, mazkur shtrix kod oq va qora piksel (nuqta)lardan iborat. Ushbu piksel nuqtalar bir necha yuzlab belgini kodlash imkonini beradi. Kodlanadigan matn oddiy matn, internet manzili, telefon raqami, ma'lum bir joyning geolokatsiyasi yoki koordinatasi, ma'lumot taqdim etuvchi insonning tashrif kartochkasi bo'lishi mumkin.
2. "QR-kod"larni vizuallashtirish, odatda, zamonaviy smart telefonlar yordamida amalga oshiriladi. Buning uchun smartfon kamerasi "QR-kod"ga qaratiladi, bunda zarur Internet resurs yoki saytga ortiqcha harakatlarsiz o'tish imkoni yaraladi.
3. "QR-kod"lardan foydalanish katta hajmdagi giperhavolalarni terish, yozib olish





yoki zarur axborot manbasiga tezkor murojaat qilish imkoniyatini beradi. Jumladan, kompyuter monitoridagi reklamaga, jurnal sahifasidagi e'longa "QR-kod" qo'shib qo'yilsa, uni o'qiydigan o'quvchi yoki shu tovarning iste'molchisi ortiqcha harakatlarsiz Internetga joylashtirilgan sayt hamda ijtimoiy tarmoq sahifalariga tezkor o'tishi va ma'lumotni olishi mumkin.

UOK 37.016:81-028:31  
KBK 74.268.3  
81.2(50:28)  
C.34

**Rohatoy Safarova, Muhayyo Inoyatova**  
Alifbo 1-sinf [Matn] : darslik / R. Safarova, M. Inoyatova. –  
Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 80 b.

**Smart darslik g'oyasi muallifi:**  
Pedagogika fanlari nomzodi Dadajon Sayturov

**Mas'ul muharrir:**  
Professor Mirhabib Gulomov

**Taqrizchilar:**

Sh. A. Abdulayeva – Toshkent davlat pedagogika universitetining boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor;

F. B. Karimova – Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 281-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

N. A. Paeridinova – Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi 67-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

**Shartli belgilar:**

	rasimga qarab so'zlang.		matni o'qituvchingiz o'qib beradi.
	so'z andozasi bilan ishlang.		ajratilgan so'zlarni o'qing.
	bo'g'inga ajrating.		matni o'qing.
	harfni toping.		savol-topshirig'ni o'qing va javob bering.
	savol-topshirig'ni o'qituvchingiz o'qib beradi.		krossvordni yeching.
			dars yakuni.

**SCAN ME**

**DIQQAT!**

Diqqat! Tashkilotchi kompaniya tomonidan yaratilgan QR kodni o'qituvchingiz o'qib beradi. QR kodni o'qituvchingiz o'qib beradi.

**dr.rtm.uz**

Respublika maqsadli kitob jang'armasi mablag'larini hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-7157-7-6 © Respublika ta'lim markazi, 2021.

4. Bizning misolimizda bu kod boshlang'ich sinflar uchun nashr etilgan darsliklar muqovasiga joylashtirilgan va darslik bazasiga biriktirilgan mobil ilovani yuklaydi.

## TO'LDIRILGAN VOQELIK NIMA?




To'ldirilgan voqelik (ing. Augmented Reality) – qabul qilinishi zarur bo'lgan axborot maydoniga kiritiluvchi qo'shimcha obyekt yoki sensorik ma'lumot.

To'ldirilgan voqelik bu – idrok qilish maydonida real obyektlar o'rnatilayotganda, idrok etiladigan voqelikning "to'ldirilgan" elementlaridan foydalangan holda kompyuter yoki smart qurilma yordamida yaratiladigan aralash voqelikdir.


Idrok etiladigan voqelikni to'ldirish borasida eng keng tarqalgan misollar sifatida televizor orqali futbol o'yinlarini tomosha qilishda darvozaga eng yaqin bo'lgan futbolchining turgan joyini ko'rsatadigan oldingi rangli parallel chiziqni, jarima zarbasi beriladigan joydan darvozagacha bo'lgan masofani ko'rsatadigan strelkalarni, xokkey o'yini vaqtida shayba uchishining "chizilgan" trayektoriyasini, filmlarda hamda kompyuter yoki gadjet o'yinlarida real va o'ylab topilgan obyektlarning aralashirilishi kabilarni keltirish mumkin.

Taxminlarga ko'ra, "to'ldirilgan voqelik" atamasi Boeing korporatsiyasi tadqiqotchisi Tom Kodell (ing. Tom Caudell) tomonidan 1990-yilda taklif qilingan. Tom Kodell bu atamani samolyot qurilishida foydalanilgan raqamli displeylarni tavsiflash uchun ishlatgan. To'ldirilgan voqelik idrok etilayotgan voqelikka xayoliy obyektlarni real dunyo elementlari sifatida, odatda, yordamchi ma'lumot sifatida qo'shish natijasidir.

### To'ldirilgan voqelik mexanikalaridan ta'lim jarayonida foydalanish



1. Markerga bog'lash – kamera obyektivini haqiqiy obyektga olib borishda to'ldirilgan voqelik obyektini paydo qiladigan mexanik jarayon. To'ldirilgan voqelik tarkibi kameraning ko'rish maydonida muayyan trigger paydo bo'lganida ishga tushadi. Marker rasmlar, logotiplar, fotosuratlar, tovushlar bo'lishi mumkin.



2. Tekislikka bog'lash – skanerlash natijasida tanlangan qurilma yordamida ma'lum bir nuqtaga bog'langan maydonda to'ldirilgan voqelik obyektini paydo qiluvchi mexanik jarayon. Bu mexanikadan gorizont tekisliklarda ham, vertikal tekisliklarda ham foydalanish mumkin. Bunday mexanika markerni ko'rish maydonida ushlab turishga zarurat bo'lmagan hollarda qo'llaniladi.



3. Geolokatsiyaga bog'lash mexanik jarayon bo'lib, unda to'ldirilgan voqelik obyekti shaharning ma'lum bir nuqtasida paydo bo'ladi. Bu holatda marker vazifasini geolokatsiya – koordinatalar bajaradi.



4. Portallar mexanik jarayon bo'lib, unda to'ldirilgan voqelikda 360° rejimidagi maydon paydo bo'ladi. Maydon vazifasini foto va videomateriallar, shuningdek, grafikada chizilgan materiallar bajarishi mumkin. "Alifbe" misolida to'ldirilgan voqelik obyektlari smart qurilmani darslikka qaratish orqali shu sahifadagi grafik

ko'rinishga bog'langan obyektlarni chaqiradi.

## SMART DARSLIK

### Bugungi kunda ta'lim sifatini yaxshilash uchun nimalar zarur?



Yaxshi darslik, internet tarmog'i, mahoratli o'qituvchi hamda izlanuvchan va keng fikrlovchi o'quvchi.

Ilmiy adabiyotlar tahlilining ko'rsatishicha, zamonaviy o'quvchiga axborotning asl manbasini topishda yordam beruvchi, tez o'zgaruvchan raqobatli muhitga moslashish uchun zarur ko'nikmalarni hosil qiluvchi va rivojlantiruvchi ta'lim strategiyasini qo'llashimiz zarur. Bular nimalar? Hech kimga sir emas, hozirgi o'quvchi bundan 10–15 yil oldingi o'quvchi emas. Ma'lumot topish uchun kutubxonaga bormaydi, ijtimoiy tarmoqdan eshitgan axborotlarni tez qabul qiladi va shular asosida fikr yuritadi. Ma'lumot topish uchun Google yoki shunga o'xshash raqamli servislardan foydalanadi. Bu klassik pedagogika uchun muammo, lekin qiziqishlar spektri bilan to'g'ri ishlaydigan bo'lsak, bular pedagogik maqsadga erishish uchun ayni muddao.

### Xo'sh, bunday holatda pedagogik maqsadga erishish uchun nima qilish kerak?



Eng avvalo, zamonaviy o'quvchi qiziqishlari spektriga yoki to'liqliniga moslashish kerak. Pedagogik vazifani shu qiziqishlar orqali hal etishga harakat qilamiz. Ya'ni darslik va smart qurilmani birgalikda ishlatish strategiyasini qo'llaymiz.

## O'QUV-METODIK QO'LLANMA

### Smart qurilmaning afzalliklari:



- 1) smartfon faqat o'yin o'ynash vositasi emasligi;
- 2) darslik bazasidagi ma'lumotlarning statik emasligi;



- 3) uyga vazifani bajarish maroqli jarayon ekanligi;
- 4) jamoada ishlash orqali ko'proq masalalarga yechim topish mumkinligi;
- 5) tinglab tushunish, yozish, o'qib tushunish va muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun smart qurilma va darslik juda yaxshi vosita ekanligini isbotlaymiz.

### SMART DASTURNI O'RNATISH

"Smart dastur"ni o'rnatish tartibi:.

1. Smart qurilmangiz kamerasini darslikdagi QR-kod ga qarating.



2. QR-code yordamida aks ettirilgan web sahifaga o'ting.

5. Dasturni qurilmaga o'rnating.



6. Dasturni yorliq orqali ishga tushiring.

### SMART DARSLIK

Qulayligi	Noqulayligi
Darslik interfaol o'qitish vositasi sifatida qaraladi.	Smart qurilma ishlamasa, statik qog'oz kitobdan farqi yo'q.
Android 4.0 dan yuqori mobil qurilmalarida ishlaydi.	iPhone qurilmalarida ishlamaydi.
Dastur bir marta yuklab olingach, internet tarmog'iga ulanishni talab etilmaydi.	Darslik sahifalari (markerlar)siz ishlamaydi.
O'rnatish uchun 103,4 Mb bo'sh joy talab etiladi.	Darslik bilan ishlaganda yorug'lik yetarli bo'lishi kerak.
Mustaqil o'rganish uchun qulay.	Smart qurilmaga o'rganib qolishadi.




## SMART DASTURDAN FOYDALANISH

Jonli alifbo bo'limi bilan ishlaganda, mobil qurilma kamerasi darslikdagi biror sahifaga qaratiladi. Bunda smart qurilma kamerasi darslik bazasiga ulangan 3D modelni chaqiradi. O'rganilayotgan harf ovoz va harakatli tasvir orqali o'quvchida aniqroq tasavvur hosil qiladi. "Alifbe" darsligidagi ma'lumotlarga qo'shimcha tarzda uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, parrandalar va qushlar obrazlari ishtirok etadi. Dastur mos ravishda hayvon va qushlar ovozi bilan boyitilgan.



"Alifbe"dagi harflarni to'g'ri va chiroyli yozishni o'rgatuvchi dastur. Smart qurilma ekranidan doskadek foydalaniladi. O'quvchi uchun zarur holatlarda to'g'ri va chiroyli yozishda interfaol yo'riqnoma vazifasini o'tay oladi.

1 dan 100 gacha bo'lgan sonlarni yozish va ularni anglash uchun xotirani rivojlantirishga yo'naltirilgan. Sonlarning tarkibini o'rganish uchun mo'ljallangan.



1. So'z o'yini
2. Hisob-kitob
3. Yozish
4. Chizish va rasm bo'yash o'yinlari. Har bir o'yin mos ravishda o'quvchining savodxonlik darajasini oshirish, o'tilgan darslarni mustahkamlashga qaratilgan.




**O'QUV-METODIK**  
QO'LLANMA

Animatsion roliklar, ertaklar to'plami. Bolaning tasavvuri, eshitib tushunish qobiliyati va nutqini o'stirish uchun yo'naltirilgan. Tarbiyaviy ahamiyatga ega jahon xalq ertaklari asosida yaratilgan.



"Yozish" bo'limida "Harf yozish" va "Raqam yozish" deb nomlangan bo'limlar mavjud.



"Harf yozish" bo'limida o'quvchilar yozish motorikasini rivojlantiradi. Har bir harfning katta va kichik shaklini yozishni istagancha mashq qilish imkoniyati mavjud. Afzalligi shundaki, agar to'g'ri yozish qoidasiga nomuvofiq harakat qilsa, dastur bunga yo'l qo'ymaydi.





“Raqam yozish” bo‘limida esa raqamlarni to‘g‘ri yozish ko‘nikmasini shakllantiradi. Yozish amallari to‘g‘ri bajarilsa, dastur tomonidan “Barakalla!” deya rag‘batlantiriladi



“O‘yinlar” bo‘limida

1. So‘z o‘yini
  2. Hisob-kitob o‘yini
  3. Yozish o‘yini
  4. Chizish va bo‘yash o‘yini kabi ta‘limiy o‘yinlar mavjud.
- Mazkur ta‘limiy o‘yinlar o‘quvchilarning topqirlik, bilimdonlik, tezkorlik, ijodkorlik kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.




Ushbu o‘yinda rasm nomini topish uchun berilgan harflar orasidan keraklisini topib yozish kerak. To‘g‘ri bajarilsa, keyingi bosqichga o‘tish imkoni beriladi. Bu o‘yin orqali o‘quvchilarning topqirlik, zukkolik qobiliyatlari shakllanadi.





## O'QUV-METODIK QO'LLANMA


“Hisob-kitob” o‘yinida “?” belgisi o‘rniga tegishli raqam yoziladi. To‘g‘ri topilgandan so‘ng, rag‘batlantirilib, keyingi bosqichga o‘tish imkoni beriladi. Ahamiyatlisi shundaki, bu yerda o‘quvchining tezkorligi ham talab etiladi. Chunki har bir misol javobini topish uchun vaqt belgilangan.



“Yozish” o‘yinida o‘quvchi “Bosh harflar”, “Kichik harflar” hamda “Raqamlar”ni to‘g‘ri yozishi kerak. Buning uchun berilgan harf va raqamlarni qoidaga mos ravishda yozish talab etiladi. Ko‘rsatilgan amallar to‘g‘ri bajarilsa, rag‘batlantiriladi va keyingi bosqichga o‘tkaziladi.



“Chizish va bo‘yash” o‘yini o‘quvchining ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Bu o‘yinda o‘quvchi rasmlarni chizish, bo‘yash amallarini bajaradi. Bo‘yash yoki chizish uchun turli rang va vositalar berilgan, faqat to‘g‘ri rang tanlash imkoniyati o‘quvchining kuzatuvchanligiga bog‘liq.
















Smart darslikdagi "Ertaklar olami" bo'limida ertaklarni ko'rish, tinglash hamda matnini o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi.



Ertaklar bo'limi bilan ishlashda, asosan, ertakni mustaqil eshitish, eshitilgan materialni esa jamoa bo'lib tahlil qilish uslublaridan foydalanish tavsiya etiladi. Harflarni o'rganib olgan bolajonlarga qo'shimcha sifatida ertaklar matni bilan ishlash ham foydali.



## TA'LIM OLUVCHILARDA QABUL QILISH USLUBIGA BOG'LIQ RAVISHDA DARSLARNI O'ZLASHTIRISH DARAJASI

N <sup>o</sup>	Dars turi	Qabul qilish uslubi	Obraz	O'zlashtirish darajasi %
1	Ma'ruza	Eshitish		5 %
2	O'qish	Ko'rish		10 %
3	Videodars	Eshitish-ko'rish		20 %
4	Tajribani namoyish qilish	Eshitish-ko'rish, amaliy tatbiqni ko'rish		30 %
5	Bahs-munozara	muhokama-tahlil		40 %
6	Mustaqil ishlash	Ko'rish, muhokama-tahlil, mashq bajarish		50 %
7	Ishbop o'yin, guruhlarda ishlash, tahlil, mustaqil ishlash	muhokama, tahlil, mashq bajarish, qiyoslash		75 %
8	Yo'naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, mustaqil ishlash, tahlil	Eshitish, ko'rish, muhokama, tahlil, mashq bajarish, qiyoslash		90 %



## SMART DARSLIKLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

### Yaratilayotgan smart darsliklar (SD):



– amaldagi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga to'la muvofiq bo'lishi;

– ta'lim oluvchiga qiziqarli va ilmning jamiyatdagi rivojlanish darajasiga mos ilmiylikka ega bo'lishi;

– ta'lim berish jarayonida bilimni o'zlashtirish darajasini oshirish uchun fan-texnika va texnologiyalar erishgan yutuqlardan maksimal foydalanishi;

– berilishi zarur bo'lgan o'quv materialining hajmi o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasida bo'lishi;

– tavsiya etiladigan sinfdagi o'quvchilar uchun, taqdim etiladigan o'quv materialini berish intensivligini o'zgartirish imkoniyatini ta'minlashi;

– iqtidorli ta'lim oluvchilar uchun SD fan doirasida maxsus qo'shimcha bloklar taqdim etishi (olimpiada masalalari, Nobel mukofotlariga taqdim etilgan tematikalar va h. k.)

– foydalanuvchi uchun qulay, sodda, aniq, intuitiv va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lishi;

– o'rganiladigan o'quv materialini ta'lim oluvchi (o'quvchi) osonroq o'zlashtirishi uchun imkoniyat doirasida ovoz, animatsiya, rasm va shu kabi media fayllar bilan boyitilgan bo'lishi;

– ta'lim oluvchining bilim darajasiga moslashuvchan, uning tayyorgarlik darajasiga bog'liq holda ishlaydigan, uning hissiy va jismoniy imkoniyatlarini ham hisobga olishi;

– murakkab hisob-kitoblarni amalga oshirish, olinadigan natijalarni tahlil qilish, natijalarni grafik interpretatsiya orqali namoyish etish, o'rganiladigan fan mazmuniga ko'proq e'tibor berish, masala va misollar yechish uchun sharoit yaratishi;

– o'rganuvchining e'tiborini chalg'ituvchi ortiqcha elementlardan xoli bo'lishi;

– o'rganuvchining bilim, qobiliyat va psixologik xususiyatlari darajasini o'quv jarayoniga muvofiqligi ta'minlashi;

– o'rganiladigan fan bo'yicha istalgan bosqichda o'z-o'zini nazorat qilishga imkoniyat yaratishi;

## O'QUV-METODIK QO'LLANMA

- o'rganiladigan fan bo'yicha tayyorlanadigan materiallarni istalgan tashuvchiga o'tkazish va disk yordamida taqdim etish imkoniyatini yaratishi;
- fanni o'rganishda imkoniyat doirasida kalit so'zlar, qo'shimcha adabiyotlar, giperko'rsatmalar va yordamchi funksiyalaridan foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lishi;
- tavsiya etiladigan sinfdagi o'quvchilarning barcha psixofiziologik va etnogenetik xususiyatlari hisobga olinib ishlab chiqilgan bo'lishi shart.

### Uslubiy talablar:



- katta hajmdagi o'quv materialini o'zlashtirish va qayta ishlash imkoniyatini berish, olingan natijalarni tahlil qilish uchun grafik interpretatsiyalardan foydalanish;
- ta'lim beruvchiga darsni mustaqil ko'rinishda o'tkazishga sharoit yaratish, bu holatda ta'lim beruvchi maslahatchi rovida ishtirok etishini ta'minlash;
- ta'lim oluvchiga mustaqil o'rganish, zarur holatlarda misol, masala, laboratoriya ishlari va topshiriqlarni mustaqil bajarishga sharoit yaratish;
- darslarga tayyorgarlikni o'qituvchiga qulay usulda amalga oshirishga imkoniyat yaratishi (slayd, matn, videomaterial va h.k. tayyorlash imkoniyatini berish);
- o'rganiladigan o'quv materialining tizimli, mantiqiy ketma-ketligini, modulliligini va ular orasida uzviy bog'liqlikni ta'minlashi;
- o'qituvchiga ta'lim oluvchilar o'zlashtirgan bilim darajasini turli xil murakkablikdagi (murakkablik darajasi shakllantiriladigan) nazorat dasturlari yordamida nazorat tashkil qilish imkoniyatini berishi zarur.

### Funksional talablar:



- mazmun qog'oz variantidagi kitobga o'xshash tarzda, kalit so'zlarni qidirish imkoniyati mavjud, fanni to'ldiradigan qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitilgan;
- moslashuvchanlik – ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasiga bog'liq ravishda, o'tilgan mavzuni qaytarish, ustida ishlashni individual tempda amalga oshirish;
- ko'pterminallilik – statik ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyati mavjud, sinfdagi o'quvchilarning darslikdan foydalanish chastotasi, test natijalari, to'g'ri-noto'g'ri javoblar, o'quvchilarning qaysi mavzuni yomon o'zlashtirayotganligini tahlil qilish imkoniyatlari;



- interfaollik – tabiiy muloqotni imitatsiyalash, ya'ni SD bilan o'quvchi o'rtasida muloqot o'rnatib, o'qituvchi yoki o'rgatuvchi mavjudligi hissini tashkil etish;
- interfaollikni ta'minlash va individual ta'lim olishga sharoit yaratish imkoniyatining mavjudligi;
- elektron axborot texnologiyalarida mavjud bo'lgan imkoniyatlardan foydalangan holda yuqori sifatli ko'rgazmalilikka ega bo'lishi shart.

## SMART DARSLIK YORDAMIDA DARSNI TASHKIL ETISH SSENARIYSI



Smart darslik yordamida ta'lim jarayonini tashkil etish uchun oldindan tayyorgarlik ko'rish va darsni aniq tashkil etuvchilarga ajratgan holda ssenariy tuzib olish zarur. Quyida pedagoglar uchun harakatlar ketma-ketligini taklif qilamiz. An'anaviy usulda darsni tashkil etish bilan smart darslik yordamida tashkil etish o'rtasida ancha farq bor. Bular nimalarda o'z aksini topadi? Birinchidan, rejalashtirishda o'tilishi kutilgan darsni maksimal darajada vizuallashtirish, ya'ni 2 ta aniq ssenariy asosida taqdimot materiallarini oldindan tayyorlab olish zarur.

Buning uchun quyidagi qadamlarni ajratamiz:

- dars ssenariysini tuzish;
- ssenariy asosida taqdimot tayyorlash;
- taqdimot uchun maxsus matn tayyorlash;
- dars mazmunini o'zlashtirish darajasini yaxshilash uchun mavzu doirasida yengil hamda bolalarni jalb qiluvchi interfaol topshiriqlarni taqdimot tarkibiga kiritish;
- mustaqil ishlashni rag'batlantiruvchi uslublardan foydalanish;
- QR-kod va Internet resurslarni taqdimot tarkibiga kiritish;
- dars mazmunini to'ldirish uchun namoyish etish rejalashtirilgan video va animatsion roliklarni Google, Yandex disk, Drop box kabi bulutli serverlarga joylashtirish;
- barcha o'quv materiallari tayyor bo'lgach, dars o'tish rejalashtirilayotgan platforma yoki dasturiy ta'minotni tanlash.

Darsda qatnashishi rejalashtirilayotgan o'quvchilar bilan dars o'tish vaqti oldindan kelishib olinadi. Masalan, Zoom yoki Skype kabi dasturiy ta'minot yoki platforma tanlanadi. O'tkaziladigan dars uchun videokonferensiya tashkil qilinadi. Qatnashuvchilar



uchun login, parol oldindan ulashiladi. Onlayn darsda materiallar tushuntiriladi, o'quvchilar savollariga javob hamda ularga ham savollar beriladi. O'qitishning bu ssenariysi ham o'ziga xos. Lekin har doim ham o'zini oqlayvermaydi.

## SMART DARSLIK YORDAMIDA TA'LIM JARAYONINI AMALGA OSHIRISH

### Rejalashtirish:



Hafta davomida o'tkazilishi rejalashtirilgan dars jadvalini tuzing. Har bir dars uchun zarur taqdimot, matn va topshiriqlarni oldindan tayyorlang. Masofadan o'qitish jarayonida erishish rejalashtirilgan o'quv natijalari rejasini tuzing. O'quvchilar uchun ham reja tuzing. Dars tugaganidan keyin mustaqil ishlashni tashkil etish uchun o'quvchilarga harakat xaritasini taqdim eting.

### O'qituvchi o'ziga beradigan savollar:

1. O'quvchilarga nimani o'rgatmoqchiman (ular qanday ta'lim natijalariga erishadi)?
2. O'quvchilar o'quv materialini qanday darajada o'zlashtirishadi (o'quv natijalariga erishish sifati)?
3. Jarayonda ularni qanday qo'llab-quvvatlashim mumkin (ularga akademik natijalarga erishishda qanday yordam beraman, natijaga erishganini qanday aniqlashim mumkin)?

## SMART DARSLIKLAR BILAN O'QISHNI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGNING VAZIFASI

Endi pedagog bu tizimda faqat o'qituvchi emas, balki rejalashtirilgan bilimni o'zlashtirish uchun zarur mayoq vazifasini bajarishi lozim. Bunda pedagog uchun o'tilayotgan mavzuni qanday qilib qulay va oson o'zlashtirish mumkinligini tushunib yetish, mustaqil vazifalarni bajarishda qaysi uslublardan foydalanish zarurligi, eng asosiysi, o'quvchini hech kim nazorat qilmasa ham, unda mustaqil ishlash madaniyatini shakllantirish asosiy vazifaga aylanadi. Bu esa an'anaviy ta'limda taqdim etiladigan o'quv materialini tarkibiga ancha o'zgartirish kiritishni taqozo etadi. Bunday holat o'quv materialini soddalashtirish degani emas, balki uni yanada chuqurroq tushuntirish uchun texnologik imkoniyatlardan foydalanish, media va vizual fayllardan ko'proq foydalanish deganidir.



## DARS ISHLANMALARIDAN NAMUNALAR TAYYORGARLIK DAVRI

### 1-dars

### OG'ZAKI NUTQ HAQIDA TUSHUNCHA. MUSTAQILLIK – OLIY NE'MAT

**Mavzuning qisqacha ta'rifi:** o'quvchilarga mustaqillik bayrami haqida tushunchalar beriladi. Vatanda baxtiyor bolalik gashtini surayotganliklari, suhbatlar va ko'rgazmali materiallar asosida mustaqillik oliy ne'mat ekanligi hamda og'zaki nutq haqida ma'lumot beriladi.

**O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:**

**Metod:** interfaol

**Shakl:** jamoa bilan ishlash.

**Jihoz:** darslik, yozuv daftari, "Mustaqillik bayrami" tasvirlangan rasm, "Vatanjonim – Vatanim" qo'shig'i yozilgan disk.

**Nazorat:** bolalarning dars davomidagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilarning reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

#### Darsning maqsad va vazifalari:

**Ta'limiy:** O'zbekiston mustaqilligiga oid tushunchalarni tarkib toptirish.

**Tarbiyaviy:** O'quvchilarni mustaqillik va tinchlik tushunchalarining bir-biriga bog'liq ekanligi bilan tanishtirish. Mustaqillik bayrami va "Bilimlar kuni"ning barobar nishonlanayotgani bilan qutlash, bolalarda mustaqillik g'oyalariga sadoqat, ilm olishga rag'bat, havas tuyg'ularini tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** O'quvchilarning og'zaki nutq haqida tushunchalarini kengaytirish.

#### Kutilayotgan natija:

Dars yakunida o'quvchilar mustaqillik haqida to'liq tushunchaga ega bo'ladilar. Og'zaki nutq ko'nikmalari tarkib toptiriladi.

#### Dars jarayoni texnologiyasi:

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich. Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi. O'quvchilar dars tartibi va o'quv qurollari bilan tanishtiriladi.	Suhbat	4 daqiqa



2-bosqich. Ehtiyojlarni aniqlash	O'quvchilar ro'yxat bo'yicha chaqirilib, har biri bilan yanada yaqinroq tanishiladi.	Individual muloqot	4 daqiqa
3-bosqich. Darsning borishi	1. Alifbe darsligi bilan tanishtirish 2. Mustaqillik - oliy ne'mat ekanligini tushuntirish. 3. Mustaqillik haqida she'r, hikoya, ertak, rivoyat aytib berish. 5.Og'zaki nutq haqida o'qituvchining umumlashma xulosasi	Namoyish, suhbat, rasm asosida suhbat, qo'shiq eshitish, suhbat	4 daqiqa 4 daqiqa 7 daqiqa 7 daqiqa 6 daqiqa
4- bosqich. Mustahkamlash	Savollar va suhbat asosida o'tilgan darsni mustahkamlash.	Savol-javob	5 daqiqa
5-bosqich baholash	Savollar va suhbat asosida o'tilgan darsni mustahkamlash.	Qisman interfaol	4 daqiqa

### Darsning borishi

1. Darsda tashkiliy qism alohida o'rin tutadi. O'quvchilar dars tartibi va o'quv qurollari bilan tanishtiriladi.

Bolalar partalarga juft-juft qilib taqsimlanadi. Bunda o'quvchilarning bo'yi, ko'rish qobiliyati hisobga olinadi. Birinchi kundanoq sinf jamoasini shakllantirishga ahamiyat berish lozim. O'quvchilarning har birini ro'yxat bo'yicha chaqirib, bir-biri bilan yanada yaqinroq tanishtiriladi.

Alifbe darsligi bilan tanishtiriladi. Darslikdan foydalanishga oid gigiyenik, estetik, ta'limiy talablar uqtiriladi. Bu darslik boshqa o'quv jihozlari qatori Prezidentimizning sovg'asi ekanligi, binobarin, uni asrab-avaylab tutish lozimligi, darslikdan ko'pgina ertak, hikoya, she'r, topishmoq, tez aytishlarni o'rganib olishlari, to'g'ri va tez aytish, chiroyli yozishni o'rganishlarida alifbe darsligi ularning eng yaqin maslahatchisi va do'sti ekanligi uqtiriladi. Kitobning o'quvchi uchun foydali tomonlari mazkur she'r yordamida tushuntiriladi:

Alifbemiz ko'z ochar,  
Olamga mehr sochar,  
Odamga nur yo'l ochar.  
Kitob ta'rifi bitmas,  
Ta'rifiga so'z yetmas.

**(Q. Muhammadiy)**





2. Mustaqillik - oliy ne'mat ekanligi tushuntiriladi. O'quvchilar diqqati darslikdagi rasimga qaratiladi. Darslikda Mustaqillik kuni tantanalari, bolalarning shodiyona qiyofasi tasvirlangan bo'lib, rasmdagi bolalarning yuz-ko'zidan baxt va shodlik tantanasi barq urib turibdi. O'qituvchi rasm asosidagi suhbatni quyidagi savollar yordamida tashkil qiladi:

Rasmda kimlar tasvirlangan?

Bolalar qiyofasida qanday holat ifodalangan?

Bayram tantanasida siz ham ishtirok etdingizmi?

Bayramda nimalarni ko'rdingiz?

Suhbat o'quvchilarning javoblarini umumlashtirish asosida nihoyalanadi: "Kuni kecha Mustaqillik bayramini nishonladik. Hammamiz bayramni shodiyona kayfiyatda kutib oldik. Mustaqillik bizning ota-bobolarimiz uchun buyuk orzu edi. Biz esa mana shu go'zal orzuga erishdik. Mana, ozod Vatanimizda baxtiyor bolalik gashtini surmoqdamiz". O'qituvchi o'quvchilar fikrini xulosalaydi: "Har biringiz mustaqillikni qadrlang, yaxshi o'qing".

3. Mustaqillik haqida she'r, hikoya, ertak, rivoyat aytib beriladi, o'quvchilar bilan suhbat o'tkaziladi.

4. "Vatanjonim – Vatanim" qo'shig'i videolavhasi namoyish qilinadi

## VATANJONIM - VATANIM

Vatanjonim – Vatanim,

Ko'zim quvnab ko'rganim.

Istiqoldan kulganim,

O'zbekiston – gulshanim!

Bahra olib bag'ringdan,

Ulg'ayaman mehringdan,

Vatanjonim – Vatanim,

O'zbekiston – gulshanim!

Sen o'xshaysan onamga,

Maqtay butun olamga,

Vatanjonim – Vatanim,

O'zbekiston – gulshanim!

(Po'lat Mo'min)



P. Mo'min she'ri, D. Omonullayeva musiqasi bilan yaratilgan "Vatanjonim – Vatanim" qo'shig'i haqida o'quvchilarning fikri so'raladi. .

5. "Mustaqillik – oliy ne'mat" mavzusidagi suhbatning og'zaki nutq ekanligi haqidagi tushuncha o'qituvchining umumlashma xulosasi asosida quyidagicha tushuntiriladi: "Mana, siz bilan Mustaqillik bayramidan olgan qaynoq taassurotlarimiz haqida gaplashib oldik. Istiqlol haqida go'zal qo'shiqni tingladik.

O'quvchilardan tinglangan hikoyalari maroqli bo'ldi. Ularning, mening aytgan gaplarimiz og'zaki nutqdir. Og'zaki nutqimiz ravon, ko'ngildagidek bo'lishi uchun biz alifbe darslarida og'zaki suhbat qilamiz, sizlar esa rasm asosida gapirishni o'rganib olasizlar, ya'ni og'zaki nutqingiz ravon va chiroyli bo'lishiga erishasizlar".

### **Mustahkamlash va baholash:**

O'tilgan dars quyidagi savollar asosida mustahkamlanadi:

- rasmlarga qarab tuzgan hikoyamiz, aytgan gaplarimiz nima deyiladi?
- og'zaki nutq deb nimaga aytiladi?

O'quvchilarning darsdagi ishtirokiga baho beriladi.

Darsga yakun yasaladi.



## **2-dars**

### **OG'ZAKI VA YOZMA NUTQ. GAP HAQIDA AMALIY TUSHUNCHA. MAKTAB BIZNI CHORLADI**

**Mavzuning qisqacha ta'rifi:** O'quvchilarga maktab qoidalari haqida tushunchalar beriladi. Maktabda bilim olishlari haqidagi suhbat va ko'rgazmali materiallar asosida maktab bilim dargohi ekanligi hamda og'zaki va yozma nutq, gap haqida amaliy tushunchalar beriladi.

**O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:**

**Metod:** o'yin-dars

**Shakl:** jamoa bilan ishlash.

**Jihoz:** To'g'ri o'tirish qoidasini ko'rsatuvchi rasm-plakat, darslik, yozuv daftari, maktab – bilim maskani ekanligini aks ettirgan rasm, "O'quv qurollari magazini" rolli o'yini.

**Nazorat:** o'quvchilarning dars davomidagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.



**Baholash:** o'quvchilarning reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

### **Darsning maqsad va vazifalari:**

**Ta'limiy:** maktab - bilim maskani ekanligiga oid tushunchalarni tarkib toptirish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarni maktab va o'quv qurollari tushunchalari bilan tanishtirish. "Mustaqillik bayrami" va "Bilimlar kuni"ning barobar nishonlanayotgani bilan qutlash, bolalarda o'qishga havas uyg'otish.

**Rivojlantiruvchi:** Og'zaki va yozma nutq. Gap haqida amaliy tushuncha

### **Kutilayotgan natija:**

Dars yakunida o'quvchilar maktab - bilim maskani ekanligi haqida to'liq tushunchaga ega bo'ladilar. Ularda og'zaki nutq ko'nikmalari tarkib toptiriladi.

### **Dars jarayoni texnologiyasi:**

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi. O'quvchilar dars tartibi va o'quv qurollari bilan tanishtiriladi.	Suhbat	3 daqiqa
2-bosqich Ehtiyojlarni aniqlash	To'g'ri o'tirish qoidasi bilan tanishtiriladi.	Slayd orqali	5 daqiqa
3-bosqich Darsning borishi	1. O'quv qurollari bilan tanishtirish 2. "Maktab – bilim maskani" mavzusida o'quvchilarga she'rlar aytirish. 3. "O'quv qurollari magazini" rolli o'yinini o'ynash. 4. Og'zaki va yozma nutq. Gap haqida o'qituvchining umumlashma xulosasi	Namoyish suhbat rasm	5 daqiqa 7 daqiqa 7 daqiqa
4-bosqich. Mustahkamlash	Savollar va suhbat asosida o'tilgan darsni mustahkamlash.	Savol-javob	7 daqiqa
5-bosqich Baholash	Savollar va suhbat asosida o'tilgan darsni mustahkamlash.	Qisman interfaol	7 daqiqa



## O'QUV-METODIK QO'LLANMA

1. Darsda tashkiliy qism alohida o'rin tutadi. O'quvchilarni bilim egallashga intilishini oshirish maqsadida dars shiori qilib "Ista ilm izlashga, intil maqsad ko'zlashga!" shiori belgilab olinadi va shiorga mos tarzda (slyayd orqali) quyidagi topishmoq-she'rlarga mos rasmlar ko'rsatilib, ularning javoblarini topish so'raladi:

Yechar masala, misol  
Bersangiz biror savol,  
Javob topar shu zamon  
Uni deymiz \_\_\_\_\_

*(bilimdon)*

Kundalikka peshma-pesh  
Olsa faqat a'lo, "besh"  
Topinglar, bu bola-chi  
Kim bo'ladi? \_\_\_\_\_

*(a'lochi)*

**(Kavsar Turdiyeva)**

O'quvchilar to'g'ri o'tirish qoidalari va o'quv qurollari bilan tanishtiriladi (slyayddan mos rasmlarni namoyish qilish orqali).

To'g'ri o'tirish qoidalari va o'quv qurollaridan foydalanishga oid gigiyenik, estetik, ta'limiy talablar uqtiriladi. Bu o'quv jihozlari Prezidentimizning sovg'asi ekanligi, binobarin, uni asrab-avaylab tutish lozimligi, o'quv jihozlarining o'quvchi uchun foydali tomonlari she'r-topishmoqlar yordamida tushuntiriladi:

Ulg'ayib elga xizmat  
qilaman degan odam,  
Qadrlamog'i kerak  
o'zgalar mehnatin ham.

Gap nima haqdaligin  
tushungandirsan, Asom,  
Partaga chizganlardan  
hech vaqt chiqmagan rassom.

**(A.Akbarov)**

Nazoratchi nozir u,  
Xato qilsang,  
Hozir u.



Ehtiyotlab tutmasang,  
Cho'pday ozib tuzir u (O'chirg'ich).

**(Dilshod Rajab)**

Prezidentimdan sovg'a  
Kelgandir bizlarga mos.  
Qalam, ruchka, kitoblar  
Asrab etaylik e'zoz.

**(M.Egamberdi qizi)**

Albatta, she'r-topishmoqlarning javoblarini o'quvchilar topadilar. Xulosa-she'rlarni o'qituvchi aytib beradi, o'quvchilardan ham mavzuga mos fikrlari, yodlagan she'rlarini so'rash mumkin.

2. "Maktab – bilim maskani" ekanligini tushuntirish. O'quvchilar diqqati darslikdagi rasimga qaratiladi. Darslikda birinchi qo'ng'iroq manzarasi aks etgan, o'quvchilar va o'qituvchining shodiyona qiyofasi tasvirlangan bo'lib, rasmdagi o'quvchilarning yuz-ko'zidan baxt va shodlik tantanasi barq urib turibdi. O'qituvchi rasm asosidagi suhbatni quyidagi savollar yordamida tashkil qiladi:

Rasmda kimlar tasvirlangan?

O'quvchilar qiyofasida qanday holat ifodalangan?

Bilimlar kunidan olgan taassurotlaringizni so'zlab bering.

Suhbat o'quvchilarning javoblarini umumlashtirish asosida nihoyalanaadi: kuni kecha Bilimlar kunini nishonladik. Hammamiz bu kunni shodiyona kayfiyatda kutib oldik. Maktab – bilim maskani, bu yerda siz qunt bilan o'qib, juda ko'p bilimlarni egallaysiz (bilimning foydasi haqida she'r, hikoya, ertak, rivoyat aytib beriladi, o'quvchilar bilan suhbat o'tkaziladi).

3. "O'quv qurollari magazini" rolli o'yini. Keling, endi birgalashib "O'quv qurollari magazini" rolli o'yinini o'ynaymiz. Rolli o'yinimizda sotuvchilar ... (har bir qatordan 2 tadan 6 ta o'quvchi tanlanadi), oluvchilar ... (shu qatordagi boshqa barcha o'quvchilar ishtirok etishadi). Har bir qatordan tanlangan sotuvchilar o'z xaridorlariga xizmat qiladilar. Har bir qator navbati bilan galma-galdan oldi-sotdi ishlarini amalga oshiradi. Sotiladigan o'quv qurollarini bolalar xuddi "mehmon-mehmon" o'yinidagi kabi xayolan ushlab uzatadilar va oladilar. Bolalar o'z fantaziyalari va xohishlariga ko'ra, o'quv jihozlari nomini aytadilar, sotuv narxini o'zlari belgilaydilar. Ya'ni erkin o'ynaydilar. Sotuvchilar albatta o'z mahsulotlarini ta'riflashlari lozim: "Mana qarang qanday sifatli qalam. Qalam sizga uy ishlarini bajarishingizda yaxshi ko'makdosh bo'ladi" kabi.



4. "Maktab bizni chorladi" gapi 3 ta so'zdan tashkil topganligi, shu mavzuda qilingan suhbat ham og'zaki nutq ekanligi o'qituvchining umumlashma xulosasi asosida quyidagicha tushuntiriladi: "Mana, siz bilan Bilimlar kunidan olgan qaynoq taassurotlarimiz haqida gaplashib oldik. Maktab va o'quv qurollarini ehtiyotlash haqida she'r-topishmoqlar aytishdik.

O'quvchilarimizning taassurotlari maroqli bo'ldi. Alifbe darsligingizdagi rasm esa bu haqida ko'proq narsalarni eslashda ko'makchi boldi. O'tgan darsda og'zaki nutq haqida bilib olgan edingiz. Bugun esa og'zaki nutq gaplardan, gaplar esa so'zlardan tashkil topishini bilib oldingiz.

### **Mustahkamlash va baholash:**

O'tilgan dars quyidagi savollar asosida mustahkamlanadi:

1. Og'zaki nutq deb nimaga aytiladi?
2. Og'zaki nutq nimadan tashkil topadi?
3. O'quvchilarning darsdagi ishtirokiga baho beriladi.

Darsga yakun yasaladi.



## **5-dars**

### **BO'G'IN VA SO'Z HAQIDA TUSHUNCHA. VATANIMIZDA KUZ**

#### **Mavzuning qisqacha ta'rifi:**

O'quvchilarga rasm asosida suhbat hamda darslikda berilgan karam, bodring, sabzi, qovoq rasmlari va ular ostidagi so'z andazalari misolida bo'g'in va so'z haqida tushunchalar beriladi. Kuzda pishib yetiladigan poliz ekinlari sanalib, ularning xususiyatlari haqida suhbatlashiladi hamda so'z va bo'g'in munosabatlari haqida amaliy tushunchalar beriladi.

#### **O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:**

**Metod:** an'anaviy (interfaol metodlarni qo'llagan holda).

**Shakl:** jamoa bilan ishlash.

**Jihoz:** Poliz ekinlarining turlari tasvirlangan rasm-plakat, darslik, yozuv daftari, "Poliz ekinlari" rolli o'yini uchun kerakli jihazlar, poliz ekinlari aks etgan o'yinchoq-shakllar.

**Nazorat:** o'quvchilarning dars davomidagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.



**Baholash:** o'quvchilarning reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

### Darsning maqsad va vazifalari:

**Ta'limiy:** So'z va bo'g'in haqida amaliy tushunchalarni shakllantirish; o'lkamizning tabiati boy ekanligiga oid tushunchalarni tarkib toptirish.

**Tarbiyaviy:** o'lkamizda kuzning saxiy tabiatini tasvirlash orqali bolalarda Vatan bilan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi:** so'z va bo'g'in haqida amaliy tushunchani shakllantirish.

### Kutilayotgan natija:

Dars yakunida o'quvchilar o'lkamizda yetiladigan poliz ekinlari haqida to'liq tushunchaga ega bo'ladilar. Ularda so'zni bo'g'inlarga bo'lish ko'nikmalari tarkib toptiriladi.

### Dars jarayoni texnologiyasi:

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich. Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi.	Suhbat	3 daqiqa
2-bosqich. Ehtiyojlarni aniqlash	O'quvchilarning mavzuga oid bilimlarini belgilab olish	She'riy tavsiflar asosida	
3-bosqich. Darsning borishi	1. Poliz ekinlari bilan tanishtirish 2. Poliz ekinlari haqida o'quvchilarga she'rlar aytirish. 3. "Poliz mahsulotlari do'konida" rolli o'yinini o'ynash. 4. So'z andazalari bilan ishlash(so'z va bo'g'in tushunchalariga amaliy yo'naltirgan holda) 5. O'tilganlarni mustahkamlash 6. So'z va bo'g'in haqida o'qituvchining umumlashma xulosasi	Namoyish, suhbat, rasm asosida suhbat, savol-javob, o'qituvchi xulosasi	4 daqiqa 4 daqiqa 5 daqiqa 4 daqiqa 2 daqiqa
4-bosqich. Mustahkamlash	Savollar va suhbat asosida o'tilgan darsni mustahkamlash.	Savol-javob	5 daqiqa
5-bosqich. Baholash	Savollar va suhbat asosida o'tilgan darsni mustahkamlash.	Qisman interfaol	5 daqiqa
6-bosqich	Yozuv mashg'ulotlari (ilgakcha chizish)	Tushuntirish	5 daqiqa



## Darsning borishi

1. Darsda tashkiliy qism alohida o'rin tutadi. O'quvchilarni bilim egallashga intilishini oshirish maqsadida dars shiori qilib "Saxiy kuz ne'matlari – salomatlik garovi!" shiori belgilab olinadi va shiorga mos tarzda quyidagi she'rlarda tasvirlangan poliz ekinlarini tavsiflash so'raladi:

### **Kuz**

Shirin qovun, tarvuzlar  
Tatib ko'ring, azizlar!  
Qarang nok, shaftoliga,  
Anjirlarning boliga  
Ishonmagan so'zimga  
Boqsin olma, uzumga  
Sharbati totli anor  
Ayting, yana qayda bor?

**(Kavsar Turdiyeva)**

### **Bodringlar**

Boqsang ko'zing qamashar,  
Bargda yonar shudringlar.  
Dildirashib uxlashar,  
To'lpoq-to'lpoq bodringlar.  
Palaklarni titkilab,  
Tongda bodring uzdik biz.  
To'lpoqlarni turtkilab  
Eh, uyqusin buzdik biz.

**(Anvar Obidjon)**

2. "Poliz ekinlari" haqida ma'lumot berish. O'quvchilar diqqati darslikdagi rasimga qaratiladi. Darslikda kuzgi poliz ekinlari yig'imi aks etgan. O'qituvchi rasm asosidagi suhbatni quyidagi savollar yordamida tashkil qiladi:

Rasmda kimlar tasvirlangan?

Haydovchining qiyofasida qanday holat ifodalangan?

Poliz ekinlari haqidagi taassurotlaringizni so'zlab bering.

3. Suhbat o'quvchilarning javoblarini umumlashtirish asosida nihoyalanadi: Kuzda poliz





ekinlari pishib yetiladi. Ularni vaqtida terib olish zarur. Kuz – poliz ekinlari va mevalar pishib yetiladigan palla (poliz ekinlari haqida she'r, hikoya, ertak, rivoyat aytib beriladi, o'quvchilar bilan suhbat o'tkaziladi). Bu mavzuda o'quvchilar bilan suhbatlashish uchun quyidagi savol-topshiriqlardan foydalanish mumkin:

Poliz mahsulotlarini sanab bering.

Siz qaysi poliz mahsulotini sevib tanovul qilasiz?

4. **“Poliz mahsulotlari do'konida” o'yini.** Keling, endi birgalashib “Poliz mahsulotlari do'konida” rolli o'yinini o'ynaymiz. Bu rolli o'yin uchun zarur jihozlar tayyorlanishi kerak. Avvalo sinf o'quvchilari guruhlariga bo'linadi. Guruh tarkibidan bir o'quvchi do'kon sotuvchisi, qolganlar oluvchi vazifasini bajaradilar. Bunda oluvchilar o'zi oladigan narsaning nomini aytmay, xususiyatini sanab berishi zarur. Masalan, “Menga rangi qizil, o'zi dumaloq, suvli yumshoq narsa kerak” (pomidor) yoki “Menga jigarrang, pishganda yumshoq bo'lib pishadigan narsa kerak” (kartoshka).

5. Ushbu mavzu bo'yicha o'rtada quyoshcha rasmi bilan berilgan (darslikning 6-betidagi) karam, sabzi, bodring, qovoq so'zlarining andazalari o'quvchilarning so'z andazalari uchun tutilgan daftarlariga chiziladi. Avval o'qituvchining o'zi izoh beradi: Mana karam so'zi. Ka-ram so'zi 2 bo'g'indan iborat. Shu so'z har bir bo'g'inida chapak bilan ajratilib, o'quvchilar bilan birgalikda aytiladi. Uning so'z andazasi mana bunday bo'ladi. O'qituvchi doskaga shu so'zning andazasini chizib ko'rsatadi. Boshqa so'zlar ham shu tartibda aytiladi. So'ngra o'quvchilarga ularning andazasini chizish topshiriladi.

### **Mustahkamlash va baholash:**

6. O'tilgan dars quyidagi savollar asosida mustahkamlanadi:

1. So'zlar nechta bo'g'indan tashkil topadi?
2. Ikki bo'g'inli so'zga misol keltiring.
3. Sabzavotlarga misollar keltiring.
4. Poliz ekinlariga nimalar kiradi?
5. O'quvchilarning darsdagi ishtirokiga baho beriladi.

Darsga yakun yasaladi.





## 7-dars

# GAP, SO'Z, BO'G'IN VA TOVUSH UZVIYLIGI. BOG'DA (MUSTAHKAMLASH DARS)

### Mavzuning qisqacha ta'rifi:

Meva salomatlik uchun foydali ekanligi. Gap va so'z, bo'g'in va tovush uzviyligi haqidagi tushuncha.

### O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

**Metod:** an'anaviy, didaktik o'yin, izohli o'qish.

**Shakl:** jamoa bilan ishlash

**Jihoz:** Meva turlari, meva terish jarayonlarini ifodalovchi rasmning kattalashtirilgan nusxasi, mevadan tayyorlanadigan mahsulotlardan namunalar (murabbo, turshak kabilar). Qo'shimcha didaktik materiallar: she'r, topishmoq.

**Nazorat:** bolalarning dars davomidagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilarning reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

### Darsning maqsad-vazifalari

**Ta'limiy:** a) o'quvchilarning gap va so'z haqidagi tushunchalarini rivojlantirish.

b) mevaning o'zbek xalqi salomatlikni saqlashdagi o'rnini ochib berish asosida o'quvchilarning ona Vatan haqidagi tushunchalarini rivojlantirish.

**Tarbiyaviy:** mehnatkash o'zbek xalqi fazilatlarini faxrlanish, milliy iftixor tuyg'usini tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilar qo'lini yozuvga tayyorlashga qaratilgan ishlar tarkibini takomillashtirish.

**Kutilayotgan natija:** Dars yakunida o'quvchilar mevalar salomatlik uchun foydali ekanligi haqida kengroq tushunchaga ega bo'ladilar hamda ularning gap va so'z, bo'g'in va tovush uzviyligi haqidagi tushunchalari mustahkamlanadi.

### Dars jarayoni texnologiyasi:

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich. Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfnin darsga tayyorligi tekshiriladi.	Nazorat	3 daqiqa
2-bosqich. Ehtiyojlarni aniqlash	Darsda rioya qilinadigan qoidalar eslatiladi.	dars shiorini birgalikda aytish	2 daqiqa



3-bosqich. Darsning borishi	1. Yo'llanma savollardan foydalanib, alifbedagi meva yig'im-terimiga oid rasmlar asosida o'quvchilar bilan birgalikda hikoya tuzish.	suhbat	3 daqiqa
	2. Matndagi gaplar miqdorini belgilash.	amaliy ish	3 daqiqa
	3. O'quvchilar bilan gapdagi so'zlar miqdorini aniqlashga oid mashqlar o'tkazish.	andaza bilan ishlash	2 daqiqa
	4. Quvnoq daqiqa: "Par etdi" o'yinini o'ynash.	o'yin	2 daqiqa
	5. Mevalardan tayyorlanadigan mahsulotlarga oid ko'rgazma materiallarni, ba'zi mahsulotlarning o'zini, ayrimlarining rasmlarini ko'rsatish va "Kuz" (K.Turdiyeva) she'ri o'qib berish.	namoyish ifodali o'qish	3 daqiqa 4 daqiqa
4- bosqich Mustahkamlash	Savol va topshiriqlar asosida o'tilgan mavzuni mustahkamlash	Savol-javob	9 daqiqa
5-bosqich Baholash	Darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.		5 daqiqa

### Dars borishi:

1. O'qituvchi alifbedagi meva yig'im-terimiga oid rasmlar hamda savollar (7-bet) vositasida o'quvchilarga hikoya tuzdiradi: "Mana katta bog'. Mevalar g'arq pishgan. Bolalar meva termoqdalar. Mevalar – inson sog'ligi uchun juda foydali hisoblanadi. Mevalarni odamlar yaxshi ko'rib yeyishadi". Gapga xos asosiy xususiyatlar ochib beriladi: yuqoridagi tuzgan hikoyamiz matn deyiladi. Siz buni o'tgan darslarimizda bilib olgansiz. Matn esa alohida gaplardan tashkil topadi. Har bir gap biror fikrni ifodalaydi. Bir gap tugagach, ikkinchi gapni aytishdan oldin biroz to'xtab olinadi.

2. Matndagi gaplar miqdorini belgilash. Gapning asosiy belgilaridan yana biri gap boshida tovushning ko'tarilib, oxirida pasayishi, tugallanishida esa qisqagina pauza qilinishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, har bir gapdan so'ng nuqta (.) qo'yiladi. "Mevalar terildi" gapining andazasi quyidagicha bo'ladi:



Demak, ushbu gap 2 ta so'zdan tashkil topgan ekan.



3. O'quvchilar bilan gapdagi so'zlar miqdorini aniqlashga oid mashqlar o'tkazish. Yuqorida tuzilgan hikoyachadagi "Bolalar meva termokdalar" gapi ajratib olinadi. Uning andazasi o'quvchilar ishtirokida sinf doskasiga chiziladi:

--	--	--

Ushbu gapimiz 3 ta so'zdan tashkil topgan ekan. O'quvchilarning o'zlari o'z varaqchalariga andaza chizadilar. Andazalarni tuzgan gaplari asosida izohlaydilar. Masalan: "Men varaqchamga uchta katak chizdim va nuqta qo'ydim. Bu andazaga moslab quyidagi gapni tuzdim: "Uzum – shirin meva" yoki "Men varaqchamga 3 ta katak chizdim va nuqta qo'ydim. Bu andazaga mos gapim quyidagicha: "Gulnora olmani oldi".

4. Quvnoq daqiqqa: "Par etdi" o'yini o'qituvchi boshchiligida o'tkaziladi. O'qituvchi qush va boshqa uchadigan narsalarning nomini aytadi, bolalar "par etdi, par etdi" deb qo'llarini baland ko'tarib pastga tushiradilar. O'yin o'rindan turgan holatda o'ynaladi. Qushdan boshqa narsa nomi aytilganda bolalar cho'kkalab o'tirib turadilar va "ketdi, ketdi" deb aytadilar.

Bu o'yin bolalarni zukkolikka, topqirlikka, hozirjavoblikka o'rgatadi. O'yin R tovushi talaffuzida qiynaladigan bolalar uchun ham foydali. Ularning qushlar turini bilib olishlarida, lug'at boyliklarining o'sishida katta ahamiyatga ega.

5. O'qituvchi mevaning salomatlikka foydasini rasmlar va misollar yordamida izohlaydi. U quyidagi she'rni o'qib beradi:

**Kuz**

Kuladi olma,  
Bizga der horma,  
Uzum deydi uz,  
Qay fasl bu? - Kuz.  
Qushlar bu zamon.  
Janubga tomon,  
Tikmoqdadir ko'z,  
Qay fasl bu? - Kuz

**(K. Turdiyeva)**

Kuz mevalariga oid maqol va topishmoqlar ustida suhbat uyushtiriladi. Shu tariqa mevalarning inson salomatligida tutgan o'rni va ahamiyati ochib beriladi.

**6. "O'zingni yelpi" o'yini.** Bir o'quvchi taklif etilib, unga yelpig'ich beriladi. O'quvchi



mevalarning turlarini aytishi lozim. Shuningdek, o'quvchilar unga meva nomlarining necha bo'g'indan tashkil topgani haqida savollar berishadi. Doskadagi o'quvchi savolga tez javob berishi lozim. Javob bera olmasa, yelpig'ich bilan o'zini yelpiydi. Agar yelpig'ichda o'zini yelpish esidan chiqsa, mag'lub bo'lib, o'yindan chiqadi. Javob berolmasa ham o'zini yelpisa, keyingi savolni qabul qilishi mumkin bo'ladi. O'yin oxirida uning nechta savoldan qanchasiga javob bergani aniqlanadi. Shu tariqa o'quvchida ziyraklik, topqirlik, o'zini tuta bilish layoqatlari rivojlantiriladi

**7. Alifbe darsligida yozuv unsurlari ustida ishlash.** O'qituvchi yozuv unsurlari ustida ishlashda havoga yozish, harakat yo'nalishlarini doska va ko'rgazmaga yozish asosida ko'rsatadi hamda batafsil izohlaydi.

### **Mustahkamlash va baholash:**

Mavzu quyidagi savol va topshiriqlar asosida mustahkamlanadi:

1. Matn deb nimaga aytiladi?
2. Matn nimalardan tashkil topadi?
3. Gap deb nimaga aytiladi?
4. Gap qanday tuziladi?
5. Gap tuzish andazasini ko'rsating.
6. Mevalarga misollar keltiring.
7. Mevalar nimasi bilan foydali?

Darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. O'tilgan mavzu o'qituvchi tomonidan qisqacha xulosalanadi.



## **ALIFBE DAVRI**

### **11-dars**

### **O tovushi va Oo harflari**

#### **Mavzuning qisqacha ta'rifi:**

**Oo** harf-tovushi talaffuzining o'ziga xos jihatlari (uning unli tovush ekanligi haqida amaliy tushuncha), bo'g'in va tovush munosabatlari (ochiq va yopiq bo'g'in haqida amaliy tushunchalar), darslikdagi Oo harf-tovushlari ishtirok etgan rasmlarga oid tushunchalar berish.



### **O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:**

**Metod:** didaktik o'yin.

**Shakl:** jamoa bilan ishlash.

**Jihoz:** kesma harflar, ot mingan ovchi rasmi, oynacha.

**Nazorat:** bolalarning dars davomidagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi

**Baholash:** o'quvchilarning reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

### **Darsning maqsad va vazifalari:**

**Ta'limiy:** a) O'quvchilarni kichik o bilan tanishtirish;

b) O tovushini talaffuz qilishni o'rgatish.

### **Tarbiyaviy:**

a) O'zbekistonda yetishtiriladigan mevalar bilan tanishtirish asosida o'quvchilarni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash;

b) ona tabiatni asrab-avaylashga o'rgatish, ekologik tarbiya.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning so'z boyligini o'stirish, bo'g'in ajratishga o'rgatish.

**Kutilayotgan natija:** O'quvchilarda Oo harf-tovushi, uni so'z tarkibida ishtirok etishi haqida bilim va ko'nikmalar hosil qilinadi.

### **Dars jarayoni texnologiyasi:**

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich. Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	Nazorat	3 daqiqa
2-bosqich Ehtiyojlarni aniqlash	O'tilgan mavzuni mustahkamlash jarayonida intizomga rioya qilish	Dars shiorini jo'rovoqlikda aytish	1 daqiqa
3-bosqich. Darsning borishi	1. Alifbe darsligidagi tegishli rasmlarning kattalashtirilgan nusxasini slaydlarda ko'rsatish.	informatсион texnologiya namuna	5 daqiqa



	2. Oy, osh, olma, oshpaz so'zlarini bo'g'inlarga bo'lib talaffuz qilish.	namuna	5 daqiqa
	3. Jonli suhbat asosida o'quvchilarga har bir so'zning ma'nosi haqida tushuncha berish.	suhbat	6 daqiqa
	4. Har bir rasmda tasvirlangan narsa yoki buyumga oid tarbiyaviy jihatlarni singdirish.	suhbat	6 daqiqa
	5. Oy, osh, oshpaz, olma rasmlariga oid tushunchalarni singdirish, bu so'zlar tarkibidagi O tovushi talaffuziga e'tibor qaratish.	izohli o'qish	4 daqiqa
	6. Quvnoq daqiqa: she'r-topishmoq aytish.	didaktik o'yin	6 daqiqa
4-bosqich. Mustahkamlash	O'quvchilarning Oo harf-tovushiga oid bilimlari savollar yordamida tekshiriladi.	savol-javob	6 daqiqa
5-bosqich. Baholash	Darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.	tushuntirish, suhbat	3 daqiqa

### Darsning borishi:

1. Alifbe darsligida tavsiya qilingan rasmlarning kattalashtirilgan nusxasi slaydda ko'rsatiladi. Masalan, Oo tovushini talaffuz qilayotgan bola rasmi ko'rsatilib, Oo tovushining talaffuzi tushuntiriladi. Oo tovushi unli tovushlar sirasiga kirib, talaffuzda o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramaydi. Bu nazariy bilim o'quvchilarga bevosita o'qituvchi ko'magida O tovushini amaliy talaffuz qildirish asosida o'rgatiladi. Bunda O tovushining nisbatan cho'zib aytilishiga o'quvchilar e'tibori qaratiladi.

2. **Oy, osh, oshpaz, olov** so'zlarini bo'g'inlarga bo'lib talaffuz qilish asosida o'quvchilarda bo'g'in va tovush munosabati, O tovushining o'ziga xos xususiyati haqida tushuncha hosil qilinadi.

3. Jonli suhbat asosida o'quvchilarga har bir so'zning ma'nosi haqida tushuncha beriladi hamda har bir rasmda tasvirlangan narsa yoki buyumga oid tarbiyaviy jihatlarni



ham singdiriladi. Masalan: “osh” va “oshpaz” rasmlari asosida bolalarga quyidagilar uqtiriladi: “Oshpazlik – juda kerakli kasb. Dasturxonimizni turli taomlar bilan to'ldirishda oshpazning hissasi bor. Usta oshpazlar yoki pazanda onajonimiz pishirgan palov bizning sevimli taomimizdir”.

**4. Oy, osh, oshpaz, olov** rasmlariga oid tarbiyaviy tushunchalar singdiriladi.

5. Bu so'zlar tarkibidagi **O** tovushi talaffuziga alohida e'tibor qaratiladi. “**O** tovushi qaysi rang bilan ifodalangan?” - “Qizil rang bilan”. **O** tovushi darslikdagi harf namunasida va bo'g'inli katakchalarda qizil rang bilan ifodalangan. “Oy” so'ziga diqqat qiling. O-oo-y, qaysi tovush ajratib aytildi? – “**O**” tovushi. Darslikdagi rasm ostidagi katakcha nechta? Ikkita. Demak, “oy” so'zida nechta tovush ishtirok etgan ekan? Ikkita. **O** va **y** tovushi. Bu ikki tovushning birikishidan “oy” so'zi hosil bo'adi.

6. Quvnoq daqiqa:

Oqib keladi jildirab,

Oyna kabi yaltirab,

Oqib kelgan oynani,

Olish mumkin hovuchlab,

Topinglar-chi nima bu?

Ariq to'la oyna - suv.

She'r-topishmoq tik turgan holatda engashib turib, qo'l harakatini suvning oqish maromiga mos holda silkitib aytiladi. O'qituvchi ko'rsatgan harakatni o'quvchilar takrorlaydilar.

### **Mustahkamlash va baholash:**

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- So'zlar qanday hosil bo'ladi? **Osh** so'zi misolida tushuntiring.
- Unli tovush deganda nimani tushunish lozim?
- Darslikda berilgan harf namunasi va narsa-buyum rasmi ostidagi kataklarda O unli harfi qanday rangda ifodalangan?

O'quvchilarning Oo harf-tovushiga oid bilimlari savollar yordamida tekshiriladi.

O'qituvchi xulosasi asosida dars nihoyalaniadi.







## 12-dars

### N tovushi va N n harflari

#### Mavzuning qisqacha ta'rifi:

**Nn** tovush-harflari ishtirok etgan so'zlar ustida ishlash. Matn, gap, so'z, bo'g'inga oid tushunchalar haqida kengroq ma'lumot berish (amaliy ishlar).

#### O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

**Metod:** noan'anaviy

**Shakl:** jamoa, guruh bilan ishlash

**Jihoz:** nay, nok, nog'ora rasmi. Non haqidagi ertak, topishmoq, hikmatli so'zlar, bobo dehqon mehnatini aks ettiruvchi rasmlar.

**Nazorat:** bolalarning dars davomidagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilarning reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

#### Kutilayotgan natija

O'quvchilar **Nn** tovush-harflarining so'z tarkibida qo'llanilishi haqida tushuncha, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi.

#### Dars jarayoni texnologiyasi:

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich. Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi.	Nazorat	2 daqiqa
2-bosqich. Ehtiyojlarni aniqlash	O'tilgan mavzuni mustahkamlash jarayonida intizomga rioya qilish.	Tushuntirish	2 daqiqa
3-bosqich. Darsning borishi	1. Darslikdagi nay, non va nog'ora rasmlari asosida o'quvchilarda bir bo'g'inlilik va ko'p bo'g'inlilik haqida tushunchani tarkib toptirishga e'tiborni qaratish. 2. Nn harf-tovushini tanitish. 3. Nn harf-tovushidan boshlanadigan nay va narvon so'zlarining andazasi ustida ishlash.	suhbat amaliy ish amaliy ish suhbat "O'ylab top" o'yini. didaktik	2 daqiqa 3 daqiqa 3 daqiqa 3 daqiqa 5 daqiqa 3 daqiqa 3 daqiqa

**O'QUV-METODIK**  
QO'LLANMA

	4. Darslikda "So'z andazasi bilan ishlang" shartli belgisi bilan berilgan nog'ora va narvon so'zlarini bo'g'inga ajratilishi bo'yicha ma'lumot berish.	o'yin	4 daqiqa
	5. Quvnoq daqiqa	amaliy ish	4 daqiqa
	6. O'quvchilarni faollashtirish va so'z boyligini oshirish uchun bolalarni uch guruhga bo'lib, "Nn harfiga kim ko'p so'z topadi?" o'yinini o'tkazish.	mustaqil ish	
	7. "Non" so'zining andazasini chizdirish.	didaktik mashg'ulot	
	8. "Non yopamiz" rasmi asosida suhbat.		
	9. Bolalarga nonni isrof qilmaslik haqidagi she'rlardan namunalarni aytirish.	amaliy harakat	4 daqiqa
	10. Quvnoq daqiqa:		
4-bosqich. Mustahkamlash	O'quvchilarning Nn harf-tovushiga oid bilimlari savollar yordamida tekshiriladi.	savol-javob	4 daqiqa
5-bosqich. Baholash	Darsda faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiriladi.	tushuntirish, suhbat	2 daqiqa

**Darsning borishi**

1. O'qituvchi darslikdagi nay, non va nog'ora rasmlari asosida o'quvchilarda bir bo'g'inlilik va ko'p bo'g'inlilik haqida tushunchani tarkib toptirishga e'tiborni qaratadi. Shuningdek, **N** tovushining talaffuz nuqtayi nazaridan **O** tovushidan farqini tushuntiradi. N harf-tovushi undosh harf-tovush bo'lgani uchun yozuvda havorang bilan ifodalanganligi aytiladi. **N** tovushi undosh tovushlar sirasiga kirishi, o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchrashini amaliy yo'l bilan tushuntiradi. Bunda non, ilon kabi so'zlardagi oxirgi **n** tovushini ta'kidlab, ajratib talaffuz qilish asosida o'quvchilarga **n** tovushining talaffuzi amaliy tushuntiriladi (non- n-n, ilon-n-n kabi). **N** tovushining so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida kelishi holati aniq misollar yordamida tushuntiriladi. Ona, ana, mana, tana,



narvon, ayvon, O'zbekiston kabi so'zlarda esa **n** tovushi so'z oxirida kelayotganligiga o'quvchilar diqqati qaratiladi.

2. **Nn** harflarini tanitish. O'quvchilar darslikning har ikkala tomonidagi **Nn** harflarining bosma va yozma shaklini kuzatadilar. O'qituvchi n tovushi **Nn** harfi bilan yozilishini aytadi. O'qituvchi non so'zini doskada yozib ko'rsatadi. Mazkur so'zning tovush tahlilini izohlaydi. O'quvchilar bilimni aniqlash maqsadida non so'zining tovush tahlili o'quvchilardan so'raladi. O'qituvchi non so'zini sidirg'a o'qiydi. So'ngra non so'zi tarkibidagi **O** tovushini cho'zish orqali (**No-o-o-n**) unli va undosh tovushlarning so'z tarkibida uyg'unlashuvini izohlaydi. O'quvchilarga o'qittiradi.

3. N tovushidan boshlanadigan nay va nog'ora so'zlarining andazasi chiziladi.

--	--	--

--	--	--	--	--	--

Katakchalardagi **Nn harf**-tovushi o'rni havorangda ekanligi, unli va undosh tovushlarning farqli jihatlariga o'quvchilarning e'tibori qaratiladi. **Nn** harfi ishtirok etgan va darslikda berilmagan jonivorlar (masalan: maymun, arslon rasmlari) yuzasidan o'quvchilarga undosh **N** tovushining katakchadagi o'rnini aniqlash, mazkur hayvonlarning nomini ifodalovchi so'zlarni bo'g'inlarga ajratishga oid mustaqil ish turi topshiriladi.

4. Darslikda "So'z andazasi bilan ishlang" shartli belgisi bilan berilgan nog'ora va narvon so'zlarini bo'g'inga ajratilishi bo'yicha ma'lumot beriladi. O'quvchilar ushbu so'zlarning andazasini maxsus (Gap va so'z andazasi uchun tutgan) daftarlariga chizadilar

5. Quvnoq daqiqa: "O'ylab top" o'yini

Bilarvoyning boshida bir nima bor,

Toping-chi,

Buning uchun boshni ushlab,

Tebratingiz u yon-bu yon.

"To'rt yonida to'rtta oy,

Boshga berar u chiroy,

Nima u? "

**O'quvchilar: Do'ppi, do'ppi!**

**O'qituvchi: Juda to'g'ri!**

Bu jumboq-o'yin paytida o'quvchilar boshlarini ushlab sarak-sarak qiladilar. Miyadagi qon harakati faoliyatini yaxshilashga, dam olishga qaratilgan mazkur o'yindagi harakat holatlarini o'qituvchi ko'rsatadi. O'quvchilar esa unga taqlid qiladilar.



6. O'quvchilarni faollashtirish va so'z boyligini oshirish uchun bolalarni uch guruhga bo'lib, "N harfiga kim ko'p so'z topadi?" o'yinini o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bunda gurudagi o'quvchilarning topqirligi, hozirjavobligi guruhning yutug'ini belgilashi tushuntiriladi.

I qator	II qator	III qator
N so'z boshida kelgan so'zlarni topadilar:	N harfi so'z o'rtasida kelgan so'zlarni topadilar:	N so'z oxirida kelgan so'zlarni topadilar:
Non	Xona	Xotin
Narvon	Ona	Osmon
Norin	Angishvona	Oson
Nay	Otxona	Erkin
Noma	Tana	Ayvon
Nima	Yana	Hayvon
Nega	Sana	Maymun

G'olib guruh qatnashchilari rag'batlantiriladi.

7. O'quvchilar darslikdan **non** so'zini o'qiydilar. Uning andazasini chizadilar. So'zdagi **N** tovushining o'rnini aniqlaydilar. O'qituvchi uch harfdan iborat **non** so'zi to'qlik, farovonlik ramzi ekanligini aytadi.

O'g'lim, nonni yerga tashlama,  
Hurmati zo'r, qadri zo'r nonning!  
Zamirida tog'dek beqiyos  
Mehnati bor bobo-dehqonning.

8. O'quvchilarning diqqati ona va bolalarning non tayyorlash jarayonini aks ettiruvchi rasmlariga qaratiladi. Rasm suhbat metodi asosida izohlanadi. Bolalar ishtirokida non turlariga oid lug'at tuziladi: shirmoy non, kulcha non, patir non, obi non va h.k. '

9. Bolalarga nonni isrof qilmaslik haqidagi she'rlardan namunalar aytiriladi.

### **Non aziz – eng halol,**

Bo'lmasin non uvol,  
Uvog'in terib ol!

### **Bug'doydir onasi,**

Oftobning bolasi,



### Dasturxon bezagi,

Dehqonning yuragi,

Bo'lmasin non uvol,

Uvog'in terib ol !

10. Quvnoq daqiqa:

Nayni chalmay ninachi,

Nog'oraga o'yna-chi!

She'r tik turgan holatda nay va nog'ora chalish holatlariga taqlid qilgan holda qo'l harakatlari vositasida jo'rovoqlikda ijro etiladi.

### Mustahkamlash va baholash:

O'quvchilarning bilimlari quyidagi savollar asosida sinab ko'riladi:

- Rasmda nimalarni ko'ryapsiz?
- Nonning qanday turlarini bilasiz?
- Non yetishtirish uchun kimlar mehnat qilar ekan?
- Nonning azizligi sababini izohlang.

Dars yakunlanadi. Faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.



## 16-dars

### Aa tovushi va Aa harflari

(ertak-dars)

#### Mavzuning qisqacha ta'rifi:

**Aa** harf-tovushi ishtirok etgan so'zlarning tahlili (ana, ona)

**O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:** interfaol metod qo'llangan aralash dars

**Metod:** noan'anaviy.

**Shakl:** jamoa bilan ishlash.

**Jihoz:** darslik, sehirli qopcha (matodan tikilgan), anor, anjir, qotirilgan haqiqiy ari, bankada asal, rasmlar, kesma harf va kesma bo'g'inlar.

**Nazorat:** bolalarning dars davomidagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilarning reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.



### Dars jarayoni texnologiyasi:

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich. Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	nazorat	2 daqiqa
2-bosqich. Ehtiyojlarni aniqlash	O'quvchilarda ixtiyoriy diqqatni tarkib toptirish.	Jo'rovoqlikda maqol aytish	2 daqiqa
3-bosqich. Darsning borishi	1. Savollar asosida o'tilgan mavzuni takrorlash. 2. Yangi mavzu bayoni. 3. Yangi mavzuni e'lon qilish. 4. A tovushining unli tovushlar sirasiga kirishini tushuntirish. 5. Quvnoq daqiqa. 6. So'z andazasi ustida ishlash. 7. Rasmlar asosida suhbat. 8. Ayiq, archa, ari, asal kabilarning tovush-bo'g'in holatini tahlil qilish.	Suhbat Noan'aviy (o'yin-ertak) suhbat "Ayiq asal yalabdi" didaktik o'yin Amaliy ish Suhbat tahlil	3 daqiqa 3 daqiqa 4 daqiqa 4 daqiqa 3 daqiqa 4 daqiqa 4 daqiqa 4 daqiqa
4-bosqich Mustahkamlash	A tovushining qanday tovushlar sirasiga kirishi va uning qanday yozma shakllari mavjudligi tushuntiriladi	Savol-javob	3 daqiqa
5-bosqich. Baholash	A harf- tovushi ishtirok etgan so'zlarni yozdirish.	Guruhlararo musobaqa	5 daqiqa
6-bosqich.	A harf- tovushi ishtirok etgan so'zlar andazasini chizdirish va uni izohlash	tushuntirish	4 daqiqa

### Darsning borishi:

1. O'quvchilarda ixtiyoriy diqqati tarkib toptiriladi.

O'tilgan mavzu takrorlanadi. Bunda asosan N tovushining talaffuzi bilan bog'liq bilimlarni qaytarishga diqqat qilinadi.



Savollar:

N tovushi qanday tovushlar sirasiga kiradi?

Nima uchun N tovushini undosh tovush deb ataymiz?

2. Yangi mavzu bayoni noan'anaviy dars turlari unsurlari aralashtirilgan holda tashkillashtiriladi. Sinf eshigi taqillab, Malika obrazidagi qiz "Sehrli qop" olib kiradi, bu "Sehrli qop"ni sehrgar Ibn Xattob berib yuborganligini, qopda bugungi darsning mavzusi yashiringanligini, uni ochish va bilib olish kerakligini tayinlaganligini aytadi. Qopni olib kelgan o'qituvchi chiqib ketadi. Shundan keyin sinf o'qituvchisi "Sehrli qop"ni birin-sirin bir necha o'quvchining oldiga olib boradi. O'quvchilar qopdagi narsalardan bittadan oladilar. O'qituvchi o'quvchilarga topshiriq beradi: Aziz bolajonlar, siz hozir qo'lingizdagi narsalarning nomi, qanday tovush bilan boshlanishi, shu narsaning xususiyatlari to'g'risida gapirib berishingiz kerak. Sizlarning aytgan gaplaringizdan sehrgar Ibn Xattob bizga qanday mavzuni o'rganish uchun jo'natganini bilib olamiz.

O'quvchilar birma-bir olgan narsalariga ta'rif beradilar.

1-o'quvchi: (uning qo'lida anor) Bu anor. Anor so'zi A tovushidan boshlanadi.

Anor so'zi 4 ta harf-tovushdan iborat. Bo'g'inga bo'linganda 2 qismli bo'ladi: Anor. Birinchi bo'g'inida 1 ta harf-tovush. Ikkinchi bo'g'inida 3 ta harf-tovush. Anor daraxti bog'larda, hovlilarda o'sadi. Po'sti taxir. Donasi shirin yoki nordon, qip-qizil rangli bo'ladi.

2-o'quvchi (qo'lida bankachadagi asal) Bu - asal. Asal so'zi A harf- tovushidan boshlanadi. Bu so'z 4 harf-tovushdan iborat. Bo'g'inga ajratilganda a-sal bo'ladi. Birinchi bo'g'inda 1 ta harf-tovush, 2-bo'g'inda 3 ta harf-tovush. Asalning ta'mi shirin. Shakli suyuq yoki quyuc bo'ladi. Rangi sariq. Do'kon va bozorlarda sotiladi. Asalari gul shirasini to'plab bizga mana shu shirin asalni sovg'a qilgan.

Shu tariqa o'quvchilar tomonidan anjir, qotirilgan ari kabilarga har tomonlama ta'rif beriladi.

3. Yangi mavzuni e'lon qilish. O'qituvchi o'quvchilar tomonidan ta'riflangan narsalarning barchasi A tovushidan boshlanganligiga e'tiborni qaratadi. Xulosa qilib, "Sehrli qopcha"da keltirilgan yangi mavzu Aa harf-tovushi ekanligi aytiladi.

4. "A" tovushining unli tovushlar sirasiga kirishini tushuntirish. O'quvchilar o'qituvchining quyidagi izohiga ko'ra, **Aa** harf-tovushi bilan tanishadilar: Bolalar, sizlarga shunday savol. Bilib-bilmay bexosdan sovuq suv ichib qo'yingiz, tomog'ingiz og'rib qoldi. Shifokor huzuriga borasiz. Shifokor sizning tomog'ingizni tekshirmoqchi bo'ladi. Shifokor qo'lga kichkina qoshiqchani oladi-da, sizga nima deydi? O'quvchilar "A-a-a-a" deb og'zingni och, - deydi. Ha, bolalar, to'g'ri! "**A-a-a-a**" deb og'iz ochilganda **Aa** harf-tovushi talaffuz qilinadi.



Bu tovush unli tovushlar sirasiga kiradi, talaffuz qilganda cho'zib aytish mumkin. Talaffuz vaqtida o'pkadan chiqayotgan havo hech qanday to'siqqa uchramaydi. O'qituvchi bolalar bilan birgalikda **Aa** tovushini talaffuz qiladi. A-nor, Ayiq so'zlari tarkibidagi **A** tovushini ayirib cho'zib talaffuz qilish orqali o'quvchilarni **A** harf-tovushining so'z ichidagi o'rnini aniqroq tushunishlariga erishadi. **A** tovushining unli tovushlar sirasiga kirishi tushuntiriladi.

5. Quvnoq daqiqa.

Ayiq asal yalabdi ko'p, ko'p, ko'p,

Arilar uni talabdi xo'p, xo'p, xo'p.

Yur yordamga boraylik tez-tez-tez,

Tartibga chaqiraylik biz, biz, biz.

She'riy o'yin vaqtida asalning ko'pligi, ayiqni arilar talagani, uni qutqarish uchun tez yordamga borish kabilar harakatlar orqali ifodalanadi.

6. So'z andazasi ustida ishlash. Aa harf-tovushi uchun berilgan archa, anor, asal, ari so'zlari tarkibi, unda a harf-tovushining o'rne aniqlanadi. Bunda ushbu so'zlarga oid andazalarni to'ldirish emas, balki mazkur so'zlarni darslikdagi andazasiga asoslanib bo'g'inlarga ajratishni talab qilinadi. Ushbu so'zlarning andazasini mustaqil ravishda tuzib, uni darslikda berilgani bilan solishtiriladi:

7. Rasmlar asosida suhbat. A harfiga bog'lab berilgan rasmda ayiq, archa, ari, arg'imchoq kabilarning tovush-bo'g'in holati tahlil qilinadi. Tahlilda rasmlar ostidagi so'z andazalariga asoslaniladi. Masalan: Mana ayiq rasmi. U ikki bo'g'inli A tovushi bilan boshlanadi. Shuning uchun katakcha qizil rangda ifodalangan kabi.

8. A harfiga bog'lab berilgan rasmlardan ayiq, archa, ari, asal kabilarning tovush-bo'g'in holati tahlil qilinadi.

### **Mustahkamlash va baholash:**

Darsni yakunlash. Dars yakunida o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi.

- A harf-tovushi qanday tovushlar sirasiga kiradi?

- A harf-tovushining qanday yozma shakllari bor?







## 20-dars

### I tovushi va li harflari

#### Mavzuning qisqacha ta'rif:

**I** tovushi va **li** harflariga oid BKM (matn va so'z tarkibida ishlatilishi).

#### O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

**Metod:** didaktik o'yin.

**Shakl:** jamoa bilan ishlash.

**Jihoz:** darslik, li harfiga bog'lab o'rgatish uchun mo'ljallangan she'r, topishmoq, tez aytishlar, 14-betdagi rasmlarning kattalashtirilgan nusxasi, oynacha.

**Nazorat:** bolalarning dars davomidagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. Baholash: o'quvchilarning reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

#### Darsning maqsad va vazifalari:

**Talimiy:** li harflarini o'rgatish **I** tovushining unli tovushlar sirasiga kirishini amaliy va nazariy jihatdan tushuntirish.

**Tarbiyaviy:** milliy axloq-odob me'yorlarini tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarda I tovushi va li harflariga oid BKMLarni rivojlantirish.

**Kutilayotgan natija:** Dars yakunida o'quvchilarda **I** tovushi va **li** harflariga oid BKMLar tarkib toptiriladi.

#### Dars jarayoni texnologiyasi:

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich. Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	nazorat	2 daqiqa
2-bosqich. Ehtiyojlarni aniqlash	O'tilgan mavzuni mustahkamlash jarayonida intizomga rioya qilish.	tushuntirish	2 daqiqa
3-bosqich. Darsning borishi	1. Takrorlash orqali o'quvchilar bilimini mustahkamlash. 2. 14-betdagi "Ona-bola ish ustida" rasmi asosida savol-javob o'tkazish. 3. Mazmunli rasm asosida hikoya tuzish.	Suhbat, rasm asosida suhbat, hikoya tuzish, amaliy ish	3 daqiqa 3 daqiqa 3 daqiqa 5 daqiqa 2 daqiqa 2 daqiqa



	4. Doskaga lp so'zining andazasini chizish. 5. Quvnoq daqiqa. 6. li tovushi talaffuzi ustida ishlash. 7. li harflarini tanitish. 8. Bo'g'in ustida ishlash. 9. Matn o'qish.	harakatli o'yin amaliy ish suhbat amaliy ish ifodali o'qish	3 daqiqa 3 daqiqa 4 daqiqa
4-bosqich. Mustahkamlash	1. Kitobimizda li harfi nima uchun qizil rangda berilgan? 2. li unli tovushini qanday aytamiz?	Savol- javob	4 daqiqa
5-bosqich. Baholash	O'quvchilar bilimi rag'batlantirilib, dars yakunlanadi	Nazorat	3 daqiqa
6-bosqich.	li tovushi va li harflari ishtirok etgan so'zlar andazasini chizish.	tushuntirish	2 daqiqa

**Darsning borishi:**

1. Takrorlash orqali o'quvchilar bilimini mustahkamlash. Oldingi dars ishlanmalarida berilganidek, unli va undosh tovushlarga oid bilimlar savol- javob metodi asosida tekshiriladi. Harf topish kartonida A, N, O harflaridan so'z tuzish mashqlari bajariladi.

2. O'qituvchi turli rangdagi iplardan namunalarni doska tagligiga terib qo'yadi. 14-betdagi "Ona-bola ish ustida" rasmining kattalashtirilgan nusxasini ilib qo'yadi. O'qituvchi iplarni ko'rsatib so'raydi:

- Bular nimalar?
- Iplarning rangi qanday ekan?
- Iplar nima uchun kerak? kabi.

3. "Ona-bola ish ustida" mazmunli rasmi asosida quyidagi hikoyani tuzadilar. "Naima opaning qizchasi bor. Uning ismi Nigina. Naima opa ko'ylak tikdi. Nigina onasiga qarashdi. Tuzilgan har ikki suhbatdan ajratilgan gapimiz quyidagicha bo'ladi: lp ko'ylak tikish uchun kerak. Doskaga gapning andazasi chiziladi:

- Gapda nechta so'z bor? – **Beshta.**
- So'zimiz qanday? - **lp** so'zi

4. Doskaga ip so'zining andazasi chiziladi: lp so'zidagi i tovushini cho'zib talaffuz qilish orqali, bu tovushning unli tovushlar sirasiga kirishi aniqlanadi. **l** tovushi haqida o'qituvchi quyidagilarni aytadi. **l** tovushi unli tovush, uning talaffuzida og'iz torroq ochiladi



(bolalarga i tovushini oynaga qarab turib aytish, tovush talaffuzida og'izning ochilish holatini kuzatish topshiriladi.) **I** tovushini aytganimizda o'pkadan kelayotgan havo halqum va og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramaganligi uchun bemalol cho'zib aytamiz.

### 5. Quvnoq daqiqa.

**6. li tovushi talaffuzi ustida ishlash.** Dorskaga ikki, ilon, sigir rasmi ilib qo'yiladi. Ularning bo'g'in-tovush holati darslikda berilgan ip, tikuvchi, nina, pilla rasmi va ular ostidagi so'z andazalari orqali izohlanadi. O'quvchilar diqqati so'zlardagi i tovushining o'rniga qaratiladi.

**7. li harflarini tanitish.** O'quvchilarga bosma harfda yozilgan **li** ning nusxalari ko'rsatiladi. Bular li tovushining yozuvdagi ifodasi ekanligi aytiladi.

**8. Bo'g'in ustida ishlash.** Kesma bo'g'inlardan (**ni, na, no, li**) foydalanib, doskaga ilib qo'yilgan ninachi, oyna, o'g'il bola (Ali) rasmi nomlaridan ni, na, no, li bo'g'inlarini topish topshirig'i beriladi.

**9. Matn o'qish.** "Ona-bola ish ustida" rasmi (12-bet) asosida berilgan gaplarni o'qishga tayyorlash maqsadida o'qituvchi gul rasmi va **i** harfi yonma-yon berilgan kattalashtirilgan so'zni ko'rsatadi. Ushbu jumboq rasmda **G** tovushidan boshlanadigan qizning ismi yashiringanini aytadi. Bolalar qizchanning nomini aytadilar: "Guli". Ushbu tayyorgarlikdan so'ng darslikdan dialog-matn o'qitiladi.



## 31-dars

### L tovushi va LI harflari

#### Mavzuning qisqacha ta'rifi:

**LI** harf-tovushiga oid BKMLar (matn va so'z tarkibidagi **LI** harfi ishtirok etgan so'zlarni o'rganish, ularning harf-tovush tahlili asosida) tarkib toptiriladi.

#### O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

**Metod:** didaktik o'yin.

**Shakl:** jamoa, guruh bilan ishlash.

**Jihoz:** darslik, kesma harflar va harf kassasi, rasmi kartochkalar.

**Nazorat:** bolalarning dars davomidagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilarning reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

**O'QUV-METODIK  
QO'LLANMA**

**Darsning maqsad va vazifalari:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarni yangi mavzu bilan tanishtirish bilan birga ularga o'qish va yozishni o'rgatish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarni ochko'zlikdan nafratlanish ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning o'qishga va yozishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish.

**Kutilayotgan natija:** Dars yakunida o'quvchilarda **L** tovushi va **LI** harflari haqida BKM shakllantiriladi.

**Dars jarayoni texnologiyasi:**

Ishning Nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich. Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	nazorat	2 daqiqa
2-bosqich. Ehtiyojlarni aniqlash	O'quvchilarda ixtiyoriy diqqatni tarkib toptirish.	Diqqatni mavzuga jalb etish	2 daqiqa
3-bosqich. Darsning borishi	1. Har bir guruhga rasm-kartochkalar asosida gaplar tuzdirish.	Interfaol	3 daqiqa
	2. LI harfi qatnashgan so'zlar o'ylab topish.	Izlanish	3 daqiqa
	3. O'quvchilarni LI harf-tovushining aytilishi, yozilishi, so'zlardagi o'рни bilan tanishtirish.	Suhbat	3 daqiqa
	4. "So'z andazasi bilan ishlang" shartli belgisi bilan berilgan so'zlar (limon, olxo'ri, lavlagi, olcha so'zlari) ni tahlil qilish, ya'ni so'z tarkibidagi tovush va bo'g'inlarni aniqlash.	Interfaol	3 daqiqa
	5. Darslikning 20-betidagi "Oltin tarvuz" ertagiga ishlangan rasm asosida ertak mazmuni bilan tanishtirish.	Izlanish Suhbat individual qiyosiy tahlil	3 daqiqa 3 daqiqa 3 daqiqa 4 daqiqa 4 daqiqa 5daqiqa 6 daqiqa



	6. Ertak mazmuni bilan tanishtirilgach, rasmni izohlovchi kichik hikoya tuzdirish. 7. "Laylak" so'zini doskaga yozish, uni harf-tovush tomonidan tahlil qilish. 8. Quvnoq daqiqa.	amaliy ish amaliy ish yozma tahlil "Par etdi" o'yini	5 daqiqa
4-bosqich. Mustahkamlash	L tovushi va LI harflari tahlili. L tovushi va LI harflari tahlili.	didaktik o'yin	4 daqiqa
5-bosqich. Baholash	O'quvchilar bilimi rag'batlantirilib, dars yakunlanadi	nazorat	2 daqiqa
6-bosqich.	L tovushi va LI harflari ishtirok etgan so'zlar andazasini chizish (lola, alla).	tushuntirish	2 daqiqa

### Darsning borishi:

1. O'qituvchi bu darsni guruhlab o'qitish usulidan foydalanib o'tishi maqsadga muvofiqdir. Bunda sinfdagi o'quvchilar uch guruhga bo'linishadi. Sinfdagi partalar ham shunga moslab to'rtburchak shaklda uchta joyga qo'yiladi. Har bir guruh o'ziga guruh sardori saylaydi. Shundan keyin har bir guruh o'ziga berilgan rasmi kartochkalar asosida gaplar tuzadi.

2. Har bir guruh LI harfi qatnashgan so'zlardan o'ylab aytadi.

O'qituvchi har bir guruhning fikrlash doirasini, topqirligini, berayotgan javoblarini hisobga olib boradi.

Birinchi guruhga berilgan kartochkada: Lola ismli qiz limonni olmoqchi bo'lib turgan rasmi.

Ikkinchi guruhga berilgan kartochkada alla aytayotgan ona rasmi tasvirlangan.

Uchinchi guruhga berilgan kartochkada daraxt ustiga in qurib turgan laylakning rasmi tasvirlangan. Har bir guruh o'quvchilari berilgan rasmlardan unumli foydalanib, ko'proq gap tuzishlari kerak. Bu gaplarda LI tovushi ishtirok etgan so'zlar ko'proq bo'lishi lozim.

3. O'qituvchi o'quvchilarni LI harfi va tovushining aytilishi, yozilishi, so'zlardagi o'ni bilan tanishtiradi. Oldindan tayyorlab qo'yilgan bosma va yozma shakldagi so'zlar bo'g'inlarga



bo'lish yo'li bilan o'qitiladi. Har bir so'zdagi LI harfining o'rni va vazifasi tahlil qilinadi.

4. "So'z andazasi bilan ishlang" shartli belgisi bilan berilgan so'zlar (limon, olxo'ri, lavlagi, olcha so'zlari) tahlil qilinadi. Ya'ni rasmlar ostida berilgan so'z andazalaridan foydalanib, ular tarkibidagi tovush va bo'g'inlar aniqlanadi.

5. Darslikning 20-betidagi ertak-rasm asosida ertak mazmuni bilan tanishtiriladi.

6. Ertak mazmuni bilan tanishtirilgach, rasmni izohlovchi kichik hikoya tuzdiriladi.

7. Ertakdan "Chol laylakni davolabdi" gapi ajratib olinib, "laylak" so'zi sinf doskasiga yoziladi. O'qituvchi so'zni doskaga yozgach, uni harf-tovush tomonidan tahlil qiladi.

8. Quvnoq daqiqa.

### **Mustahkamlash va baholash:**

O'quvchilar bilimi rag'batlantirilib, dars yakunlanadi.






## BIRINCHI SINFDADA YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

O'quvchilarda chiroyli yozuv malakalarini hosil qilishda diqqat, sezgi, idrok etish, xotira kabi psixofiziologik funksiyalar ishtirok etadi. Yozish jarayoni ko'rish va eshitish sezgilari orqali idrok qilinadi. Demak, idrok etilishi lozim bo'lgan material tasvirini yaqqol ko'rsatish, bayonning ravshan va izchil bolishi, sinf doskasiga hamma o'quvchi ko'ra oladigan qilib chiroyli yozish idrok etishning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlaydigan omillardandir. O'quvchilarda dastlabki yozuv malakalarini hosil qilishda ularning irodasini mustahkamlashga e'tibor berish lozim. Bunda o'qituvchining bolalar bemalol bajara oladigan topshiriqlar tanlashi katta rol o'ynaydi.

O'qituvchi o'quvchilarni to'g'ri o'tirishga o'rgatishi, ularning erkin ishlashi uchun zarur shart-sharoit yaratib berishi kerak. Buning uchun o'quv yili boshida o'qituvchi maktab hamshirasi bilan hamkorlikda bolalarni yoshiga, bo'yiga hamda ko'rish va eshitish qobiliyatlariga qarab partalarga o'tqizishi lozim. O'quvchilar partasi sinfdagi asosiy jihoz bo'lib, u o'quvchilarning yoshlari va bo'ylariga mos, yozish va rasm chizish uchun qulay bo'lishi va o'quvchi o'tirib-turganda xalaqit bermasligi lozim.

Avvalo o'quvchilarni sifatli yozuv qurollari bilan ta'minlash lozim. Ularning yozuv qurollarini muntazam nazorat qilib borish o'qituvchining muhim vazifasidir. Dastur talablari bo'yicha 1-sinf o'quvchilari "Alifbe" kitobiga ilova tariqasida chiqarilgan "Yozuv daftari" dan foydalanadilar. "Yozuv daftari" sifatli qog'ozdan ishlangan, silliq va chiziqlari aniq ko'rinib turadigan bo'lishi lozim. Daftardagi qiya chiziqlar oralig'i 25 mm, qiyaligi 75°, kichik harflar yoziladigan satr chizig'i oralig'i 5 mmga teng bo'lishi lozim.





O'quvchilar uchun tavsiya etiladigan sharikli yoki gelli avtoruchkalarining yo'g'onligi ularning qo'l barmoqlariga mos bo'lib, uzunligi 130 mmdan oshmasligi lozim.



Yozuv sifati deganda, biz uning aniq va toza, bir xil qiyalikda va balandlikda bo'lishini, bir tekis silliq yozilishini tushunamiz. O'quvchilarda yozuv sifatlarini shakllantirish uchun o'qituvchi quyidagi ko'rsatmalarga amal qilishi lozim: 1) harf unsurlari va harflarni to'g'ri bog'lab yozish; 2) yozuvni 75° qiyalikda yozishga o'rgatish; 3) har bir qatordagi harflarning bir xil balandlikda bo'lishiga erishish; 4) harf unsurlari, harflar va so'zlar orasidagi masofalarni bir xilda saqlash; 5) sinfdagi barcha o'quvchilarning bir xil tezlikda ravon qilib yozishlariga erishish.

### **Yozuv malakalarini shakllantirishning quyidagi usullari mavjud:**

#### **1. Namunaga qarab yozish.**

Chiroyli yozuvga o'rgatishning eng asosiy usullaridan biri harflarning shaklini namuna qilib ko'rsatish va yozdirishdir. Har bir harf namunasi doskada barcha o'quvchilarning diqqatini jalb qilgan holda yoki ayrim o'quvchilarga daftarda alohida-alohida ko'rsatib berilishi lozim. O'quvchining vazifasi esa doskada eslab qolgan shakllarini (harf, bo'g'in, so'zlar) o'z daftalariga to'g'ri aks ettirishdir. O'qituvchi tomonidan har bir harf yoki harflarning bog'lanishi, og'zaki yoki doskada tushuntirish orqali, qo'lni qayerga qo'yish kerakligi, qayerda qo'l harakatining buriishi va qayerda bu harakat uzilishi, harflarning baland-pastligi qay darajadali kabilar ko'rsatmalar orqali tushuntiriladi. Keyinchalik o'quvchilar ham u yoki bu harfning yozilishini o'qituvchi bayon etgan tarzda tushuntirib beradilar.

#### **2. Namunaga qarab ko'chirib yozish.**

Bu juda qadimiy usul bo'lib, hozirgi kunda ham u o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. O'quvchilar, asosan, harflarning shaklini "Yozuv daftari"dagi namunaga qarab ko'chirib yozadilar. Namunaga qarab ko'chirib yozish tayyor harflarning ustidan yozishga nisbatan ancha murakkab bo'lib, ularning har ikkalasini qaysi vaqtda qo'llashni o'qituvchi yaxshi bilishi kerak. Tayyor holdagi nuqtalar bilan ifodalangan harflar ustidan qo'lni yurgizib mashq qilish ixtiyorsiz jarayon bo'lib, o'quvchilar bu topshiriqni oson bajaradilar. Masalan, O bosh harfi quyidagicha mashq qildiriladi:







O'quvchilarning daftarlarida o'qituvchi tomonidan yozib ko'rsatilgan har bir namuna chiroyli va aniq yozilishi lozim. Yozuv daftarida berilgan namunaga qarab yozdirish o'qituvchining vaqtini tejaydi hamda unumli ishlash uchun imkoniyat yaratib beradi.

### 3. Nusxa ko'chirish.

Bu usul harf shaklini to'g'ri tasavvur eta olmaydigan, yozishda daftar chiziqlaridan pastga tushib yoki chiqib ketadigan o'quvchilar uchun qo'llanadi. Masalan, o'quvchi "B" harfini yozishda xatoga yo'l qo'yayotgan bo'lsa, o'qituvchi ularni nuqtalar bilan ifodalab, daftarga qalamda yozib ko'rsatadi, o'quvchi esa uning ustidan siyoh yurgizib chiqadi. Bu usul o'quvchining shu harf haqidagi tasavvurini kengroq shakllantiradi.



Ayrim hollarda nuqtalar ifodalangan harflar orasini kengroq tashlab, ular orasida mustaqil mashqlarni ham tashkil etish mumkin. Shundagina o'quvchi shu harfning yozilishi haqida to'liq tasavvurga ega bo'ladi.

### 4. Tasavvur orqali yozish.

Bunda o'qituvchi o'quvchilarga qanday qilib yozishni havoda ruchkaning harakati orqali ko'rsatib, o'quvchilar tasavvur hosil qilganidan so'ng daftarga yozishga ruxsat etadi. Bunday mashqlar o'quvchilarning qiziqishlarini o'stiradi hamda jismoniy mashqlarni ham bajarish imkonini beradi.

### 5. Harflarning shaklini tahlil qilish.

Harf va uning unsurlarini tahlil qilishni turlicha amalga oshirish mumkin. Harflarni unsurlariga ajratib tahlil qilish, har bir harfning necha unsurdan tuzilganligini, har bir unsur qanday shaklga ega ekanligini, bu unsurlar boshqa harflar bilan bog'lanishda qanday ko'rinishga ega bo'lishini o'quvchilar tasavvur etadilar. Ammo soddalashtirilgan harflar alfaviti ko'p harflarni unsurlarga ajratmay, bir butun shaklda yozishni tavsiya etadi. Masalan, kichik b va l harflari unsurlarga ajratilmay, bir butun shaklda yoziladi.

### 6. Yozuv malakasini ongli o'zlashtirish.


Chiroyli yozuv qoidalarini yaxshi bilish yozuv malakasining shakllanishiga yaqindan yordam beradi. Chiroyli yozuv qoidalarini qisqa va tushunarli qilib bayon etish lozim, shundagina o'quvchilar uni to'liq o'zlashtirishlari va amalda qo'llashlari mumkin. Masalan, so'zlarda harflarning balandligini va qiyaligini bir xilda saqlash, so'zlarda harf unsurlari va harflar oralig'ini bir xil uzoqlikda chamalab yozish kabi qoidalarni asta-sekin o'z o'rnida o'rgatib borish lozim. Yozuvning qiyaligi haqidagi tushunchalar chuqur singdirilgandan so'ng, harflarni bir xil masofada tekis yozish qoidalari o'rgatiladi. Harflarni qo'l harakatini uzmasdan yozish qoidalari o'rganilgandan so'ng, so'zlarni qo'l harakatini uzmasdan yozish qoidalari o'rgatiladi. Ammo har bir qoidani har darsda o'quvchini bezdiradigan



darajada takrorlash yaramaydi, bunda ongli ravishda o'zlashtirish uchun mo'ljallangan qoidalar asqatishi mumkin.

### **7. Sanoq-ohang usuli.**

Bunda o'qituvchi harf va uning unsurlarini sanash orqali yozdirib tushuntiradi. Bu usulni ayniqsa savod o'rgatish davrida keng qo'llash mumkin. Sanoq-ohang usuli harflarning tekis yozilishini ta'minlaydi va harf unsurlarining tushib qolishiga yo'l qo'ymaydi; sekin yozadigan o'quvchilarni tez yozishga undaydi; o'quvchilarga harakatlarni aniq va dadil bajarishni o'rgatadi. Ammo bu usuldan butun dars davomida foydalanish tavsiya qilinmaydi, chunki o'quvchilar charchab, yozuv sifatini pasaytirib yuborishlari mumkin. Sanoq-ohang usulini qo'llashda, asosan, harflarning asosiy unsuri "bir", "ikki", "uch" deb sanab boriladi, yordamchi ulash unsuri esa "va" deb bog'lanadi. Sanoq-ohang usulidan bo'g'in, so'z va gaplarni yozdirishda ham foydalanish mumkin.



### **8. Xatolar ustida ishlash.**


Bu usulni qo'llashdan maqsad har bir o'quvchini o'z xatosini mustaqil topa olishga va uni tuzatishga o'rgatishdir. O'quvchilarga o'z yozuvlaridagi harflarning to'g'ri yoki noto'g'riligini, qiyaligini, baland yoki past yozilganligini tekshirib chiqish topshiriladi. O'quvchilar navbati bilan o'zlari yo'l qo'ygan kamchiliklarni aytib beradilar, ayrim o'quvchilarga o'qituvchi yordam beradi. Undan tashqari, o'quvchilar o'z kamchiliklarini yozuv daftarida berilgan namunaga qarab taqqoslash orqali ham tuzatishlari mumkin. Ko'pchilik o'quvchilarning takrorlangan bir xildagi xatolarini o'qituvchi sinf doskasida tahlil qilib, uni qanday tuzatish yo'llarini ko'rsatib beradi.

Birinchi sinfda yozuv mashqlarini tashkil etish birmuncha murakkab bo'lib, u bir necha davrlarga bo'linadi va bir necha xil vazifalarni o'z ichiga oladi. Bolalar o'qituvchining ko'rsatmasiga asosan, doskaga yozgan harf va so'zlarni ko'rib boradilar, so'z va bo'g'inlarni tahlil qiladilar, nuqtachalar bilan ifodalangan harflarning ustidan bo'yaydilar. O'qituvchi yozishga o'rgatishdan avval to'g'ri o'tirish qoidalarini tushuntirib berishi, butun dars davomida qoidalarni eslatib turishi lozim. Yozuvga o'rgatish quyidagi qator tushunchalarni bilishni talab etadi: "baland-past", "bir xil", "keng-tor", "yaqin-uzoq", "yuqoriga", "teng", "teng bo'lmagan masofa", "to'g'ri-qiya", "chapga-o'ngga" va hokazo.

Tayyorgarlik davrida o'tkaziladigan mashqlarni ma'lum guruhlarga bo'lib, mashqlarni soddadan murakkabga o'tib bajarish lozim:



**Birinchi guruh mashqlarida** o'quvchilar daftar chiziqlari bilan tanishtiriladi va nuqtalarni ko'z bilan chamalashga o'rgatiladi. Bunda avvalo o'quvchilarga bir xil masofada nuqtalar qo'yish o'rgatiladi. Ularga "baravar masofa", "yaqin", "uzoq" kabi tushunchalarni beriladi. So'ng o'quvchilar daftarning qiya holati bilan tanishtiriladi. Bolalarga oldin daftarni tik, keyin esa qiya qilib qo'yish topshiriladi (daftarning pastki chap burchagi ko'krak o'rtasiga to'g'ri bo'lishi lozim). So'ngra daftarning qiya va tik holatlari solishtirib ko'rsatiladi hamda yozuvning qiyaligi daftarning holatiga taalluqli ekanligi tushuntiriladi. O'quvchilarning qalam ushlashlari tekshirib chiqiladi va qizil qalam bilan bir qator nuqta qo'yib chiqish topshiriladi.




**Ikkinchi guruh mashqlarida** chiziqlarning qiya shaklda yozilishi ko'rsatilib, chiziqlar orasidagi masofani to'g'ri topish o'rgatiladi. O'quvchilar kichik harflar yoziladigan chiziqlar orasiga qiya tayoqchalarni yozdirib mashq qildiriladi. O'qituvchi avval mashqni doskada namuna qilib ko'rsatib beradi. O'quvchilar esa qizil qalamda qiya tayoqchalar chizadilar. O'quvchilar birinchi qatorni yozib bo'lganlaridan so'ng tekshirib chiqiladi va tahlil qilinadi. Yozilgan tayoqchalarning bir xilligini tekshirish uchun ularning o'rtasiga boshqa rangdagi qalam bilan nuqtalar qo'ydiriladi:



Agar nuqtalar baravar masofada bo'lsa, o'quvchi vazifani to'g'ri bajargan, baravar masofada bo'lmasa, xatoga yo'l qo'ygan bo'ladi. Xatoga yo'l qo'ygan o'quvchilarga shu mashqni qayta bajartirish lozim.

**Uchinchi guruh mashqlarida** o'quvchilarga "baland", "yuqori" va "past" tushunchalari anglatilib, chiziqlar orasini to'g'ri topish o'rgatiladi. Bunda o'qituvchi doska yordamida daftarning yuqori chizig'idan pastki chizig'igacha uzun tayoqchalar tushirishni, tayoqchalarning teng o'rtasini topib nuqta qo'yishni, uzun tayoqchalarning o'rtasiga qo'yilgan kichik tayoqcha yotiq chiziq bilan bog'lanishini o'rgatadi; so'ng uzun tayoqchaning yarmidan, ya'ni nuqta qo'yilgan yeridan uning yoniga qiya tayoqcha chizishni topshiradi.





Doskada tayoqchalarning baland va pastligi taqqoslab ko'rsatib beriladi. Shundan so'ng o'quvchilar vazifani bajarishga kirishadilar.

**To'rtinchi guruh mashqlarida** qiyaliklarga ega bo'lgan chiziq unsurlarini yozish o'rgatiladi. Bunda avvalo uzun tayoqcha unsurini bir necha bo'laklarga bo'lib, ularning orasidagi masofani bir xil saqlashga o'rgatiladi (bu chiziqlar jigarrang qalam bilan chizdiriladi). So'ng tayoqchalarning baland-pastligi, oralaridagi masofaning tengligi tekshirib chiqilgach, zangori rang qalam bilan har xil qiyalikka ega botgan kichik baliq shaklini ifodalovchi chiziqlar chiziladi. O'quvchilar bu mashqni bajarish orqali oraliq masofani chamalashga va qiyaliklarni to'g'ri saqlashga o'rganadilar.


**Beshinchi guruh mashqlarida** o'quvchilarga "keng" va "tor" tushunchasi anglatilib; tagi ilmoqli kichik tayoqcha shaklidagi unsurni yozish o'rgatiladi. Avval tagi ilmoqli kichik tayoqcha unsuri har xil rangli qalamda bajariladi. So'ng o'tkir burchak hosil qilib yozilgan unsur bilan tagi ilmoqli kichik tayoqcha unsurlari qiyos qilib ko'rsatiladi (tagi ilmoqli tayoqcha unsurlarining to'g'ri yozilishi ko'rsatib o'tiladi, chunki bu unsur kichik harflarning yozilishida ko'p uchraydi). O'quvchilarga bu qoidalar tushuntirilgandan so'ng bir qatorga oralatib bitta kichik to'g'ri tayoqcha va bitta tagi ilmoqli kichik tayoqcha unsuri yozdiriladi.

**Oltinchi guruh mashqlarida** ovalsimon shakl, **yettinchi guruh mashqlarida** kichik harf unsurlarini qo'shib yozish hamda ularning orasidagi masofani to'g'ri saqlash o'rgatiladi. Bu vazifani to'g'ri yoki noto'g'ri bajarilganligini ikkita unsur o'rtasidagi bo'shliqqa boshqa rangli qalam bilan nuqta qo'ydirish orqali ham bilish mumkin:



Agar o'quvchi vazifani to'g'ri bajargan bo'lsa, nuqta harf unsurlari orasiga to'g'ri joylashadi, aksincha, noto'g'ri bajargan bo'lsa, nuqta uchun joy topilmaydi. Bunday usul bilan vazifani tekshirish o'quvchilarda uchraydigan xatoning oldini olishning birdan-bir to'g'ri yo'lidir.

**Sakkizinchi guruh mashqlarida** ikki xil uzunlikdagi tayoqcha unsurlarini yozish o'rgatiladi:



Bu vazifa ham rangli qalam bilan bajariladi. O'quvchilar bu tayoqchalarning qaysi biri uzun, qaysi biri kalta ekanini solishtirib ko'radilar.



**To'qqizinchi guruh mashqlarida** o'quvchilarga bir qator ovalsimon shaklni chizdirib mashq qildirish, zangori qalam bilan oval shakli ichiga har xil masofada tayoqchalar chizib chiqish topshiriladi. Har bir tayoqcha olma shaklining o'rta qismi, ya'ni uning o'ng va chap tomonlari vazifasini bajaradi. Olma shaklining tashqarisiga ham kichik tayoqcha chiziladi, bu esa uning bandi hisoblanadi.

Tayyorgarlik mashqlarini bunday tashkil etish o'quvchilarni ruchka bilan yozishga tayyorlashda katta rol o'ynaydi.

Husnixat mashqlari o'qituvchi tomonidan doskada yozib ko'rsatilgan namunalar asosida olib boriladi. Bunda yozuv daftaridagi va o'qituvchining yozib ko'rsatgan namunasi o'rtasida farq bo'lmasligi kerak. O'qituvchi yangi materialni to'liq tushuntirib bergach, shu materialni yozuv daftaridan qarab yozishga ruxsat etadi. O'quvchilar alifbega tayyorgarlik davrida ayrim mashqlarni bajargan bo'lishlariga qaramay, o'qituvchi navbatdagi darsni e'lon qilishi bilan birga yozuv qurollarini qayta tekshirib chiqishi hamda quyidagi vazifalarni bajarishni maqsad qilib qo'yishi lozim: 1) barmoq va qo'l mushaklarining harakatini o'stiruvchi gimnastika mashqlarini o'tkazish; 2) doskaga mashqni yozib ko'rsatish va asosiy diqqatni qayerga jalb etishni tushuntirish (ayrim o'quvchilar harfni qanday yozishni aytib berishlari mumkin); 3) yozuv daftarlaridan foydalanish va yozishni qayerdan boshlashni tushuntirish; 4) partada to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlab, daftarni to'g'ri turish qoidalarini eslatib o'tish; 5) har bir qatorga nechta harf yozishni tushuntirish, o'quvchilarning yozuvini muntazam kuzatib borish; 6) ishning birinchi qismi tugagandan so'ng (o'qituvchining savoliga qarab) o'quvchilarning yozuvlarini doskadagi namuna bilan solishtirib, yo'l qo'yilgan xatolarini topishga o'rgatish; 7) topshiriqni qayta tushuntirish orqali o'quvchilardagi kamchiliklarni bartaraf etish; 8) jismoniy mashq daqiqalarini o'tkazish; 9) ko'z bilan daftar orasidagi masofani to'g'ri saqlashga o'rgatish. Bunda mashqlarni bajarishda uni tahlil qilish, qo'shimcha ko'rsatmalar berish kabilar zarur bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, bu davrda o'quvchilarni asta-sekin yozuv daftaridan to'g'ri foydalanishga ham o'rgatib boriladi. O'qituvchining ko'rsatmasiga binoan, o'quvchi daftardan zarur mashqni topishi va bajarishi lozim. Alifbegacha bo'lgan davrdan boshlab e'tibor harf va uning unsurlarini bir xil balandlikda, qiyalikda va qalinlikda yozishga qaratiladi.

Alifbe davrida bolalarni yozishga o'rgatishda o'quvchilarga harf va uning unsurlari alifbe kitobida ko'rsatilgan tartibda o'rgatiladi. Bunda bajariladigan asosiy grafik ishlar quyidagilardan iborat bo'lishi kerak: 1) kichik va bosh harflarni alifbe tartibida yozish; 2) bo'g'in va so'zlarda harflarni qo'shib yozish; 3) qo'l harakatini uzmay yozishga o'rgatish; 4) harflarning qiyaligini va enini to'g'ri saqlashga o'rgatish.



“Yozuv daftari” savod o'rgatish davrida o'quvchilarda yozuv malakalarini shakllantiradi. Unda harflarning o'rni va shakli aniq berilib, o'quvchilar shu namunalarga qarab yozadilar. Ba'zi bir betlardagi nuqtachalar bilan berilgan harflarning ustidan ruchka yurgizib chiqish orqali o'quvchilar shu harf shaklini to'g'ri tasavvur qilishga o'rgatiladi. Bu mashqlarni barcha o'quvchilarga qo'llash shart emas. Uni xunuk yozadigan va harflarni yozishda qiynalayotgan o'quvchilarga qo'llash mumkin. “Yozuv daftari”dan o'quvchilar alifbe davrida foydalanadilar. “Yozuv daftari”ga yozdirishga boshlashdan oldin ularga sinf partasida o'tirish qoidalari, ruchkani to'g'ri ushlab, daftarni to'g'ri tutish qoidalari eslatib o'tiladi. Quyida yozuvga tayyorgarlik davrida o'tkaziladigan 1 soatlik dars namunasini keltiramiz.

### **Darsning maqsadi.**

1. Yozuv daftari va sharikli ruchka bilan tanishtirish.
2. Daftarning chiziqlari bilan tanishtirib, qiya chiziqlarning ahamiyatini tushuntirish.

Dars jihozlari: sinf taxtasi, bo'r, latta, yozuv daftari, ruchka, rangli qalamlar.

### **Darsning borishi:**

#### **1. Darsga tayyorgarlikni tekshirish.**

O'quvchilar, bugun biz sizlar bilan harflarni yozishni o'rganamiz. Qarang-chi, oldingizda yozuv daftari, sharikli ruchka bormi? (O'qituvchi bolalarning ruchkalari bir xilda bo'lishiga alohida e'tibor berishi lozim.)

O'qituvchi sinf partasida yozuv daftarini qanday qo'yish lozimligini amaliy ko'rsatib beradi.

#### **2. To'g'ri o'tirish qoidalarini tushuntirish.**

Sinf partasida o'tirganda boshimizni o'ng yoki chapga qiyshaytirmasdan to'g'ri o'tirishimiz lozim. Ko'zimiz bilan yozuv daftari orasidagi masofa 30-35 cm ga teng bo'lishi lozim (albatta o'qituvchi buni o'quvchi misolida amaliy ko'rsatib berishi lozim).

#### **3. Ruchka ushlab qoidasini tekshirish.**

Ruchkani o'ng qo'limiz bilan ushlaymiz. Yozayotganda esa ruchkaning uchi bilan barmoqlarimiz orasida 10-12 mm masofa bo'lishi, ruchkaning orqa tomoni esa o'ng yelkamizga to'g'ri bo'lishi lozim. (O'qituvchi amaliy ko'rsatib beradi.)

#### **4. Yozuv daftariga nuqtacha va chiziqchalar yozish.**

O'quvchilarga yozuv daftarining birinchi betidagi nuqtachalar bilan bir qatorda ko'ndalang chiziqlarni, satr chizig'ini va qiya chiziqlarni ko'rsatib, uning chetidagi qizil chiziqdan o'tish mumkin emasligini tushuntiradi. Bu qizil chiziq daftarning hoshiyasi deyiladi. Har qanday mashqlar shu qizil chiziqqa yoziladi.



## 5. Jismoniy daqiqalar o'tkazish.

Bunda o'qituvchi o'quvchilarning qo'l va barmoq mushaklarini harakatga keltiruvchi mashqlarni bajartirishi lozim. Jismoniy daqiqalar 1-2 daqiqadan oshmasligi lozim.

## 6. Kichik tayoqchalarni yozish.

Bu mashq orqali o'quvchilarni bir xil masofada chamalab yozishga o'rgatiladi. Albatta, yozuvni bir tomonga qiya qilib yozish ta'kidlab o'tiladi.

## 7. Darsni yakunlash.

Mashqni yaxshi bajargan o'quvchilarning yozuv daftarlari namuna qilib ko'rsatiladi. Yo'l qo'yilgan xatolar ustida ishlanadi.

### Alifbe tartibida harflarni yozishda quyidagi tavsiyalardan foydalanish mumkin:

Kichik *o* harfi cho'zinchoq doira shaklida bo'lib, uni ikki xil shaklda ulash unsuri va ulash unsurisiz yozdirib mashq qildiriladi.



Katta *O* harfi bir butun shaklda yozilib, kichik harflar bilan yordamchi ulash unsuri orqali bog'lanadi.



Kichik *n* harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, kichik to'g'ri tayoqcha, tagi va usti ilmoqli kichik tayoqchadan iborat bo'lib, qo'l uzmasdan qo'shib yoziladi:



Katta *N* harfi unsurlarga ajratilmay bir butun shaklda yoziladi, kichik harflar bilan yordamchi ulash unsuri orqali bog'lanadi.



Kichik *a* harfi kichik cho'zinchoq doira va osti ilmoqli kichik tayoqcha shaklidan iborat. Bu harfni yozish uchun avval cho'zinchoq doira, so'ng osti ilmoqli kichik tayoqcha unsuri yoziladi. Bu harf o'zidan oldin va keyin kelgan harflar bilan qo'l harakatini uzmay bog'lanadi.



*o'v - a an'a, an'ma*

Katta *A* harfi unsurlarga ajratilmay, bir butun shaklda yoziladi. Buning uchun daftar chizig'ining sal yuqorisiga ruchkaning uchini qo'yib, pastki chiziqchaga yarim oy shakli chiziladi. Uni harf qiyaligiga nisbatan tikroq qilib yuqoriga davom ettiriladi hamda daftarning yuqori chizig'iga yetkazmay turib (taxminan 1 mm masofada) pastga 75° qiyalikda to'g'ri tayoqcha unsuri tushiriladi va qo'l harakatini uzmay turib, shu chiziq bo'ylab yana yuqori ko'tarib, tugunchali unsuri yoziladi:

*A | A Anora, Ali*

Kichik *i* harfini yozish uchun daftar chizig'idan pastga qarab kichik tayoqcha tushiramiz va uni pastki chiziqqa yetkazmay turib, o'ngga buramiz va yuqoriga qarab davom ettiramiz. Osti ilmoqli kichik tayoqchaning ustiga nuqta qo'ysak "*i*" harfi hosil bo'ladi.

*i, i - in, nina, inoq*

Katta *L* harfi qo'l harakatini uzmasdan bir butun shaklda yoziladi:

*L, L Inobat, Lhom.*

Kichik *m* harfi uch unsurdan, kichik to'g'ri tayoqcha, usti ilmoqli kichik tayoqcha va tagi ham, usti ham ilmoqli kichik tayoqchadan iborat bo'lib, bir butun shaklda yoziladi:

*m, m - m mand, metro*

Katta *M* harfi uch unsurdan iborat bo'lib, bu harf qo'l harakatini uzmasdan yoziladi.

*M, M - M Malika.*

Kichik *t* harfi osti ilmoqli uzun tayoqchadan iborat bo'lib, "belbog'i so'z tugagandan so'ng qo'yiladi:

*t - t tom, tabib, tuyfa*






Katta *J* harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, yozishda qo'l harakati uziladi.



Kichik *l* harfi unsurlari ajratilmay bir butun shaklda yoziladi:



Katta *L* harfi bir butun shaklda qo'l harakatini uzmay yoziladi va o'zidan keyingi kichik harflar bilan oson bog'lanadi:



Kichik *b* harfi unsurlarga ajratilmay, bir butun shaklda yoziladi. Uni ikki xil ko'rinishda, bog'lovchi unsur orqali va yopiq holda yozish mumkin:



Katta *B* harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, birinchi unsur pastdan yuqoriga qarab yoziladigan chiziq va ikkinchi unsur ikki yarim cho'zinchoq doiradan iborat:



7. Kichik *k* harfi uch unsurdan iborat bo'lib, birinchi unsur usti tugunchakli uzun tayoqcha shaklida, ikkinchi unsur kichik doira shaklida, uchinchi unsur esa ham usti, ham tagi ilmoqli kichik tayoqcha shaklida yoziladi:



Katta *K* harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, ikkinchi unsuri ham usti, ham tagi ilmoqli tayoqchadan iborat bo'lib, keyingi kichik harflar bilan oson bog'lanadi:





Kichik *r* harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, birinchi boshlanish unsuri to'liqinsimon shaklda, ikkinchi unsuri esa tagi ilmoqli kichik tayoqcha shaklida yoziladi:

*r* - *r* - *r* - *rom*, *rubob*

Katta *R* harfi katta *B* harfiga o'xshash bo'lib, faqat uchinchi unsuri bilan farq qiladi:

*R* - *R* - *R* - *Rano*, *Rosi*

Kichik *o* harfi cho'zinchoq doira shaklidagi "o" harfining ustiga kichik ko'ndalang to'liqinsimon chiziqcha chizish orqali hosil bo'ladi:

*o* - *o* - *otloq*, *ordak*

Katta *O* harfi ustiga ko'ndalang to'liqinsimon chiziqcha chizilsa *Ō* harfi hosil bo'ladi:

*O* - *Ō* - *Ōlmas*, *Ōtkur*

Kichik *d* harfi ikki unsurdan iborat, birinchi unsuri kichik cho'zinchoq doira shaklida, ikkinchi unsuri esa osti ilmoqli uzun tayoqchadan iborat:

*d* - *d* - *dala*, *dost*, *dori*

Katta *D* harfini yozishda qo'l harakati uzilmaydi va bir butun shaklda yoziladi. Ammo kichik harflar bilan qo'shimcha chiziqcha orqali bog'lanadi:

*D* - *D* - *Don*, *Dilbar*

Kichik *u* harfi ikki usti ilmoqli kichik tayoqchadan iborat bo'lib, ular qo'shib yoziladi:

*u* - *u* - *ukki*, *ustoz*, *umri*



Katta *U* harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, birinchi unsuri ham usti, ham tagi ilmoqli uzun tayoqcha shaklidan, ikkinchi unsuri esa tagi ilmoqli uzun tayoqcha shaklidan iborat:

*U - Umid. Ulfat.*

Kichik *y* harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, birinchi unsuri osti ilmoqli kichik tayoqcha shaklidan, ikkinchi unsuri esa uzun tayoqcha shaklidan iborat:

*y - yolbars, yolka*

Katta *y* harfi ham ikki unsurdan iborat bo'lib, birinchi unsuri tagi va usti ilmoqli tayoqcha shaklidan, ikkinchi unsuri esa tagi tugunchakli uzun tayoqcha shaklidan iborat. Ammo uning unsurlari bir butun shaklda yoziladi:

*y - Yamin. Yayra.*

Kichik *e* harfi unsurlarga ajratilmay, bir butun shaklda yoziladi. Kichik *harfi* boshqa harflar bilan oson bog'lanadi:

*e - elak, ekin, elim*

Katta *E* harfining tashqi ko'rinishi sodda bo'lsa ham yozilish usuli ancha murakkab, chunki bu harflar qo'l harakatini soat miliga qarshi yurgizishni talab etadi. Bu harfning yuqoridagi yarim cho'zinchoq doira unsuri pastki unsuriga nisbatan kichikroq bo'lib, ular qo'shib yoziladi:

*E - Erkin, Etibor*



Kichik *n* harfi ikki unsurdan, kichik to'g'ri tayoqcha, tagi va usti ilmoqli kichik tayoqchalardan iborat bo'lib, qo'1 uzmasdan qo'shib yoziladi.

Kichik *g* harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, birinchi unsur cho'zinchoq doira shaklida, ikkinchi unsur esa osti tugunchakli uzun tayoqchadan iborat.

*n g ng - tong, yeng*

Kichik *s* harfi qo'l harakatini uzmasdan bir butun shaklda yoziladi:

*s s - soat, sim, soz*

Katta *S* harfi kichik *s* harfi shaklida bo'lib, faqat ikki barobar katta yoziladi:

*S S - Sobir, Sodiq*

Kichik *h* ikki unsurdan iborat bo'lib, ular bir butun shaklda yoziladi:

*h h - hunar, hosil*

Katta *H* harfi unsurlarga ajratilmay, bir butun shaklda yoziladi. Uning pastki va ustki tugunchaklari bir xil bo'lishi lozim:

*H Hasan, Halima*

Kichik *s* harfiga kichik *h* harfini qo'shsak *sh* harf birikmasi hosil bo'ladi:

*sh sh - shar, shirin, sham*

Katta *S* harfiga kichik *h* harfi qo'shib yozilsa *Sh* harf birikmasi hosil bo'ladi:

*Sh Sh - Shaukat*

Kichik *p* harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, birinchi unsur uzun tayoqcha shaklida, ikkinchi unsur esa cho'zinchoq doira shaklida yoziladi:



q, p, p - pilla, poyga

Katta *P* harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, qo'l harakatini uzib yozishni talab etadi. Bu harfning ikkinchi unsurining yozilishini ko'proq mashq qildirish lozim. Katta *P* harfi kichik harflar bilan yordamchi ulash unsuri orqali qo'l harakatini uzmasdan bog'lab yoziladi:

*P P - Polat, Parpi.*

Kichik *q* harfi *Qq* harfiga osti tugunchakli unsurini qo'shib yozish orqali hosil bo'ladi:

*q q - qor, quyosh, qiz.*

Katta *Qq* harfi katta *Q* harfiga osti tugunchakli unsurini qo'shib yozish orqali hosil bo'ladi:

*Q, Q - Qobil, Qodir.*

Kichik yarim cho'zinchoq doira shaklidagi unsurga kichik bog'lab yozilgan *ch* harf birikmasi hosil bo'ladi:

*ch, ch - choy, chaman.*

Katta *Ch* harfi katta yarim cho'zinchoq doira shaklidagi unsurga kichik *h* harfini bog'lab yozish orqali hosil bo'ladi:

*Ch, Ch - Chori.*

Kichik *j* harfi osti ilmoqli uzun tayoqcha shaklidan iborat bo'lib, bir butun shaklda yoziladi. Uning nuqtasi esa so'z tugagandan so'ng qo'yiladi:

*j j - joja johil jiyron.*

Katta *J* harfi unsurlarga ajratilmay bir butun shaklda yoziladi:

*J J - Jora, Jamila.*

**O'QUV-METODIK**  
QO'LLANMA

Kichik *g* harfi ikki unsurdan iborat: birinchi unsuri kichik cho'zinchoq doira shaklida, ikkinchi unsuri esa osti tugunchakli uzun tayoqchadan iborat:

*g* - *gul, gerb, gilos*

Katta *G* harfi unsurlarga ajratilmay bir butun shaklda yoziladi:

*G* - *G'ozal. Gavhar.*

Kichik *g̃* harfi kichik *g* harfining ustiga ko'ndalang chiziqcha qo'yish orqali hosil bo'ladi.

*g̃* - *g'alla galaba*

Katta *G* harfining ustiga kichik to'lqinsimon chiziqcha qo'yilsa katta *G̃* harfi hosil bo'ladi:

*G̃* - *G'ani. Gayrat.*

Kichik *z* harfi bir butun shaklda unsurlarga ajratilmay yoziladi:

*z* - *zina, ziyrak*

Katta *Z* harfi bir butun shaklda yoziladi va boshqa kichik harflar bilan oson bog'lanadi:

*Z* - *Zokir. Zamira*

Kichik *v* harfi unsurlarga ajratilmay bir butun shaklda yoziladi:

*v* - *vavradk. vatan.*

Katta *V* harfi kichik *v* harfi shaklida bo'lib, faqat o'lchami bilan farq qiladi


*V* - *Vali Vafol*

Kichik *x* harfi ikki, o'ng va chap yarim cho'zinchoq doiralardan iborat bo'lib, qo'l harakati uzilmay yoziladi:

*x* - *xona, xanda*




Katta *X* harfi yarim cho'zinchoq doira shaklidagi ikki unsur dan iborat bo'lib, qo'l harakati uzilmay qo'shib yoziladi:



Kichik *f* harfi kichik *b* harfiga o'xshash bo'lib, bir butun shaklda yoziladi, ammo uning unsurlari chiziqdan pastga tushadi:



Katta *F* harfining unsurlarini alohida yozib mashq qildiriladi:



Tutuq belgisi ' vergul shaklida ifodalani b, ikki harf oralig'ining yuqori qismiga qo'yiladi:



## ILOVA

### Alifbe darslarining taxminiy o'quv soati taqsimoti<sup>1</sup> SAVOD O'RGATISH, NUTQ O'STIRISH VA YOZUV FANIDAN YILLIK TAQVIM REJA (jami - 129 soat)

#### I BO'LIM TAYYORGARLIK DAVRI

#### 1-chorak

Nº	O'qish darslari mavzusi	Suhbat mavzusi (didaktik mashg'ulot)	Darslik sahifasi	Yozuv mashg'uloti	Lug'at
1.	Og'zaki nutq haqida tushuncha. Darslik bilan tanishtirish.	Tayyorgarlik davri. Mustaqillik – oliy ne'mat. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat.	3-bet	-	Darslik, muqova, sahifa, yozuv chizig'i.

<sup>1</sup> Mazkur mashg'ulotlar taxminiy taqsimot rejasida faqat o'qish darslari ko'rsatildi. Yozuv darslari raqami ko'rsatilmadi. Maktab amaliyotida o'qish darslaridan keyin yozuv darslari bo'lishini hisobga olib, oraliqdagi qoldirilgan raqamlar yozuv darslariniki ekanligi hisobga olinsin.



**O'QUV-METODIK**  
**QO'LLANMA**

2.	Og'zaki va yozma nutq. Gap haqida amaliy tushuncha	"Maktab bizni chorladi" "O'quv qurollari magazini" rolli o'yini	4-bet	-	Ustoz, muallim, bilim.
3.	Matn va gap. (mustahkamlash darsi)	"Sinfim – faxrim".	5-bet	Qiya to'g'ri chiziq chizing	Faxr, doska, qomat, gavda.
4.	Bo'g'in va so'z haqida tushuncha	"Vatanimizda kuz". "Poliz mahsulotlari do'konida" o'yini.	6-bet	ilgakcha chizing	O'quv quroli, portfel, chizg'ich, o'chirg'ich.
5.	Gap, so'z, bo'g'in va tovush uzviyligi	"Bog'da" "Par etdi" va "O'zingni yelpi" o'yini.	7-bet	Egri chiziq va bayroqcha chizing	Poliz, sabzavot, sabzavot turlari.
6.	Mustahkamlash darsi.	"Maktab kutubxonasida" "Kutubxonada" syujetli o'yini	8-bet	Yarim doira chizing	Yaproq, ho'l meva

## Alifbe davri

N <sup>o</sup>	O'qish darslari mavzusi	Suhbat mavzusi (didaktik mashg'ulot)	Darslik sahifasi	Yozuv mashg'uloti	Lug'at
11	Tovush va Oo harf-tovushlari	"O nimaga o'xshaydi" didaktik o'yini.	9-bet	Kichik o, bosh O harflari	Oqqush, ovloq, to'qay.
12	N tovushi va Nn harf-tovushlari	"Non yopamiz" rasmi asosida suhbat "N" harfiga kim ko'p so'z topadi?" o'yini.	10-bet	Kichik n	Shirmoynon, kombayn, kulchanon, patir, obinon.
13	N tovushi va Nn harflarini mustahkamlash	"Non tayyorlashda bobodehqon va novvoy mehnati" rasmlar asosida suhbat.	11-bet	Bosh N harfi.	Ta'rif





14	A tovushi va Aa harflari	(ertak-dars) "Sehrli qopcha" o'yini.	12-bet	Kichik a harfi.	
15	A tovushi va Aa harflarini mustahkamlash	"Topa olasizmi?" o'yini.	13-bet	Bosh A harfi	
16	I tovushi va Ii harflari	"Ona va bola ish ustida" rasmi asosida suhbat.	14-bet	Kichik i harfi	
17	I tovushi va Ii harflarini mustahkamlash	"Hayvonlarni ardoqlang" mavzusida suhbat.	15-bet	Bosh I harfi	Rebus, parvarish.
18	M tovushi va Mm harflari	"So'z tuz" o'yini. M tovush-harfini ajratib talaffuz qilish.	16-bet	Kichik m harfi	
19	M tovushi va Mm harflarini mustahkamlash	"Kasblar" (suhbat). "So'z top" didaktik o'yini.	17-bet	Bosh M harfi	Metro poyezdi Muhandis muallim so'zlarining ma'nosini sharhlash.
20	T tovushi Tt harflari	"Mening otam chavandoz" rasmi asosida matn tuzish. "Harflarni top" o'yini	18 bet	Kichik t harfi.	
21	T tovushi va Tt harflarini mustahkamlash	"Xizmat itlari" rasmi asosida hikoyacha tuzish. "Qabul qilib oldim" o'yini.	19-bet	Bosh T harfi	
22	L tovushi va Ll harflari Sinf dan tashqari o'qish.	"Qaynar xumcha" ertagi asosida suhbat	20-bet	Kichik l harfi	Xazina, g'or, xasis, saxiy.
23	L tovushi va Ll harflarini mustahkamlash.	"Oilam" "Maqol aytish" didaktik o'yini.	21-bet	Bosh L harfi	Ahil, tinim, tolma.

**O'QUV-METODIK**  
QO'LLANMA

24	B tovushi va Bb harflari	"Bilimli bola" "Beshikdan to qabrgacha ilm izla" Hadis.	22-bet	Kichik b harfi	Mahalla, qariya, qadr.
25	B tovushi va Bb harflarini mustahkamlash	Binokor usta – go'zal binolar bunyodkori "Maqol aytish" didaktik o'yini.	23-bet	Bosh B harfi	O'rindiq, odimlamoq.
26	K tovushi va Kk harflari	"Bilimli bo'l". "Buratino" didaktik o'yini. "Kim ko'p so'z aytadi?" o'yini	24-bet	Kichik k harfi	Ko'za, kulol, tarixiy obida
27	K tovushi va Kk harflarini mustahkamlash	"Kitob, mening do'stimsan" "Kitobman" (Abdulla Turdiyev) she'ri asosida savol- javob o'tkazish.	25-bet	Bosh K harfi.	Sayr, sayohat, hayajon, "Qizil kitob".
28	R tovushi va Rr harflari	"Onam nima deydi?" "Mening kun tartibim va onam" mavzusida suhbat	26-bet	Kichik r harfi	Makkor, barra, orom.
46	R tovushi va Rr harflarini mus- tahkamlash. Sinfdan tashqari o'qish	"Sayrga chiqamiz" (Kavsar Turdiyeva) she'ri. Sayohat o'yini.	27-bet	Bosh R harfi	Ardoqli, yagona.
48	O' tovushi va O'o' harflari	Bog'bon mehnati haqida suhbat	28-bet	Kichik o' harfi	Chiyabo'ri, yapaloqqush, boyog'li.
50	O' tovushi va O'o' harflarini mus- tahkamlash	"Sog'lom tanda sog' aql" mavzusida suhbat	29-bet	Bosh O' harfi.	Vodiy, ko'rkam, sholikorlik.
52	D tovushi va Dd harflari	Dalada. Don – non. Rebus – o'yin mashg'uloti.	30-bet	Kichik d harfi	Bug'doyzor, kombayn, bepoyon.



54	D tovushi va Dd harflarini mustahkamlash	"Odobli bo'l" mavzusida suhbat	31-bet	Bosh D harfi	Kamolot, barkamol, boodob.
56	U tovushi va Uu harflari	"Quyosh qayerda joylashgan?" mantiqiy topshiriq	32-bet	Kichik u harfi	Tabiat hodisasi
58	U tovushi va Uu harflarini mustahkamlash. Sinfidan tashqari o'qish	Oilam va men (oiladagi mening o'rnim) davra suhbat	33-bet	Bosh U harfi	Minnatdor.
60	Y tovushi va Yy harflari	"Yo'lda" yo'l harakati qoidalar haqida suhbat. "Kim ko'p biladi?" o'yini.	34-bet	Kichik y harfi	Kenglik, o'tish chizig'i, katta yo'l, yo'lovchilar o'tadigan yo'l
62	Y tovushi va Yy harflarini mustahkamlash	"Yayra" matni. Vaqtning to'g'ri taqsimlash haqida Rebus - o'yin mashg'uloti. "So'z tuz" o'yini.	35-bet	Bosh Y harfi	Xushchaqchaq, sport anjomlari, mashq, uloq.
64	E tovushi va Ee harflari. Sinfidan tashqari o'qish	"Ari" she'ri (Muxtor Xudoyqulov). She'ni sahnalashtirish. Bolalar teatri.	36-bet	Kichik e harfi.	bari, devor, yalanglik.
66	E tovushi va Ee harflarini mustahkamlash.	"Erkatoy" (Ochil Tohir) she'ri. "Erinchoqlik – yomon odat" mavzusida suhbat. Tez aytish. "Kim ko'p tez aytish biladi?" o'yini	37-bet	Bosh E harfi	
68	G tovushi va Gg harflari.	Gullarni parvarishlash.	38-bet	Kichik g harfi.	Voleybol, hakkalamoq.
70	Gg tovushi va Gg harfini mustahkamlash	Gilam to'quvchi hunarmandlar haqida suhbat	39-bet	Bosh G harfi	Guldon, atirgul`
72	ng tovushi va ng harfini mustahkamlash.	"Bayrog'im" she'ri (M.Xudoyqulov). "Men nima olmoqchiman?" o'yini.	40-bet		Rang-barang. Murod, erk.

**O'QUV-METODIK**  
QO'LLANMA

74	ng tovushi va ng harfini mustahkamlash.	"Bekatta".Oltin olma – duo ol. (Maqol).	41-bet		Transport, salon, o'rindiq.
76	S tovushi va Ss harflari	Sut sog'uvchi mehnati haqida suhbat. Sutdan qanday mahsulotlar tayyorlanadi? muammoli topshiriq	42-bet	Kichik S harfi	Omonlik, to'kinlik.
78	S tovushi va Ss harflarini mustahkamlash	"So'z sehiri" she'ri (Dilshod Rajab)"Telefon" o'yini	43-bet	Bosh S harfi	Dugona, yo'lbars.
80	H tovushi va Hh harflari	"Hunar haqida kim ko'p maqol biladi?" o'yini.	44-bet	Kichik h harfi	Baraka.
82	H tovushi va Hh harflarini mustahkamlash	Mohir hunarmandlar haqida suhbat.Rasm asosida suhbat.	45-bet	Bosh H harfi	Himmat, hikmat.
84	Sh tovushi va Sh sh harflari	Shaxmat haqida suhbat "Shaxmat - aql gimnastikasi" (maqol).	46-bet	Kichik sh harfi	Shaxmat, shoh, mot. Shaxmatning foydasi
86	Sh tovushi va Shsh harflarini mustahkamlash	"Ochko'zlikning oqibati" mavzusida suhbat. "O'ylab top" didaktik o'yini	47-bet	Bosh Sh harfi	Mehr, sevgi.
88	P tovushi va Pp harflari	Kim ayta oladi? Soyalar teatri.	48-bet	Kichik p harfi	Masal.
90	P tovushi va Pp harflarini mustahkamlash	Yurt posbonlari. Rasm asosida suhbat. Yurting tinch – sen tinch(maqol).	49-bet	Bosh P harfi	Himoya, Ona yurt
92	Q tovushi va Qq harflari Sinf dan tashqari o'qish	"Solishtirib ko'ring". Qurbaqa bilan baqaning xususiyatlari haqida suhbat.	50-bet	Kichik q harfi	Idrok, qatlama
96	Q tovushi va Qq harflarini mustahkamlash	"Tekinxo'r" she'ri (Anvar Obidjon)."Ch" harfiga so'z topish" o'yini	52-bet	Kichik ch harfi	Yemish, ushoq, tekinox'r



98	Ch tovushi va Chch harflarini mustahkamlash	"Charos chaqqon" Topishmoq do'koni.	53-bet	Bosh Ch harfi	Nonushta, chandir. Jumboq, tilsim
100	J tovushi va Jj harflari	"Jo'jalarim" she'ri (Botir Jonuzoq).	54-bet	Kichik j harfi	Jajji tariq
102	J tovushi va Jj harflarini mustahkamlash	"Ruchkangni berib tur" hikoyasi (Hakim Nazir) asosida suhbat.	55-bet	Bosh J harfi.	Esdan chiqarish Haqiqiy o'rtoq
104	G' tovushi va G'g' harflari	Dangasa bilan g'ayratli. Bugungi ishni ertaga qo'yima. (maqol)	56-bet	Kichik g' harfi	G'ayrat, g'urur
106	G' tovushi va G'g' harflarini mustahkamlash	"Qish gashti" she'ri (Abdulla Po'lat). Qor yog'di – don yog'di (maqol)	57-bet	Bosh G' harfi	g'ag'illamoq, gashtli, chang'i.
108	Z tovushi va Zz harflari	"O'z tilim" she'ri (Safo Ochil). "Ona tilim – jonu dilim". (maqol)	58-bet	Kichik z harfi	O'zbek tili, millat boyligi, kelajak, istiqbol, iqbol.
110	Z tovushi va Zz harflarini mustahkamlash	"Zumrad bilan Qimmat" o'zbek xalq ertagi.	59-bet	Bosh Z harfi	Ko'rarga ko'zi yo'q, o'gay ona, shum.
112	V tovushi va Vv harflari	Vatanim. Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni. (maqol)	60-bet	Kichik v harfi	Kelajak, davra, Navoiy.
114	V tovushi va Vv harflarini mustahkamlash	"Yangi ekilgan nihollar suhbatini" (X.To'xtaboyev) hikoyasi asosida suhbat.	61-bet	Bosh V harfi.	Ziynat, odat, hushyorlik.
116	X tovushi va Xx harflari	"Olmaxon" she'ri.	62-bet	Kichik x harfi.	Yemish, o'rmon hayvonlari.



**O'QUV-METODIK**  
**QO'LLANMA**

118	X tovushi va Xx harflarini mustahkamlash	"Yaxshi bola" (A.Avloniy) matni.	63-bet	Bosh X harfi.	Kanda qilmoq intilish
		Bola aziz , odobi o'zidan aziz			
120	F tovushi va Ff harflari Sinfдан tashqari o'qish	"Fil" she'ri. "F" harfiga so'z topish.	64-bet	Kichik f harfi.	Favvora, tomchi, saraton, xartum.
122	F tovushi va Ff harflarini mustahkamlash	"Flamingo" matni asosida suhbat.	65-bet	Bosh F harfi	Dengiz hayvonlari, qisqichbaqa.
124	(') Tutuq belgisi	"A'lochilar" matni. A'lochi bo'lish uchun nimalar qilish kerak? Sen o'zingni maqtama, seni birov maqtasin. (maqol)	66-bet	Tutuq belgisini yozish	Jur'at, va'da, sur'at, ba'zi, ma'no, la'li.
126	(') Tutuq belgisini mustahkamlash	"Surat" she'ri asosida suhbat (Maftuna Alieva)	67-bet	-	Jur'at, o'zish, ma'noli
127	Alifbo	Alifbo tartibini o'rganish.	68-bet	-	
128	"Alifbe" bayrami.	"Alifbe" bayramini o'tkazish. She'r yodlash	69-bet	-	Raqs, ravon.







Rohatoy Safarova, Muhayyo Inoyatova, Mirhabib G'ulomov, Dadajon Sayfurov, Dilrabo Malikova

O'quv-metodik nashri

## ALIFBE

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinf darsligi  
bo'yicha o'quv-metodik qo'llanma

(O'zbek tilida)

**Muharrir:**

Anvar Zulpixarov

**Dizayner-rassom:**

Komoliddin Nurmanov

**Texnik muharrir:**

Shoxrux Turaxanov

**Sahifalovchi:**

Qobul Raufov

**Musahhih:**

Nilufar Oymatova

Bosishga \_\_\_\_\_ ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.  
Kegli 12, Roboto garniturası.  
Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 11,16.  
Nashr tabog'i 8,12. Adadi 18 634 nusxa.  
Buyurtma raqami: 21-510.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)

[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)